

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK9(575.1):9(47)

TO'XTAYEV TO'LQIN SATTOROVICH

**XX ASRNING 20-30 YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING
O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHATLARI VA
ULARNING FOJEALI OQIBATLARI**

5A120301- O'zbekiston tarixi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertasiya**

**Ilmiy rahbar:
Dots.Xoliqulov R.Sh.**

Samarqand – 2013

M U N D A R I J A:

Kirish.....	
I-BOB XX–asrning 20-30 yillarida o‘zbek qishloqlarining ijtimoiy siyosiy hayoti.....	
1.1 XX–asrning 20-30 yillarida o‘zbek qishloqlarida dehqonlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki.....	
1.2 O‘zbek dehqonlarining ijtimoiy tashkilotlarining tashkil topishi va ularning o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni.....	
II-BOB XX–asrning 20-30 yillarida o‘zbek qishloqlaridagi iqtisodiy o‘zgarishlar.....	
2.1 O‘zbekistonda amlga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularning mustamlakachilik mohiyati.....	
2.2 O‘zbekistonda XX asrning 20–30 yillaridagi madaniy qurilishdagi harakatlar va ularning ziddiyatli tomonlari.....	
III-BOB Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligini isloh etish jarayonlari	
3.1 Samarqand viloyatida yer-suv islohotlari , muammo va yechimlar	
3.2 Samarqand viloyatida ommaviy jamoalashtirish siyosati va uning mudhish oqibatlari.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	

Mavzuning dolzarbligi; O'zbekiston deb atalmish yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng xalqimiz tarixiga bo'lgan e'tibor nihoyatda kuchaydi. Tarixchilar oldida turgan eng asosiy vazifa , xalqimiz tarixini, boshidan kechirgan voqyealarni yoshlarimizga, yetishib kelayotgan yosh avlodga qanday bo'lsa shundayligicha qo'shib chatmasdan, bo'rttirmasdan, turli xil rang bo'yoqlarsiz yetkazib berishdan iboratdir.

Hech shubxasiz bu buyuk tariximizni o'rganish biz yoshlar uchun ham qarz ham farzdir. Zero muhtaram yurtboshimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda « Har bir millat , har bir xalq o'z nasl nasabini kelajak avlodini asrab avaylab, uning qadrini bilsa unday millatning , unday davlatning kelajagi buyuk bo'lishi muqarrar, tarix xalq ma'naviyatining asosidir» ¹

Istiqlol munosabati bilan tariximizga, uni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Tarix fanini o'rganish davlat siyosati darijasiga ko'tarildi. Shu maqsadda yurtboshimiz I.Karimov xalqimizning haqqoniy tarixini yozilishiga katta e'tibor berib, respublika tarixchilarining oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov uqtirganlaridek «O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan xalqni yengib bo'lmaydi, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz zarur»²

Tariximizning eng ziddiyatli muammoli davrlaridan biri bu XX – asrning 20-30 yillar davri xalqimizning tarixi davridir. Ushbu davr tariximizda kam o'rganilgan davr bo'lib hisoblanadi. Bizga ma'lumki 1917 yilgi Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng , o'zbek qishloqlarining ahvoli og'ir bo'lib feodal yer egaligi munosabatlari dehqon xo'jaliklarining moddiy ahvolini juda ham og'irlashtirgan edi. Dehqonlarning 2/3 qismi mardikorlar, chorikorlar va yersiz dehqonlar hissasiga to'g'ri kelar edi.

XX – asrning 20-30 yillari sobiq ittifoq, jumladan, O'zbekistonda mustabid tuzum illatlari yanada kengroq namoyon bo'la boshladi.. Iqtisodiyot, siyosat va

¹ Каримов. И. А. «Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз» Тошкент, 2000, бет – 43.

² Каримов. И. А. «Ўз келажакимизни ўз кўлимиз билан қурмоқдамиз» Тошкент, 1999, бет – 149.

madaniyat partiya va davlat nomenklaturasiga iskanjasiga tushib qoldi. Hukmron partiyaning tor doirada qabul qilgan qarorlari butun mamlakat uchun majburiy edi. Nomigagina e'lon qilingan bolshevistik shiorlar xalq uchun amalda hech narsa bermas edi. Hukmron partiya organlarisiz birorta qaror qabul qilish mumkin bo'lmay qolgan edi. Aynan mana shunday holatlar sobiq ittifoq boshqaruvida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi paydo bo'lganini anglatar edi.

Shunday tizimning paydo bo'lishi kurtaklarini sobiq ittifoqning dastlabki tadbirlaridan kuzatish mumkin edi. Masalan, Sobiq ittifoq o'zining mustamlaka o'lkalarida, xususan, O'zbekistonda barcha xo'jaliklarni, korxonalarni, mulklarni va yerlarni va hokazolarni o'z egalaridan majburan tortib olib milliylashtira boshladi, ularni davlat ixtiyoriga o'tkaza boshladi. Bu hol esa o'sha davrda o'lka xalq xo'jaligining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sobiq Ittifoq tomonidan amalga oshirilgan 1918 yildagi «Harbiy kommunizm» siyosati va 1920-1922 hamda 1925-1929 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari ham o'sha davrda xalq xo'jaligining rivojlanishiga asosiy to'siq bo'ldi. O'lkada vayronagarchilik kuchayib egasiz korxonalar, yer-maydonlari, bog'lar qarovsiz qoldi. Ulardagi jihozlar vahshiylarcha talandi. O'lkada qimmatchilik va inqirozli holat yuzaga keldi. Bu holatning yuzaga kelishidagi bosh sabab sobiq ittifoqning amalga oshirgan noto'g'ri tadbirlari edi. Oqibatda sobiq ittifoqning ko'pgina hududlarida, xususan, bizning o'lkada ham qimmatchilik, ocharchilik, oziq-ovqat narxining, xususan, donning xarid narxini oshib ketishiga olib keldi. Bu hol aholi o'rtasida norozichilik kayfiyatining kuchayishiga olib keldi. Odamlar qo'llariga qurol olishga majbur bo'ldilar. Oqibatda «Harbiy kommunizm» siyosatidan voz kechilib, yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o'tish boshlandi. Bu siyosat dehqonlarning moddiy ahvolini birmuncha yaxshiladi. Bu siyosatning asosiy maqsadi oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solg'i bilan almashtirdi, savdoga erkinlik berildi, mayda hunarmandchilik sohalariga, xususiyy tadbirkorlikka ruxsat etildi, bozorlarni tartibga soldi,bozor

munosabatlari harakatga kela boshladi, ijaraga olish va yollanma mehnatni cheklashni bekor qildi.¹

Afsuski, o'lka xalq xo'jaligini yuksaltirishga qaratilgan bunday tadbirlar uzoqqa cho'zilmadi. XX – asrning 20-yillari va uning oxirlarida amalga oshirilgan stalincha yer-suv islohotlari va qishloq xo'jaligini yoppasiga jamoalashtirish siyosati o'lkadagi bunday moddiy ijobiy o'zgarishlarni yo'qqa chiqardi. Xalqning ahvolini yanada yomonlashtirdi, dehqonlarga (ayniqsa boy va o'rta hol) nisbatan zo'ravonlik siyosati avj oldi. Kolxoz tuzumi oqibatida dehqon o'z yeridan, chorvadan, ishlab chiqarish qurollaridan mahrum bo'ldi. Sobiq Ittifoqning olib borgan bu zo'ravonlik siyosatiga qarshi chiqqanlar o'lkadan tashqariga, Rossiyaning eng og'ir hududlariga «quloq» qilindi. 1930 - 1933 yillarda respublikamizda «quloq» qilingan xo'jaliklar soni 5,5 mingtaga yetdi. Ularning ko'pchiligi asosan Ukraina va Sibirga ko'chirib yuborildi.²

Ushbu dissertasiya mavzusi XX – asrning 20-30 yillarida o'zbek qishloqlarida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiga bag'ishlangan. Dissertasiyada yuqorida qayd etilgan tarixiy voqyealar mustaqillik davri yangicha yondoshuvlari asosida , ushbu davrga oid chop etilgan yangi avlod adabiyotlarini , manbalarini tahlil etish asosida yozilishi nazarda tutilgan. Chunki ushbu davr mustaqilligimizdan so'ng qayta o'rganilmoqda, tarixiy izlanishlar olib borilmoqda, yangi, xolisona fikrlar chiqarilmoqda.

Agrar sohada sobiq ittifoq davrida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga endi yo'l qo'ymasligimiz lozim. Respublikamizda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning to'g'riligini davrning o'zi isbotlab turibdi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'li –bu agrar sohadagi bosh maqsadimiz – fermer (dehqon) xo'jaliklarining istiqbolidir. Endi qishloqlarimizning yuksalishini fermerlik harakatisiz tasavvur eta olmaymiz. Shu sababli qishloqlarimizda yangicha tafakkur yuzaga keldi , endi dehqon bo'laman,

¹ Холиқулов , Р. 20 – 30 йилларда совет ҳокимиятининг ўзбек деҳқонлари ҳаётидаги мустамлакачилик сиёсатининг моддий аҳволда акс этилиши тарихидан (Илмий тадқиқотлар ахборотномаси, СамДУ, 2003 йил, 4 – сон, бет - 19)

² Каримов. И.А «Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир» рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент, Ўқитувчи , 2012, бет – 18.

yer olaman, fermer bo'lamen deb yoshlarimiz orzu qilmoqdalar. Bu albatta bizning katta yutug'imizdir.

Dissertasiya mavzusi uchta bobga bo'lib uranildi. I- bobda XX – asrning 20-30 yillarida o'zbek qishloqlarida dehqonlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ushbu davrdagi sho'rolarning saylov tizimi va unda dehqonlarning ishtiroki yoritiladi. Yana ushbu bobda o'sha yillarda o'lkada sho'rolar bilan bir qatorda mehnatkash dehqonlarning ijtimoiy tashkilotlari , firqalar, komsomol, «Qo'shchi» kabi tuzilmalar faoliyati ham yoritib beriladi.

Ishning II-bobida Turkiston o'lkasida 1920-1922 va 1925-1929 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari , ularning bosqichlari, mohiyati, mazmuni va sho'ro hukumatining bu islohotdan ko'zlagan maqsadlari , yer-suv islohotlarining mustamlakachilik mohiyatlari yangi davr asosida yoritilishi ko'zda tutilgan. Shu bobda yana Sovet hokimiyatining iqtisodiy tadbirlari «Harbiy kommunizm «siyosati YaIS (Yangi iqtisodiy siyosat) ommaviy jamoalashtirish harakati, ularning ijobiy va salbiy tomonlari, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ham dissertasiyada o'z aksini topadi.

Dissertasiyaning III-bobi, xususan, ikkinchi bobning davomi bo'lib, unda bevosita Samarqand viloyati qishloqlarida XX – asrning 20-30 yillarida tarixiy jarayonlar , viloyatda yer-suv islohotlari , agrar siyosat, ommaviy jamoalashtirish siyosati, uning mudhish oqibatlari yoritiladi. Bobni yoritishda viloyat davlat arxivining shu davrga oid fondlaridan keng foydalaniladi

Tadqiqot predmeti va obyekti: O'rganilayotgan davr XX – asrning 20-yillarining boshi va 30-yillarning birinchi yarmidagi o'zbek qishloqlarining ijtimoiy-qtisodiy ahvoli, agrar sohadagi tub o'zgarishlar, ularning ijobiy va salbiy tomonlari , xususan , Samarqand viloyatidagi agrar o'zgarishlar, bu boradagi sobiq ittifoqning mustamlakachilik siyosati tadqiqotning predmeti sifatida belgilab olindi. Tadqiqotning obyekti ushbu yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar respublika miqyosida va aynan Samarqand viloyati misolida yoritiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: O'rganilayotgan davr nihoyatda dolzarbligini hisobga olib shuni aytish mumkinki, bu davr sobiq Ittifoq davrida

kam o'rganilgan, bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarga bir tomonlama baho berib kelingan. Sobiq Ittifoq tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning asl mohiyati ochib berilmagan. Bu voqyealarga ko'pincha ijobiy baho berib kelingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarning mustamlakachilik mohiyati ochib berishdan iboratdir. Buning uchun mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng chop etilgan ushbu davr haqidagi yangi avlod adabiyotlarini chuqur tahlil etish talab qilinadi.

Bu vazifalar nimalardan iborat:

- Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng o'lkadagi iqtisodiy ahvol;
- « Harbiy kommunizm » siyosatining mazmun mohiyati;
- YaIS ning mohiyati;
- Samarqand viloyatida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va uning mudhish oqibatlari;
- respublikada amalga oshirilgan ommaviy jamoalashtirish siyosati va uning salbiy oqibatlari;
- qishloq fojiasi va « quloqlashtirish » siyosatining oqibatlari.

Qisqacha adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonning sovet davri tarixidagi yaxshi o'rganilmagan mavzulardan biri XX – asrning 20-30 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bu davrda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari, ularning mustamlakachilik asl mohiyati, jamoalashtirish va u bilan bog'liq quloqlashtirish, surgun qilish davri tarixi masalasidir.

Sovet davrida yaratilgan aksariyat tarixiy adabiyotlarda bu mavzu boshdan oyoq , komfirqa, sosializm, markscha - lenincha mafkura ruhida yozilgan. O'rta Osiyodagi bu davrda agrar o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, totalitarizm talabi va andozasi bilan tahlil qilingan, tamomila ijobiy baholangan. Bu davrdagi tarixiy voqyealar mohiyati to'liq ochib berilmagan , manbalarga tanqidiy yondashilmagan, haqiqiy dalillardan chetlab o'tilgan, voqyealarning salbiy, fojeali tomonlari atayin tushirib qoldirilgan. Bu davr haqidagi tarixiy voqyealar soxtalashtirilgan, voqyealar sovet hokimiyatining katta yutug'i sifatida

ko'klarga ko'tarilib maqtalgan, hattoki o'zga mamlakatlarga namuna , andoza qilib tavsiya etish odat tusiga kirgan edi.

Tadqiqot qilinadigan davr tarixini xolisona yoritishda muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimovning «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz», (Toshkent 1999 yil), «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» (Toshkent 2011 yil) hamda «Tarixiy xotira va inson omili- buyuk kelavjagimizning garovidir» (Toshkent 2012 yil) nomli chop etilgan asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. Bu asarlarda O'zbekistonda XX – asrning 20-30 yillaridagi tarixiy voqyealar ochiq oydin , xolisona yoritilgan, baho berilgan.

Mazkur mavzuni tamomila yangi metodologiya, yangicha ruhda yoritishni akademik R. X. Aminova birinchilardan bo'lib boshlab berdi. Bu olimaning XX – asrning 90 yillarida e'lon qilingan ishlari¹, mustaqillik yillaridagi o'zbek tarixshunosligiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Tadqiqotchi A.A.Golovanov ham o'zining «Krestyanstvo Uzbekistana; evolyusiya sosialnogo polojeniya 1917-1937» (Toshkent, Fan: 1992) asarida bu davrdagi jamoalashtirish siyosatini yangicha davr bilan yoritishga harakat qilgan. R.Shamsutdinov va M.Abdullayevlar «O'zbekistonda sovetlashtirish, quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlarini» (Toshkent, Sharq; 2001 yil) hamda R. Shamsutdinovning «Qishloq fojiasi; jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun» (Toshkent Sharq 2003) nomli asarlari chop etildi. Bu asarlarda yurtimizning o'sha bo'hronli davri tarixiy-ilmiy dalillar, ishonchli manbalar asosida yoritib berildi. Bu tariximizni o'rganishda yoshlarimiz uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Lekin ushbu davr ijtimoiy-iqtisodiy ahvol viloyatimiz misolida tadqiq etilmagan. Shu sababli bu tadqiqotning asosiy e'tiborini XX – asrning 20-30 yillaridagi Samarqan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qaratib viloyatdagi olib borilgan tadbirlarning mustamlakachilik mohiyatini ochib berishga harakat qildik.

¹ 1(“Из истории коллективизации в Узбекистан- История СССР”, М. 1991, №4: “Коллективлаштириш – жамоалаштириш демак”, Возвращая к истории коллективизации в Узбекистане Ташкент , “Фан” 1995)

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Dissertasiyada XX – asrning 20-30 yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol nafaqat Respublikamiz, balki Samarqand viloyati misolida mustaqilligimizdan so'ng chop etilgan yangi avlod adabiyotlari va arxiv materiallarini o'rganish asosida tadqiq etiladi va taqqoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Dissertasiya ishining yangiligi shundan iboratki, tadqiqot qilinayotgan ushbu davrda sobiq Sho'rolar davrining ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlari va ularning mustamlakachilik mohiyati viloyat misolida, xususan, Samarqand viloyati misolida ham ochib beriladi, bu esa mamlakatimiz tarixini xolisona, haqqoniy o'rganishga, o'tmishimizni, tarixiy voqyealarni iloji boricha to'ldirishga imkon beradi deb o'ylaymiz.

I-bob XX–asrning 20-30 yillarida o'zbek qishloqlarining ijtimoiy siyosiy hayoti

1.1 XX–asrning 20-30 yillarida o'zbek qishloqlarida dehqonlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki

Milliy-hududiy chegaralanishdan keyin agrar o'zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi. 1924—1925 yillarda qishloq xo'jaligida o'lkaning mehnat qilishga layoqatli bo'lgan aholisining 85% i band edi. Agrar sektor mahsulotlarining salmog'i butun yalpi mahsulotning qariyb 80% ini tashkil etardi. Sanoatning 90% i qishloq xo'jalik hom ashyosini qayta ishlash bilan shug'ullanardi¹. Bunday sharoitda agrar islohotlar o'tkazilishi chuqur yujtimoiy ahamiyatga ega edi.

20-yillarning o'rtalariga kelib o'zbek qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan bir oz siljishlarga erishildi. Sababi yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan dehqon erkinroq nafas olayotgan edi. Oziq-ovqat razvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi, ayrim bozor mexanizmlarining tiklanishi qishloq mehnatkashlariga ortiqcha mahsulotlarini sotish, qishloq xo'jalik ekinlarini ko'paytirish imkonini berdi. Natijada dehqon xo'jaliklarini tovar bilan ta'minlanishi oshdi, aholining turmush darajasi birmuncha ko'tarildi. Shunga qaramasdan, qishloq xo'jaligini tiklashga doir asosiy masalalar hali yechilmagan, vaziyat murakkabligicha qolayotgan edi. 1924 yilda dehqonchilikda foydalanilgan yerlar respublikadagi mavjud ekin maydonlarining faqat 58,7% inigina tashkil qildi, qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti esa 1913 yildagi darajaning 47,2% ini tashkil etardi²

Qishloq iqtisodiyotini yuksaltirishning ustuvor omillaridan biri o'sha davrda keng miqyosli agrar islohotni avj oldirishdan iborat edi. Uni amalga oshirishning zarurligini vujudga kelgan muammolarning keskinligi taqozo qilardi. 1921—1922 yillardagi yer islohotiga qaramasdan, o'zbek qishloqlarida hali oldingi mustamlakachilik davriga xos bo'lgan ko'pgina o'ziga xos xususiyatlar, birinchi

¹ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 26-йиғма жилд, 16-варак.

² ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 788-йиғма жилд, 141-варак.

navbatda, kam yerlilik va yersizlik saqlanib qolgan edi. 1925 yilga kelib har 100 ta xo'jalikdan 13 tasi ekin ekiladigan yerga ega emasdi. Yersiz va 2 desyatinagacha yerga ega bo'lgan xo'jaliklar 71,8% ni tashkil etardi¹

O'zbekiston qishloqlari o'ziga xos mayda va tarqoq yer uchastkalariga bo'linganligi bilan ajralib turardi. Mayda dehqon xo'jaliklari asosan azaldan sug'oriladigan kichik hududlarda, ko'proq, Farg'ona vodiysida, Toshkent, Zarafshon va Xorazm vohalarida to'plangan edi. Agrotexnikaning o'ta oddiyligi, irrigasiya tizimining past holatdaligi, mablag'larning kamligi yangi yerlarni jadal o'zlashtirish imkonini bermagan edi. Bularniig hammasi yer masalasining keskinlashuviga olib keldi.

Kambag'al dehqonlar va badavlat qatlamlar o'rtasida bolshevik ma'murlar tomonidan ataylab avj oldirilgan sinfiy qarama-qarshilik tanglikning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

Yer masalasi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligining tovarlik xususiyatini oshirish muammosi ham keskin bo'lib turardi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, agrar ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, ishlab chiqarish munosabatlarida feodal-patriarxal shakllarining ustunligi iqtisodiy o'sish jarayonlariga, shahar bilan qishloq aholisi moddiy farovonligining oshishiga to'sqinlik qilardi. Bu esa, agrar munosabatlarni tubdan yangilash, yer-suv islohotini o'tkazish zaruriyati yetilganligini anglatardi. Barcha rivojlangan mamlakatlar ana shu bosqichni o'tganlar. Chunki birinchi bor «burjua inqilobi» qo'ygan agrar vazifani hal qilmay turib, chuqur bozor islohotlarini amalga oshirishga yo'l ochish mumkin emasdi. Afsuski, avvalboshdanoq bolsheviklar belgilagan agrar islohotlar negizida chuqur nazariy va uslubiy xato yondashuvlar mavjud edi.

Hokimiyat organlari, agrar islohotlarning dastlabki bosqichida bo'lganidek, qishloqni ijtimoiy qayta qurishning tarixiy jihatdan sinalgan iqtisodiy vositalarini, «kapitalistik mamlakatlar»da dehqonlar masalasini hal qilishning muhim

¹ ЎзР МДА, 86-фонд, 1-руйхат, 3097-йиғма жилд, 122-варақ.

tajribasini ostonadanoq inkor etdilar. Kommunistik metropoliyaning bolshevik rahbarlari marksizmning xayoliy aqidalariga tayangan holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qayta qurishning asosiy quroli sifatida zo'ravonlikni tanladilar. Chunki yangi iqtisodiy siyosat harbiy kommunizm davri uchun xos bo'lgan usullarni birmuncha yumshatgan bo'lsa- da, umumiy strategik yo'l o'zgarmasdan qolgan edi.

Bolsheviklar rahbariyatining mulohazasi bo'yicha islohot o'zbek qishloqlarining sotsialistik rivojlaniish yo'liga qat'iy tushib olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi, mafkura ta'siriga olingan qishloq iqtisodiyotining tayanch negizlarini vujudga keltirishi lozim edi.

Agrar inqilobning strategiya va taktikasi O'zbekiston kompartiyasining II syezdida (1925 y. noyabr) tasdiqdandi. Syezd qarorlarida alohida ta'kidlab o'tilganidek, yer islohoti shunday ahvolni ta'minlashi lozim ediki, unda «xususiy mulkchilik munosabatlari davlatning sotsialistik iqtisodiyoti ta'siriga bo'ysundirilishi kerak edi»¹

Syezd darhol «O'zbekiston SSR (hududi) doirasidagi yer va suvni nasionalizasiya qilishga kirishish, yerdan foydalanuvchi yirik xo'jaliklar guruhini tugatishga da'vat etdi. «Mehnatkash» dehqonlarning haqiqatda doimiy yollanma ishchilar va chorikorlar jalb qilmasdan ishlov beradigan maydonlari ularga biriktirib qo'yiladigan yer normasi deb e'lon qilindi. Boshqacha aytganda, syezd dehqonlarni qat'iy sinfiy pozitsiyadagi yangi iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga intildi. Bunday ikki tomonlamalik respublika darajasida avj olib ketgan «bozor tarafdorlari va g'ayri bozorchilar kurashini aks ettirar edi. Bu kurashda o'sha yillardagi mamlakat hayoti uchun xos bo'lgan uzaro bog'liq bo'lgan ikki jarayon: bozor iqtisodiyotini buzishga qaratilgan yo'l va uni davom etgirishga qaratilgan yo'l o'z ifodasini topgan edi.

Yer-suv islohoti bilan yangi iqtisodiy siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik darajasi masalasida umumlashtirilgan yonlashuv "18 lar guruhi" nuqtai nazarida

¹ ЎзКП(б) съезди. Стеногр. Хисоботи 1926 йил 22-30 ноябр

yaqqol namoyon bo'ldi. U respublikaning 18 nafar mas'ul partiya va sovet xodimlarini o'z ichiga olgan edi (ular orasida O'zSSR Yer ishlari xalq komissari I.Xidiraliyev, Ichki ishlar xalq komissari Rafiqov va boshqalar bor edi). O'zSSR XKK raisi F.Xo'jayev bu guruhga ochiq qo'shilmagan bo'lsa-da, ularga goyaviy jihatdan rahnamolik qiladi.

Ular yerdan baravar foydalanish amaliyotidan ehtiyot bo'lishni, tovar-pul munosabatlari imkoniyatidan to'laroq foydalanishni, badavlat dehqonlarga avaylab munosabatda bo'lishni, barcha joylarda agrar islohotning borishida o'lkaning o'ziga xos tomonlari hisobga olinishini taklif qilgan edilar. Biroq ularning ogohlantirishi kommunistlarning ortodoksal kayfiyatdagi qismi tomonidan g'azab-nafrat bilan kutib olindi. Guruh a'zolari boy-quloq yer egaligini, feodal tartiblarni saqlab qolishga intilishda va mahalliy millatchilik tomoniga og'ishda ayblandi. Bunday yondashuv yer tuzilishi vazifalarini hal qilishda yangi iqtisodiy siyosatning sog'lom imkoniyatlaridan foydalanish mumkinligini sezilarli ravishda cheklab qo'ydi.

O'zbekiston KP II syezdining mafkuraviy yo'l-yo'riqlariga muvofiq 1925 yil 2 dekabrdayoq O'z SSR MIK ning favqulodda sessiyasida «Yer va suvni nasionalizasiya qilish to'g'risida dekret qabul qilindi. Ayni vaqtda respublika sovetlari MIKning yer-suv islohoti haqidagi dekreti e'lon kilindi, unda yerni tortib olish shart-sharoitlari va agrar islohot bosqichlari belgilab berilgan edi. Xususan, Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi 50 des.dan ortiq yeri bor pomeshchik tipidagi xo'jaliklar va Farg'ona viloyatidagi 40 des. yeri bor xo'jaliklar musodara qilinishi ko'zda tutilgan edi.

7-10 des.dan ortiq, yeri bor xo'jaliklar esa qisqartirilishi lozim edi.

Islohotni g'oyaviy-tashkiliy jihatdan ta'minlash uchun markaziy partiya-davlat komissiyasi, joylarda esa viloyat, uyezd va volost komissiyalari tashkil etildi, ular ishonchli partiya-sovet xodimlaridan tuzilgan edi.

Islohot boshlanishiga qadar O'zbekistonning barcha mintaqalarida faol tashviqot-targ'ibot ishlari avj oldirib yuborildi. Hamma joyda «Qo'shchi» ittifoqi a'zolarining yig'ilishlari, maxsus qishloq yig'inlari bo'lib o'tdi, ularda faol

chorikorlar, mardikorlar, yersiz dehqonlardan iborat islohotga ko'maklashish yacheykalari saylandi. Ular yordamida barcha toifadagi xo'jaliklarning ro'yxatlari tuzilib, yerga muhtoj bo'lganlar soni aniqlandi, «ortiqcha ish hayvonlari va zo'rlik bilan tortib olinishi lozim bo'lgan mehnat bilan shug'ullanmaydigan xo'jaliklardagi qishloq xo'jalik asboblari ham hisobga olindi.

Hokimiyat tuzilmalari dehqonlarning kambag'al qatlamlarini qishloqning badavlat guruhlariga gij-gijlatish yo'li bilan barchani tenglashtirish kayfiyatiga ta'sir etish va sinfiy nafratni avj oldirishga intildilar, sinfiy to'qnashuvlar keltirib chiqardilar. Bu narsa partiya hujjatlarida sinfiy tabaqalanishga yordam berish deb ataldi. Qisqasi, partiya qishloqda sovet hokimiyatiga qarshi bo'lgan tabaqani, sovet davlatiga hayrixoh bo'lgan kambag'al dehqonlar tabaqasi qo'li bilan yo'qotishga harakat qildi.

O'rtahol dehqonlarga birmuncha e'tibor berildi, sababi ular islohotni ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan kutib olgan edilar, chunki ular islohot natijasida o'zlarining chek yerlaridan ajrab qolishdan cho'chir edilar. Xolbuki, o'rtahol dehqonlar qishlokda asosiy kuch bo'lib, islohotning butun borishi o'rtahol dehqonlar qaysi tabaqadan kelib chiqqanligiga va qaysi qatlamlarga qo'shilishiga bog'liq edi. Shu sababdan ham bolsheviklar o'rtahol dehqonga ustamonlik bilan munosabatda bo'ldi. Ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini hisobga olib, partiya ularni o'z tomoniga og'dirishga intildi. O'sha yillardati partiya hujjatlarida o'rta qatlamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lishni namoyish qilish zarurligi ta'kidgangan edi. O'rtahol dehqon «iqtisodiyotni rivojlantirishda... va ishchilar sinfi bilan dehqonlar itgifoqini amalga oshirishda asosiy, markaziy figura¹ deb e'lon qilindi. Uni mulkiy manfaatlardan xalos qilishga doir chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan, respublika bo'yicha o'rtacha mehnat uchun yerdan foydalanish normasi 4 des.gacha qilib belgilandi. Xo'jalikda ikkita otga ega bo'lishga ruxsat etilgan edi.

Modomiki shunday ekan, agrar islohot sinfiy zarbasining butun kuchi go'yo yirik yer egaligiga qarshi. pomeschchik tipidagi xo'jaliklarni tugatishga qaratilgandek edi. Biroq, haqiqiy hayot bu xildagi talqinni rad etardi.

¹ КП Узбекистана в резолюциях и решениях Т.1, С. 139.

1924 yil oxirida O'rta Osiyo respublikalarida markazning o'lka xalqlarini atayin bo'lib yuborish maqsadidagi pinhona rejasi bajarilib milliy davlat chegaralanishi amalga oshirilishi natijasida Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR va boshqa bir qator sovet milliy davlatlari tashkil topdi. Shundan so'ng O'zbekiston SSR va O'zbekiston Kompartiyasi tuzilganligi rasmiylashtirildi. 1925 yil 6-12 fevralda Buxoroda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasining 1-syezdi RKP (b) ning tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Kompartiyasi (b) tuzilganligini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi. Markaziy komitetni sayladi. V.I. Ivanov va A. Ikromovlar kotib bo'ldilar. Syezd quyi Sho'ro tashkilotining «yot unsurlar» bilan buzilganligi, sho'rolar ishida kambag'al dehqonlar va o'rtahollarning o'ta kam ishtirokini qayd etib qishloqda partiya tashkilotlarining asosiy vazifasi, birinchi navbatda, dehqonlar va batraklar ommasini, manfaatlarini himoya qiladigan proletariat diktaturasi idoralarini tuzishdan iborat deb ko'rsatildi. Bu masalani hal etishni yengillashtirish uchun qator tadbirlar belgilandi: qishloq sho'rolarini «sinfy- yot unsurlardan» tozalash, sho'ro qurilishiga qishloq kambag'allari va o'rta dehqonlarni keng jalb etish va boshqalar. O'z KP (b) birinchi syezdidan so'ng Buxoroda 1925 yil 13-17 fevralda O'zbekiston SSR sho'rolarining 1-ta'sis syezdi bo'lib o'tdi.

Syezdga 598 delegat qatnashdi. Shundan ishchilar- 193 ta, dehqonlar-246 ta, ziyolilar 83 kishini tashkil etdi. Dehqonlarning delegatlar tarkibida ko'pchilikni tashkil etishi (41 foiz), ular respublika aholisining asosini tashkil etganligidandir. 1924 yil Respublika aholisini 79,7 foizini dehqonlar tashkil etgan edi. Chunki o'lka asosan dehqonchilik mahsulotlari yetkazib berishga mo'ljallangan, xom ashyoga boy hudud edi.

O'zbekiston aholisining bir foizini tashkil etgan ishchilar delegatlarning 33 % ini tashkil etishi esa bu o'sha davrdagi proletariat diktaturasi hukmronligining yorqin namunasi edi. Nazariy jihatdan proletariat diktaturasini ishchilar sinfi, kambag'al dehqonlar , o'rtahollar bilan ittifoqda amalga oshirgan bo'lsalarda, sho'ro tashkilotlarida, vakillik normalarida tenglik yo'q edi: ishchilar «sho'ro jamiyatining ko'proq birlashgan va izchil inqilobiy sinfi» sifatida bunday

«inqilobiy» sifatlarga ega bo'lmagan dehqonlarga nisbatan imtiyozga ega edi. Mana shunda bolsheviklar tomonidan sho'rolar siyosiy sistemasida o'rnatilgan nafaqat mehnatkashlar bilan ekspluatator sinflar o'rtasida, balki sho'ro jamiyatini tashkil etgan sinflar o'rtasidagi tengsizlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib nisbatan uncha katta bo'lmagan kommunistlar guruhi syezdda ko'pchilikni tashkil etib, uning ishida va respublikaning butun hayotiga rahbarlik qila boshladi.

1925 yil 17-fevralda syezd O'zbekiston SSR sho'rolari markaziy ijroiya komiteti tarkibini 204 kishidan iborat qilib sayladi. Shu jumladan, MIQ a'zolarini 2/3 qismi yoki 143 kishi kommunistlar edi. Bundan ko'rinadiki, uning bu tarkibi hokimiyatga O'z KP (b) ning yakkahokimligini aks ettirib, davlat qurilishida «Partiya yo'li»ni o'tkazilishini ta'minlar edi. MIQ tarkibiga saylanganlarning 28,9% ishchilar, 29,4 % i dehqonlar, 24 % i xizmatchilar, 3 % i hunarmandlar va boshqalar. MIQ a'zolari va a'zolikka nomzodlarning yarmidan ko'pi- 54,9 % ini o'zbeklar tashkil etdi. Syezdda MIQ raisi qilib, o'zbek dehqonlarining vakili Yo'ldosh Oxunboboyev saylandi. Chunki O'zbekiston sharoitida aholining 80 % ini dehqonlar tashkil etib, bu tushunarli va qonuniy hol edi. Bu to'g'risida O'z KP (b) ning kotibi Akmal Ikromov shunday dedi: «sizlarga rais o'rniga nomzod ko'rsatishda kommunistlar (bolsheviklar) fraksiyasi kimning nomzodini ko'rsatishni ko'p o'yladi. Nomzodni tanlashda, partiyamiz ko'rsatadigan kishi albatta dehqon, batrak bo'lishi kerakligini hisobga oldi. Buning sababi shuki... dehqonlar mamlakatidir, shu tufayli rais shunday bo'lishi kerakki uning oldiga har bir batrak, har bir dehqon bemalol kelib so'zlashishi, unga nima zarurligini aytishi va raisimiz ularning iltimoslarini qondirishi, raisimiz biror narsa deganda batrak va dehqonlar unga ishonishi zarur»Biz bunday barcha sifatlarga ega bo'lgan nomzodni qishloq xo'jaligi viloyati bo'lgan Farg'onadan topdik. Biz u yerdan batrak, birir qarich yeri bo'lmagan... va Marg'ilon uyezdi «Qo'shchi» ittifoqida ishlaydigan va aynan o'rtoq Yo'ldosh Oxunboboyevni topdik».

Yo'ldosh Oxunboboyevning o'rinbosarlari qilib Sultonxo'ja Qosimxo'jayev, Nasrulla Mahsum Lutfullayev va Jahon Obidovalar saylandilar.

Respublika Sho'ro tashkilotlari hujjatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, qishloq sho'rolarini mustahkamlash vazifasi, sho'ro hokimiyati organlarini mehnatkash dehqonlar keng ommasiga yaqinlashtirish bir qator yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan;

a) qishloq sho'rolarining qayta saylovlarini doimiy o'tkazib turish natijasida ularning boy-quloq va tasodifiy elementlardan tozalanib borishi;

b) sho'ro qurilishiga mehnatkash dehqonlar ommasi, shu jumladan ayollarni keng jalb etish;

v) deputatlar umumiy bilim darajasini oshirish va xususan rayon ijroiya qo'mitalari va qishloq, sho'rosi aktivi hamda rahbar yadrosini

g) tuman ijroiya qo'mitalari va qishloq sho'rolari raislari va kotiblar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilib sovet qurilishi masalalari bo'yicha ularni o'qitish;

d) qishloq va ovullarga MIQ XKS a'zolarini, respublika MIQ va XKS apparati xodimlari va instruktorlarini quyi sovet apparatini ishini o'rganish va ko'rsatmalar berish uchun jo'natish, ularni «sinfiy-yot unsurlar va ularning gumashtalaridan tozalash», mahalliy sho'rolar xizmatlariga amaliy yordam ko'rsatish;

e) respublika sho'rolar MIQ sessiyalari va prezidium majlislarida tuman ijroiya qo'mitalari va qishloq sho'rolar hisobotlarini doimiy eshitib borish;

i) yuqori sho'ro organlari xizmatchilarini rayon ijroiya qo'mitalari va qishloq sho'rolariga doimiy ishga yuborish;

k) ma'muriy boshqaruv sistemasini takomillashtirish;

j) mahalliy sho'rolar konkurs ko'riklarini o'tkazish va boshqalar.

Tadqiqot qilinayotgan davrda mahalliy sho'rolarning qayta saylovlari doimiy o'tkazilib turildi, shulardan birinchisi O'zbekiston tuzilganidan so'ng 1925-1926 yillarda o'tkazildi. Qishloq sho'rolar sayloviga 40,9 foiz saylovchilar qatnashadi. Shuning 40,6 foizi kam yerli dehqonlar, 4 foizi batraklar, 20,9 foizi o'rtahol dehqonlar edi. Saylovda qatnashganlarning 9 foizi ayollar edi. 1925 yilgi saylov kompaniyasining xarakterli xususiyati shundaki Buxoro va Xorazm respublikalari

tarkibida bo'lgan tumanlarda birinchi marta sho'ro hokimiyati saylov organlari tuzildi.

O'zbekistonning 1926-27 yilgi saylov kampaniyasi natijalari ittifoqning boshqa respublikalari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston qishloq sho'rolarida batraklar va qishloq xo'jaligi ishchilari nisbatan ancha yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 15,5 % ni, RSFSR da 2,5 % ni, Ukraina SSR da 0,5 % ni, Belorussiyada 1,1 % ni, Turkmaniston SSR da 98 % ni tashkil etgan. Bu nafaqat O'zbekiston batraklari va qishloq xo'jaligi ishchilarining siyosiy faolligini ko'rsatib qolmasdan, balki qishloqda agrar qayta qurishlar amalga oshirilganligi natijasida Respublika qishloq aholisining ko'pchiligini tashkil etganligida ham edi.

Respublikadagi saylov kampaniyasining yana bir xususiyati unda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshganligidadir. 1925-1926 yillarda bu hol umumittifoq darajasidan ancha orqada va past edi. SSSR dagi qayta saylov yig'ilishlariga 28 foiz dehqon ayollar qatnashgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich bor yo'g'i 7,8 foizni tashkil etar edi. 1927 yilda xotin-qizlarni ozod qilish va paranjini tugatish («Hujum») kampaniyasi boshlanib, bu 1926-1927 yillardagi saylov kampaniyasida dehqon ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga katta turtki bo'ldi. Natijada sho'ro tashkilotlariga ayollarni jalb etishda tub burilishga erishildi.

Afsuski bu kampaniya oqibatida ko'plab ilmiy ayollar o'zlarining erlari va yot unsurlar tomonidan vahshiylarcha o'ldirildi. Chunki mahalliy millat ayollari va oiladagi muhit bu kampaniyani asl mohiyatini tushunib yetmagan edi. Ayollar qishloq sho'rolari deputatlarining 12,7 foizini va rayon ijroiya qo'mitalari a'zolarining 10 foizini tashkil etdi. Natijada O'zbekiston ayollarining Sho'rolarga ishtirok etishi bo'yicha umumittifoq darajasidan ham o'tib ketdi. 1927 yilda sobiq SSSR da xotin-qizlarning Sho'rolar tashkilotlaridagi ishtiroki 11,3 foiz bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 12,7 foizni tashkil etdi.

Ammo asrlar mobaynida ijtimoiy faolligi susaygan O'zbekiston ayollarining ijtimoiy-siyosiy faolligi o'sishiga firqa, Sho'ro va komsomol organlarining tashabbusi va rahbarligida sun'iy, ma'muriy yo'l bilan erishilib, hech foydasiz

katta xarajatlar qilindi. «Hujum» kompaniyasini o'tkazish davrida yuzlab mahalliy millat xotin-qizlari o'z qarindoshlari tomonidan o'ldirildi va majruh qilindi.

1927 yil 22-31 martda bo'lgan O'zbekiston SSR sho'rolarining II syezdida qayta saylov va rayonlashtirish natijalari ko'rib chiqildi. Syezd Respublika Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining «Sho'rolarning yagona til birligini joriy etish bo'yicha, viloyatlarni alohida sho'rolashtirish, yangi ma'muriy rayonlashtirishni o'tkazish, asosiy qishloq ommasini hokimiyatga yaqinlashtirish bo'yicha» ishini ma'qulladi. Syezd sho'rolar atrofida kambag'al va o'rtahollarni birlashtirish zarurligini qayd qildi. 31 martda 278 kishidan iborat O'zbekiston Sho'rolari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining yangi tarkibi saylandi. Shundan dehqonlar 30,2 foiz, xizmatchilar 29,1 foiz, ishchilar 28,4 foiz, hunarmandlar 2,9 foizni tashkil etdi.¹

Qayta saylov kampaniyasi keskin sinfiy kurash ostida o'tdi. Masalan Baliqchiboylar o'z tashviqotchilarini yubordi. Jalolquduq va Shaxrixonda faollarning bir nechtasi o'ldirildi. Shunday hollar ko'pgina qishloqlarda kuzatildi.² Qishloq sho'rolari tarkibiga «sinfiy yot elemenlar»ning kirib qolmasliklarini oldini olishning yana bir yo'li batrak dehqon faollarining «xushyorligi»ni oshirish, ularning yordamida saylov komissiyalari bilan birgalikda «ishonchsiz» kishilarni aniqlash edi. Natijada qayta saylov kampaniyasi davrida saylovdan «mahrumlar»soni keskin darajada ortib ketdi. Andijon okrugi sho'rolarining II syezdi rezolyusiyasida (1929 yil mart) ta'kidlanadiki «Oldingi saylov kampaniyasiga nisbatan okrug bo'yicha mahrumlar soni to'rt yarim barobar oshib ketdi, ularni aniqlash batrak va kambag'al ommaning faol ishtirokida amalga oshirildi», natijada respublika mahalliy sho'rolarga saylovlardan yangi o'n minglarcha dehqonlar chetlashtirildi.

Qishloq sho'rolari sayloviga 61 foiz saylovchilar qatnashdi, umumiy ovoz berishga qatnashgan ayollar soni 3 barobar ko'paydi. Yangi saylangan qishloq sho'rolarining asosiy tarkibi kambag'al batraklar edi. 39,5 foiz qishloq sho'rolari

¹ Ўзбекистон ССР меҳнаткашлари депутатлари Шўролари рақамларда, Тошкент, 1932, 27 бет.

² Ўзбекистон республикаси МДА 86-ф, 1 тр, 5044 а-д 71-72 варақлар.

a'zolari kambag'allar, 29,1 foizi batraklar va faqatgini 24,5 foizi—o'rtahollar edi. Bu hol yer-suv islohoti natijasida qishloqda o'rtahol dehqonlar nisbatining oshganligi, batraklar, yersiz, kam yerli dehqonlar nisbatining bir necha marta kamayganiga qaramasdan sodir bo'lgan edi. Shuning uchun 20-yillar oxirida qishloq sho'rolari tarkibi o'zbek qishlog'ining mavjud ijtimoiy tuzilishini ifodalamas edi.

1928-1929 yilgi qayta saylov kampaniyasida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, juda ko'p kamchiliklardan ham holi emasdi. 1928-29 yillardagi sho'rolarga qayta saylov kampaniyasi davrida saylov komissiyalarining ko'pida o'rtahol dehqonlarning saylov huquqi cheklab qo'yildi, ular «mahrumlar» ro'yxatigi kiritildi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi maxsus komissiyasi o'rta hol dehqonlarning yarmidan ko'pini saylov huquqini tikladi. Partiya, Sho'ro tashkilotlari, saylov komissiyalari tomonidan yo'l qo'yilgan bunday haddan oshishlar sho'ro hokimiyati ijtimoiy negizini yemirilishiga olib keldi. O'rta holllarga nisbatan bunday haddan oshishlarning natijasida, ular qishloq sho'rolari tarkibiga kam kiritilgan edilar.

Sovet davlati mahalliy sho'rolarni mustahkamlash, uni mehnatkash ommaga yaqinlashtirish qishloqda tumanlarni sho'ro tuzumini qurishga rahbarlik qilishda asosiy bo'g'inga aylantirish bo'yicha bir qator okruglarni tugatish kabi ishlar amalga oshirildi.

1930 yil 23 iyunda Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti «Okruglarni tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi, bu qarorda ushbu tadbirni 1930 yil 1-oktyabrga belgilab qo'yildi.

1930-31 yilgi saylov kampaniyasini oldingi saylovlar bilan solishtirib ko'rganda, dehqonlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshib borganligini ko'ramiz. Masalan 1925-26 yil qishloq saylovchilarining saylovda qatnashuvi 45,8 foiz bo'lgan bo'lsa, 1930-31 yillarda esa 66,8 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda bunday siyosiy ahvol shundan dalolat beradiki, agrar soha bilan band bo'lgan dehqonlarning siyosiy ongi o'sib borgan.

Shu bilan birga qishloqda sho'rolar qurilishida anchagina kamchiliklar bo'lib, albatta unda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining ham aybi bor edi.

Bu to'g'rida VKP(b) Sredazbyuro MKning 1932 yil yozida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining ma'ruzasi bo'yicha qabul qilingan qarorda ko'rsatilgan edi. Unda Respublika Sho'rolarining «kolxozlarning tashkiliy – xo'jalik ishini mustahkamlashda, kolxoz ishlab chiqarishida ayollar mehnatidan foydalanishda, quyi sho'rolarni mustahkamlash va quyi sho'ro apparati xizmatchilari mehnat sharoitlarini yaxshilashdagi» faoliyatini ta'kidlab, shu bilan birga VKP(b) MK Sho'rolarining ommaviy ishi, ularning faoliyatidagi asosiy uslub bo'lmasdan, ular jamoalarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash bo'yicha o'z ishlarini qayta ko'rib chiqmadilar, jamoa ishlab chiqarishida mehnatning yangi usullarini tashkilotchilari bo'la olmadilar deb O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga, Sho'rolar sho'balari ishini jonlantirish va uning rolini ko'tarish tavsiya qilindi. 1933 yil 1-yanvargacha jamoalar, sovxozlar va MTSlarda Sho'rolarning deputat guruhlarini tashkil etishni tugallash topshirildi. Shu bilan birga qishloq Sho'rolari kolxozlarga nisbatan ma'muriyatchilikka berilmasliklari ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga qishloq Sho'rolari haqidagi qonunni qayta ko'rib chiqib, qishloq sho'rolari va kolxozlarning bir-biriga nisbatan haq-huquqlari aniq bo'lishi, hamda markaziy idoralar tomonidan mahalliy Sho'rolar ishiga rahbarlikni yaxshilash bo'yicha choralar ko'rish topshirildi.

Qishloqda sovet qurilishidagi bu kamchiliklar ko'p tomondan yuqori Sho'ro idoralari-Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Xalq Komissarlari Soveti va tuman ijroiya qo'mitalarining kuchsiz rahbarligi natijasidan edi. Bu haqda VKP (b) Sredazbyuro MQ qarorida ham ta'kidlangan edi.

Xususan tuman ijroiya qo'mitalari tomonidan qishloq sho'rolariga rahbarlik turi va usullari ko'p malomatga molik edi. 1934 yilgi hujjatlarning birida Tuman ijroiya qo'mitalari va markaziy idoralar tomonidan qishloq sho'rolari ishini tashkil etishda aniq rahbarlik qilinmas va ularning ish faoliyatida to'rachilik-qog'ozbozlik usuli hukm surardi. Tuman ijroiya qo'mitalari va uning tomonidan qishloq

Sho'rolari sho'balarining amaliy ishini tashkil etishda e'tibor va haqiqiy rahbarlik yo'q edi.¹

Qishloq Sho'rolari mas'uliyatining pasayishida yuqori tashkilotlardan kelgan vakillar faoliyati ham muhim rol o'ynadi.

Tuman ijroiya Qo'mitalari va ularning vakillari qishloq Sho'rolari bilan muntazam amaliy ishlash o'rniga ularni ma'muriyatchilikka o'rgata boshladilar.

1933 yil 4 iyulda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining O'rta Chirchiq tuman ijroiya qo'mitasi ma'ruzasi bo'yicha qabul qilgan qarorida ta'kidlanadiki, tuman ijroiya qo'mitasi «qishloq sho'rolariga rejali to'g'ri rahbarlikni tashkil etish o'rniga ... qishloq sho'rolarini chetga qo'yib ish olib borgan, tuman vakillari orqali qishloqda ish olib bordi». Vakillar qishloq sho'rolariga nisbatan ma'muriyatchilikka yo'l qo'yib, tuman ijroiya qo'mitasining Prezidiumining ruxsatisiz va saylovchilarning biror ko'rsatmasisiz qishloq sho'rolari raislari va kotiblarini ishdan bo'shatib yangilarini tayinlar edilar. Shunday yo'l bilan 27 oy mobaynida hech qanday asossiz 9 ta qishloq sho'rosi raisi va 11 ta kotibi almashtirildi.²

Qishloq sho'rolariga keyingi qayta saylovlarda va ularning natijalarida uchta asosiy muhim yo'nalish borligi ko'zga yaqqol tashlanadi;

1. Qishloq saylovchilarining ijtimoiy siyosiy faolligini oshganligini ko'ramiz. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki 4-saylov kampaniyasi davrida 1927 yildan 1934 yilgacha O'zbekiston mehnatkashlarining ijtimoiy va siyosiy faolligi 40,7 foizdan 75 foizgacha o'sdi.³

2. Qishloq sho'rolaari deputatlari tarkibida dehqonlarni jamoalashtirish avj oldirilishi bilan kolxozchilarning ham soni ortib bordi. 1934 yilda kolxozchilar qishloq sho'rolarida 75,5 foizni tashkil etdi, oldingi saylovda 51,8 foiz edi.⁴

3. Deputatlar o'rtasida ayollar soni doimiy ortib bordi. 1939 yilgi mahalliy sho'rolarga qayta saylov davrida ularga 40765 deputat, shundan 33,48 foizi ayollar

¹ Ўзб Респ МДА, 95-ф, 33-д, 246-247 varaqlar.

² Ўзб Респ МДА, 95-ф, 122-д, 264-274 varaqlar.

³ Ўзб Респ МДА, 95-ф, 75-д, 26-varaqlar.

⁴ Ўзб Респ МДА, 95-ф, 33-д, 28-varak.

saylandi, jumladan qishloq va posyolka sovetlariga 31344 deputat va 33,89 foiz ayol saylandi.¹

Bu uch yo'nalishdan qishloq sho'rolari va hukumat yuqori idoralariga jamoalashtirish natijasida vujudga kelgan yangi ijtimoiy qatlam dehqonlar vakillarining oshib borganligini ko'ramiz. O'rganilayotgan davr oxiriga kelib, kolxozchilar O'zbekiston Sho'rolari syezdi deputatlarining va qishloq sho'rolari deputatlarining asosiy qismini tashkil etar edi.

Respublika Sho'rolarining favqulodda VI syezdiga (1937 yil fevral) qishloqdan 205 kolxozchi va 16 ta qishloq xo'jaligi ishchisi (MTS va sovxozlar xizmatchilari) qatnashdi. Syezd ijtimoiy tarkibining xarakterli xususiyati shunda ediki, unda hujjatlarda «rahbar va mas'ul xodim» deb ko'rsatilgan ko'pchilikni tashkil etar edi. Ular 793 deputatdan 329 tasini tashkil etar edi. Undan so'ng kolxozchilar 205 kishi, ishchilar 132 kishi va boshqalar bor edi.² Shunday qilib O'zbekiston SSR davlat hokimiyati idoralari tarkibida «yuqori tashkilotlar hisobida turganlar «yuqori mavqeyeni egalladi. O'zbekiston SSR Sho'rolarining VI syezdi O'zbekiston SSR ning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Yangi Konstitutsiyaga ko'ra barcha kishilar ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, milliy va sinfiy kelib chiqishidan qat'iy nazar teng huquqli deb e'lon qilindi, shunday qilib qariyb 20 yil davom etgan mahrumlar tabaqasi tugatildi.

Qishloq Sho'rolarining samarali ishlashida jiddiy to'siq bu deputatlar guruhining umumiy bilim darajasining pastligi va ularda boshqarish faoliyati tajribasining qariyb o'ta pastligi edi.

Dehqonlarning ko'pchiligining savodsiz bo'lishiga sabab, o'lkadagi ko'p asrlik feodal tuzumi sarqitlari va podsho rossiyasining mustamlakachilik siyosati edi. Bu holat o'lka aholisining katta qismini savodsiz, bilimsiz bo'lishiga olib keldi. Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng o'tgan birinchi o'n yillikda bu sohada jiddiy bir o'zgarish bo'lmaganligi sho'ro a'zolarining bilim darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan edi.

¹Исаев Х Ўзбекистон деҳқонларининг ижтимоий сиёсий фаоллигининг ўсиши.(1925-1940 йиллар.), Т, Ўзбекистон, 1986 йил, 79-бет

²Ўзб Респ МДА, 86-р, 1088-д, 149-152 varaqlar

1925-1926 yilgi O'zbekiston SSR qishloq sho'rolariga saylov vaqtida, qishloq sho'rolari a'zolarining 0,3 foizi o'rta ma'lumotli, 28,8 foizi quyi, 10,7 foizi savodsiz edi. 1926-1927 yilgi bu ko'rsatkichlar quyidagicha edi, 0,9 foiz, 20,4 foiz, 11,2 foiz, 67,5 foiz edi. Qishloq Sho'rolari raislarining ham savodxonlik darajasi ancha past edi. 1926–1927 yilda ularning 44,3 foizi savodsiz va kamsavodli edi¹. Hujjatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki keyingi yillarda ham deputatlar guruhining bilim darajasi ancha past edi. 1931 yilda saylangan deputatlarning 65,6 foizi savodsiz edi. Shu tufayli respublika hukumati sho'ro a'zolarining savodini chiqarish, ularni davlatni boshqarishga katta e'tibor qildi.

Bu masalalar dehqon deputatlarining savodsizlikni tugatish kurslarida alifbo savodsizligini tugatish, umumta'lim maktablari va quyi sho'ro apparati xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash qisqa kurslarini tashkil qilish yo'li bilan yechila bordi. Bu ishda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi katta rol o'ynadi. 1926 yil bevosita uning rahbarligida qishloq sho'rolari raislari va kotiblarini tayyorlash okrug kurslari shaxobchalari tashkil etildi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti, joylardagi ko'plab mahalliy sho'ro idoralari rahbar xizmatchilarining qoloqligi va eskilikni yoqlashlarini bartaraf eta borib, yildan yilga doimiy ravishda tuman ijroiya qo'mitalari va qishloq sho'rolari xodimlarini malakasini oshirish ishini tashkil etib, jo'natib turdilar.

Qishloq sho'rolari qurilishining avj oldirilishi va kolxozlarning tuzilishi bilan qishloq sho'rolari tarkibi mukammallashtirila borildi. O'tgan asrning 30–yillari boshlarida ularning faoliyati bo'yicha ma'lum yo'nalishlarida sho'balar tashkil topa boshladi, kolxozlarda deputat guruhlari ularda shu xo'jaliklarda ishlaydigan dehqonlar birlasha boshladilar.

Sho'ro hukumati tomonidan sho'balar va deputatlik guruhlari mehnatkashdar ommasini sho'rolar ishiga jalb etish vositasi deb qaraldi.²

¹ Ўзбекистон ССР меҳнаткашлари депутатлари Шўролари рақамларда 57, 59, 60 бетлар

² Ўзб Респ МДА, 86-ф, 10 –р, 180 – д, 159-варақ

Nizomga ko'ra qishloq sho'rolari quyidagi sho'balarga ega edi; tekshiruv nazorat komissiyasi, madaniy maishiy, moliya-sotuv, sho'ro-kolxoz savdosi, inqilobiy qonunchilik, harbiy, mahalliy xo'jalik, transport va aloqa, paxtachilik.¹ Sho'balar tashkil qilishdan maqsad quyidagilardan iborat edi;

a) qishloq sho'rolariga ular tomonidan xo'jalik-siyosiy va madaniy tadbirlarni amalga oshirishda bevosita amaliy yordam berish, qishloqda sho'ro tuzumi qurilishi ishining alohida sohalari amaliy ishiga mehnatkashlarni jalb etish ;

b) yangi sho'ro kadrlarini, xususan ayol kadrlarni topish va yetishtirish, ularni rahbarlik ishiga ko'tarish bo'yicha doimiy ish olib borish ;

v) saylovchilar talablarining bajarilishini tashkil etish;

g) ishlab chiqarish, kolxoz va qishloq sho'rolari ishlarida mehnatning sho'ro usullarini kiritish;

d) partiya va hukumat ko'rsatmalarini, qishloq sho'rolari va sho'rolar hukumati yuqori idoralari ko'rsatmalari bajarilishini tashkil etish va ommaviy nazorat etish;

ye) sho'ro va firqa nazorati komissiyalari ishiga hamkorlik qilish.² 1934 yilning 1-yanvarida Respublikaning 49 ta tumani ma'lumotlariga ko'ra mahalliy sho'rolar qoshida 4603 ta sho'ba va kolxozlarda 232 deputatlik guruhi tashkil etilgan edi. Ularning ma'lum qismi doimiy ish olib bordi. 28 ta tuman materiallari bo'yicha 400 ta qishloq sho'rosida 3119 ta sho'ba tashkil etilgan bo'lib, shulardan 2658 sho'ba ma'lum ish bilan shug'ullangan, ular tomonidan 9594 ta masala ko'rilib, shundan 7337 tasi hayotga joriy qilindi.³ Xususan Stalin tumanidagi yuqori Shahrixon, Kirov tumanidagi Hojibek qishloq Sho'rolari sho'balarining ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Lenin, Pskent, Stalin, Kaganovich, Kirov tumani qishloq sho'rolaridagi deputatlik guruhlarining kolxozlardagi guruhlari o'zlarining sermahsul ishlari bilan ajralib turgan.⁴ XX asrning 30 – yillarida qishloq sho'rolari ishini rag'batlantirishning muhim ko'rinishi ko'rik – konkurs lari edi. Ular qishloq

¹ Ўзб Респ МДА, 122 – д , 191 - варақ.

² Ўзб Респ МДА, 640 – д , 50 – варақ .

³ Ўзбекистон ҳукуматининг Шўроларининг бутун Ўзбекистон бешинчи съездига ҳисоботи, Тошкент , 1935 , 96 - бет.

⁴ Ўзб Респ МДА , 86 – ф , 10-р, 1079-д, 84-106 варақлар

sho'rolarining butun faoliyati yoki alohida yo'nalishlari bo'yicha o'tkazildi. Ko'rik –konkurslar butunittifoq hamda respublika hajmida o'tkazildi. Har yili ularning aniq shartlari tuzilib, g'oliblar aniqlanar hamda ular moddiy va ma'naviy rag'batlantirilar edilar.

1932–1933 yillarda o'tkazilgan qishloq sho'rolari konkurslarining bosh vazifasi «Qishloqda proletariat diktaturasi idoralari bo'lgan Sho'rolar rolini ko'tarish va ishda sho'ro usullarini joriy etish edi «1933 yilda qishloq Sho'rolari konkursida 79 ta tumandan 55 tasi qatnashdi va 38 ta tumandan 114 ta qishloq sho'rosi respublika mukofotiga taqdim etildi. 1932 yilda 21 ta tumandan 81 ta qishloq sho'rosi taqdim qilingan edi, shulardan 1933 yilda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 42 ta qishloq sho'rosi mukofotlanib, 12 tasi SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga taqdim etildi. 1932 yilda esa 16 tasi O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan mukofotlangan edi.¹ Bu konkurslarda qishloq sho'rolari ishini baholashda qanday ko'rsatkichlarga tayanildi? Buni 1933 yilda o'tkazilgan eng yaxshi qishloq sho'rosi konkursi shartlaridan bilish mumkin;

a) qishloq Sho'rosining qishloqni siyosiy mustahkamlash sohasidagi ishlari va Sho'rolar hamda kolxozlarni «yot unsurlardan» tozalash bo'yicha quloqlar bilan kurashish, ijtimoiy mulkni qo'riqlash va inqilobiy huquqga rioya qilish;

b) Sho'rolarning kolxozlarni tashkiliy xo'jalik jihatidan mustahkamlashda rahbarligi (kolxozlarda mehnatni to'g'ri tashkil qilish va uning asosiy mablag'ini ko'paytirish, kolxozchilar moddiy turmush darajasini yaxshilash, kolxoz savdosini avj oldirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxini tushirish va hokazo);

v) Qishloq Sho'rosining qishloq xo'jaligi kompaniyalarini o'tkazishdagi aniq ishi (bahorgi va kuzgi ekin hosildorligini oshirish va hosilni saqlash, muvaffaqiyatli yanchish, nobudgarchilikka qarshi kurash);

g) yakka xo'jaliklar, kolxozchilar, kolxozlarning davlat oldidagi majburiyatlarini bajarishi (mahsulot solig'i va moliya rejasi);

¹ Ўзб Респ МДА , 86-ф , 300-д , 344-345 варақлар

d) Qishloq Sho'rolarining dehqonlar ommasini yig'ilishlar, sho'balar, deputatlik guruhlariga jalb etish bo'yicha, sovet va kolxoz faollari yetishtirish va to'g'ri foydalanish, zarbdorlik, sho'ro musobaqasini keng avj oldirish va boshqa ommaviy ishlar usullari bo'yicha tadbirlari edi.¹ Bulardan ko'rinadiki konkurs shartlari juda keng bo'lib, dehqonlarni va qishloq hayoti iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy tomonlarini qamrab olgan edi .

¹ Ўзб. Респ. МДА, 86-ф, 10-р, 180-д, 41-варақ

1.2 O'zbek dehqonlarining ijtimoiy tashkilotlarining tashkil topishi va ularning o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni.

Qishloqda proletariat diktaturasi formasi bo'lgan Sho'rolar bilan bir qatorda mehnatkash dehqonlarning ijtimoiy tashkilotlari—firqa, komsomol, «Qo'shchi» ittifoqi, Sho'rolar va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tashkil topdi.

Xususan qishloq hayotining barcha ijtimoiy-siyosiy sohalariga o'z ta'sirini kuchaytirib borgan qishloq partiya tashkilotlari tezda o'sib bordi.

O'zbekiston SSR tuzilishi davrida uning firqa tashkiloti O'zbekiston KP (b)—16371 kishidan iborat bo'lib, shundan 6234 tasi dehqonlar edi.

Respublika firqa tashkilotlarining 38,1 foizini tashkil etgan dehqonlar, uning saflaridagi eng ko'p sonli ijtimoiy guruh edi. O'zbekiston Kompartiyasining mavjud 465 firqa yacheykasidan 188 tasi qishloqda joylashgan edi. Firqa yacheykalarining asosiy qismi oldingi Turk respublikasi tarkibiga kirgan yerlarda joylashgan edi. Samarqand viloyatida 66 ta, Toshkentda 61 ta, Farg'onada 32 ta partiya yacheykasi. Shu bilan bir qatorda Xorazm viloyatida bor-yo'g'i 15, Zarafshonda 13, Surxondaryo viloyatida esa birorta ham partiya yacheykasi yo'q edi.¹

O'zbekiston Kommunistik partiyasi 1-syezdi (1925 yil 6-13 fevral) qishloq firqa yacheykalariga katta e'tibor berdi. Syezd «Dehqonlar orasida ishlash to'g'risida» qarorida «Qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlarining juda kuchsizligi va faol kuchlarning deyarli yo'qligi»ni e'tiborga olib, qishloq boshlang'ich tashkilotlarini tashkiliy jihatdan mustahkamlash, uning ishini jonlantirish vazifasini qo'ydi, shu bilan birga boshlang'ich tashkilotlar kotiblari bilan doimiy ish olib borish zarurligini ko'rsatdi. Boshlang'ich tashkilotlar e'tibori firqa saflarini batraklar, kambag'al dehqonlar va «o'rta hol dehqonlar» hisobidan to'ldirib borishga qaratildi. Syezd qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari asosiy e'tiborini

¹ Ўзбекистон коммунистическая партияси рақамларда, 18 бет

qishloqni xo'jalik madaniy rivojlantirish, yer tuzish, agrar siyosat, maktab va madaniy oqartuv muassasalari masalalariga qaratdi.¹

VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining bevosita rahbarligida O'zbekiston Kompartiyasi qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun tashkilotchilar va siyosiy ishlarni kuchaytirib, o'z ishlab chiqarish qurollari va vositalariga ega bo'lgan dehqonlarga nisbatan, bolshevistik g'oyalariga yaqin bo'lgan batraklar ichida ko'p ish olib bordilar. VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi organi bo'lgan «Za partiyu» jurnalida ko'rsatiladiki «Qishloq yollanma ishchi batraklari, firqa saflarini to'ldirishning , biz tomonimizdan hali mutlaqo teginilmagan, ulkan ommasi bo'lib hisoblanadi.²

VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining XVII plenumi firqada proletar yadrosini kuchaytirish maqsadida hududiy firqa tashkilotlari safiga 13 ming ishchi va 6 ming batrak qabul qilishni belgiladi.³ Qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari ijtimoiy tarkibi qanday edi? Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki 20-yillar o'rtalarida ularning tarkibida 30 foizdan ko'pini batraklar tashkil etar edi.⁴ 1925-1929 yil yer-suv islohoti o'tkazilib ko'plab batraklar boylar yerini olganidan so'ng qishloq aholisining bu tarkibidan chiqib, boshlang'ich tashkilotlarida ularning nisbati kamaydi. Ularning byurodagi tarkibida ishchi (batraklar) nisbati 16 foizga kamaydi. Shu tufayli VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosi ko'rsatmasi mintaqa firqa tashkilotlari vaziyatni tuzatish uchun tezlikda tadbirlarni amalga oshirdilar. Shuning natijasida 1929 yilgi firqa boshlang'ich tashkilotlari qayta saylovi natijalari ko'rsatadiki, byuro a'zolari o'rtasida ishchi (batraklar) nisbati 26 foizga ko'tarilgan, ammo O'rta Osiyo Byurosi buni yetarli deb hisoblamadi. «Za partiyu» jurnali 1929 yilgi qayta saylov natijalarini yakunlab, shunday deb yozadi: «Qishloq boshlang'ich tashkilotlari, oldingi qayta saylovlarga nisbatan ancha yutuqlarga

¹ Ўзбекистон коммунистик партияси съездлари ва МҚ Пленумлари резолюция ва қарорларида, Т, 1987, 1-том, 29-30 бетлар

² За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 32 бет)

³ За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 30 бет)

⁴ Ўзбекистон коммунистик партияси рақамларда, 50 бет)

erishgan bo'lsalarda, byuro tarkibining 1/3 qismi ish sohasi bo'yicha emas, balki ijtimoiy ahvoli bo'yicha ham ishchi (batraklardan) iborat bo'lishiga ham erisha olmadi».¹ Batraklar bajariladigan ishlari bo'yicha qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlarida yana ham kam, bor-yo'g'i 4,7 foiz bo'lib, qishloq kommunistlari o'rtasida—10,4 foizga teng bo'lib, ammo oldingi qayta saylovga nisbatan ancha yuqori edi. Bu ko'rsatkichlar oldingisida 3,6 va 8 foizga teng edi.² Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki XX asrning 20- yillar ikkinchi yarmi davomida qishloq kommunistlari va firqa boshlang'ich tashkilotlari soni oshib borgan bo'lsada, sinfiy ko'rsatkichlarda bu jarayon yetishmas edi. 1927 yilgi ma'lumotlar buni yaqqol tasdiqlaydi. Farg'ona viloyatida 463 ta partiyaga kirgan dehqonlar tekshirilganida, ulardan 316 tasi alifboni bilmaydigan savodsiz, bor-yo'g'i 11 kishi esa siyosiy savodxon edi.

Samarqand viloyati tekshirilganida 223 kommunistdan bor-yo'g'i 3 kishi o'zining siyosiy savodli ekanligini ko'rsata olgan.³ Bularning barchasi qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari amaliy faoliyatida o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmas edi albatta.

Ko'pgina hujjatlarning guvohlik berishi shuni ko'rsatadiki qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari o'zlarini yaxshi ko'rsata olmasdan, qishloqning mavjud hayotidan va dehqonlar asosiy ommasidan ancha uzoqda edilar. 1927 yil boshlarida bo'lib o'tgan o'lkaning qishloqda tashkiliy siyosiy qurilishiga bag'ishlangan kengashi qayd qiladiki, qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari ko'pincha keng dehqonlar ommasidan ajralib qoldilar. Qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari doimiy shunday tizimlashgan hayot bilan yashamasligi, ularning atrofida keng firqasiz ommaning birlashishiga to'sqinlik qilmoqda.⁴ Ko'p joylarda qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari tarkibi qoniqarsiz, ularning kotiblari o'ta darajada bo'sh edilar, shulardan boshlang'ich firqa tashkilotlari obro'si bo'sh, tartib intizom, ichki firqa ishlari ham bo'sh edilar. Ba'zi joylarda qishloq firqa

¹ “За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 35 бет.

² “За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 30 бет

³ “За партию” ойномаси, 1927 йил № 2, 105 бет

⁴ “За партию” ойномаси, 1927 йил № 2, 100-101 бет.

boshlang'ich tashkilotlari kotiblari boylar ta'sirida bo'lib Sho'rolar va ijtimoiy tashkilotlarga ularning kishilarini o'tkazib kelar edilar (Samarqand), boshlang'ich tashkilotlar kotiblari tomonidan ichkilikbozlik va poraxo'rlik hollari uchrab turgan.

Kengash qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari holatini tahlil qilib ularning oldiga qo'yilgan vazifalarni yechishdagi tayyorgarligida va imkoniyatlari nuqtai nazaridan «qishloq-ovul firqa tashkilotlari o'zining hozirgi holati, o'zining tarkibi va kam faolligi bilan bu vazifani bajara olmaydi» deb ko'rsatadi. Shu sababli O'rta Osiyo firqa qurilishida Qishloq boshlang'ich tashkilotida uning tarkibi ishni tashkil etish, unga rahbarlik qilish masalalari bosh vazifa qilib qo'yilishi zarur.¹

Shu bilan birga qayd etish lozimki O'zbekiston Kommunistik partiyasi Sho'rolarda va qishloqlardagi boshqa tashkilotlarda kommunistlar ta'sirini kuchaytirishga harakat qildi. Masalan 1926- 1927 yillar qayta saylov davrida 26,8 foiz respublika Sho'rolari rahbarligiga kommunistlar keldilar. Ular qishloq aholisining bor-yo'g'i 0,2 foizini tashkil etgan bo'lsalar ham 1928-1929 yillardagi qayta saylov davrida qishloq Sho'rolari raislarining 26,9 foizini kommunistlar tashkil etdi².

20-yillar oxirida kommunistlar qishloq aholisi orasida kamchilikni tashkil etsa-da, kolxoz rahbar idoralarida ko'pchilikni tashkil etar edi. 1929 yil ular kolxoz raislarining 16,6 foizini tashkil etdilar. «Za partiyu» jurnalining maqolalaridan shu narsalar ko'rinadiki, shunga qaramay firqa boshlang'ich tashkilotlari kolxoz qurilishiga yetarlicha e'tibor bermayotgan edilar. Jumladan 1929 yil o'rtalarida O'zbekistonda kolxoz qurilishining borishini tahlil qilib yozadiki, «Qishloq va ovul boshlang'ich firqa tashkilotlari kolxozlar bilan qiziqmaydilar.» Bu kolxozlar ichida tasodifiy hol edi. Kolxozlarda firqa qatlami juda sust ish olib borgan. Oldingi yilgi kolxoz ro'yxati (ya'ni 1928 y) bo'yicha O'zbekiston kolxozlarida firqa qatlami 6,5 foizni tashkil etgan xolos.³

¹ «За партию» ойномаси, 1927 йил № 2, 100 бет.

² Ўзбекистон ССР меҳнаткашлар депутатлари Шўролари ракамларда 55-85 бетлар.

³ «За партию» ойномаси, 1929 йил № 7-8, 31 бетлар.

Ahvol qishloq xo'jaligini ommaviy jamoalashtirish natijasida va qisqa muddatda ko'p minglab kolxozlarning tashkil etilishi bilan tubdan o'zgardi. O'sha davrdagi hujjatlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, dehqonlar stalincha jamoalashtirish natijasida yerdan, qishloq xo'jaligi asboblardan, ishchi va uy hayvonlaridan ajralib, amalda yollanma ishchiga aylanib qoldilar. Yakkahol dehqonlarga nisbatan olib borilgan bu siyosat natijasida ularning ba'zilari o'z hohishlari bilan firqaga kira boshladilar. Kommunistlarning kolxozlarda rahbarlik ishlariga tez ko'tarilishi imkoniyati ham ancha sezilarli rol o'ynadi. Masalan O'rta Osiyoda 17 foiz qishloq firqa- kolxozchilari kolxoz idoralari tarkibiga saylandilar. «Bunday holat–deb yozadi «Za partiyu» jurnali–kolxozlar ustidan firqa rahbarligini to'la ta'minlaydi.¹ Kolxozchilar qishloq firqa boshlang'ich tashkilotlari o'sishining asosiy ijtimoiy bazasi bo'lib qoldilar. Ilgari O'zbekiston Kommunistik partiyasi firqa saflariga qishloq joylaridan batraklarni jalb qilishga asosiy e'tiborni qaratgan bo'lsa, kolxoz harakati avj oldirilishi bilan asosiy e'tibor kolxozchilarga qaratildi. 1930 yil 4-13 iyunda Samarqandda bo'lib o'tgan O'zbekiston kompartiyasining V syezdi bu masala bo'yicha respublika firqa tashkilotlarining yaqin oradagi vazifasi firqaga ilg'or ishchi batraklar va kolxozchilarni jalb qilish bo'yicha ishlarni yanada avj oldirish, xususan firqaga asosiy mahalliy millatlar ishchilari batrak va kolxozchilarni jalb etishga e'tiborni kuchaytirish², «quyi firqa tashkilotlari ishi va tarkibini yaxshilash» zarurligi qayd qilindi. Syezd respublikaning barcha firqa tashkilotlarini «VKP(b) Markaziy Qo'mitasining O'zbekistonda 1933 yilning oxirida jamoalashtirishni asosan tugallash to'g'risidagi qarorini bajarish uchun barcha kuchlarni birlashtirishga» chaqirdi.³

Birinchi besh yillik davri qishloq firqa tashkilotlari tarmoqlarining kengaytirilishi va ularning qishloq ijtimoiy–siyosiy hayotidagi rolini kuchaytirishi bilan ajralib turadi. 1933 yilning 1-yanvariga kelib kolxoz va qishloqlarda 38580 kommunistni birlashtirgan 1537 ta firqa boshlang'ich tashkiloti va 648 ta

¹ «За партию» ойномаси, 1929 йил № 7-8, 31 бетлар

² Ўзбекистон Коммунистик партияси резолюцияларида, 304 бет

³ Ўша жойда, 294-295 бетлар.

nomzodlik guruhlari bor edi. Bundan tashqari 3797 ta kommunist bo'lgan davlat xo'jaliklari va MTS larda 185 boshlang'ich va 6 ta nomzodlik guruhlari bor edi. Shunday qilib 1929 yildan 1933 yilgacha qishloqda firqa boshlang'ich tashkilotlari 7 baravar, ulardagi kommunistlar soni 6 baravardan ortiq ko'paydi.¹ Qishloqda firqa qurilishi bo'yicha boshqa ajralib turadigan xususiyat, MTS, davlat xo'jaliklari tuzilishi, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi tashabbusi va ta'siri ostida keng avj oldirilgan kolxoz harakati munosabati bilan firqa tashkilotlari hudud emas, balki hududiy ishlab chiqarish prinsipi, bolsheviklarning firqa tuzish tashkiliy prinsiplarida ko'rsatilganidek tuzila boshlandi.

Shu bilan birga qishloq mehnatkashlarining ancha faol qismini o'z ichiga olgan qishloq firqa tashkilotlari tutgan yo'li mustahkamlanib bordi. O'zbekistonning eng yaxshi firqa kolxoz tashkilotlaridan biri Norin tumanidagi «Sho'ro» kolxoz firqa boshlang'ich tashkiloti bo'lib, uning faoliyati VKP(b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosi tomonidan ijobiy baholangan edi. Boshlang'ich firqa tashkiloti kolxozlarni tashkiliy-xo'jalik jihatdan mustahkamlash va ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Paxta hosildorligini oshirish uning asosiy maqsadi edi. Boshlang'ich firqa tashkilotining brigada va zvenolar tuzish, mehnat unumdorligini oshirish va unga haq to'lashni takomillashtirish vazifalari doimiy diqqat markazida bo'lgan.

1933 yilning 1-yanvarida «Pravda vostoka» gazetasining yozishicha «Kommunistlar kolxoz ichida brigadalararo musobaqani yo'lga qo'yidilar, ular birinchi bo'lib omochni plugga almashtirib, boylarning mashinalar zarari haqidagi bo'htonini parchalab tashladilar». 1933 yil 31-iyulda VKP(b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosi qaror qabul qilib, kolxoz firqa boshlang'ich tashkiloti ishidagi katta yutuq, bu xo'jalikning «O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib paxta yakkahokimligiga qarshi chiqishi, almashlab ekishni keng tashkil etishi edi». Kolxozlar namunali klub va qizil choyxonalar qurdi. Bu yerda targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi. «Mehnatning to'g'ri tashkil etilganligi tufayli kolxozda kolxozchilarning siyosiy va ishlab chiqarish faolligi o'smoqda». Buning

¹ Ўзбекистон Коммунистик партияси рақамларда 43, 57 бетлар.

barchasini orqasida boshlang'ich firqa tashkilotining ishi turibdi. Qarorda boshlang'ich firqa tashkiloti faoliyati umuman ijobiy baholangani holda, uning ishidagi qator kamchiliklar ham ko'rsatildi, ishchi hayvonlar va qishloq xo'jaligi asboblari qarash yetarli emas, kolxozchilar orasida firqa va hukumat hujjatlarini keng muhokama etish tashkil etilmagan, boshlang'ich firqa tashkiloti o'z vaqtida kolxozlarni ijtimoiy «yot unsurlardan» tozalash bo'yicha kolxozchilar ommasi faolligini «boshqarmadi», avvalo brigadalar o'rtasida va hokazo.¹

Ammo «Sho'ro» kolxozlari qishloq firqa tashkilotlari orasida ko'p emas edi. Boshlag'ich firqa tashkilotlarining ko'p qismi g'oyaviy-tashkiliy jihatidan ancha bo'sh va qishloqning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'zini yetarli ko'rsatmagan edilar. Bunga misol qilib Qo'qon tumani «Kommunizm kolxozi firqa boshlang'ich tashkilotini ko'rsatish mumkin, uning kotibi Muzaffarov hisoboti « VKP(b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosining yig'ilishida eshitildi va muhokama qilindi. Uning qarorida ko'rsatilgan ediki: «boshlang'ich firqa tashkiloti va kolxoz idorasi ishida kolxozni tashkiliy xo'jalik jihatidan va firqa ommaviy ishlar» masalalarida bir qator kamchiliklar mavjud: ishbaylik yo'q, kolxoz mehnat kunlari talon-taroj qilinmoqda, ma'muriy apparat keraksiz kengaytirib yuborilgan, ishyoqmas va dangasalarga qarshi choralar ko'rilmagan. VKP (b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosi o'z qarorida ta'kidlagan ediki boshlang'ich firqa tashkilotlari ishida eng asosiy vazifa kolxozchilar, kolxozchi ayollar keng ommasi o'rtasida tashkiliy, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirish va kolxozchilarga nisbatan ma'muriy haddan oshish hollarini tezda tugatish, kolxozni quloqlardan tozalash, firqa kuchlarini to'g'ri joy-joyiga qo'yish, firqa ishi bilan barcha kolxozchilarni qamrab olish masalalari ko'rib chiqildi.²

O'sha davrdagi kolxozlarning rahbar tarkibini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, qishloq kommunistlari uning kengashida kam o'rin olgan edilar. 1935 yilda kommunistlar soni kolxoz raislari o'rtasida 14,5 foizni, ularning o'rinbosarlari 16,2 foizni, tekshiruv komissiyalari raislari o'rtasida 6,6 foizni tashkil etdi. Yuqorida

¹ Правда востока” 1933, 6-август..

² Правда востока” 1933, 6 август

ko'rsatilgan mansablarda umumiy hisobda 2,2 ming kommunist bor edi. Shunday qilib qishloq firqa tashkilotining har beshinchi a'zosi kolxoz rahbarligiga kirar edi. Bu kommunistlar qishloq aholisining bor-yo'g'i 0,3 foizini tashkil etgandagi holati.

Xususan, qishloq sho'rolari tarkibi va ularning raislari orasida kommunistlar nisbati yuqori edi. Hujjatlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, kommunistlar juda g'ayrat bilan sho'ro hukumati qishloq idoralarini egallay boshlaganlar. Masalan: 1926-1927 yillarda kommunistlar qishloq sho'rolari raislarining 26,8 foizini, 1928-1929 yillarda 26,9 foizni, 1930-1931 yillarda 38,2 foizni, 1934-1935 yillarda esa 60,4 foizni tashkil ettilar.¹ Demak saylovdan saylovgacha respublika qishloq Sho'rolari rahbarligi «firqa yo'lini» faol amalga oshiruvchilar-uncha katta bo'lmagan qishloq kommunistlari guruhi qo'lga to'plangan edi. Aynan shular qishloq Sho'rolari siyosatini belgilab, uni hayotga joriy etishda amaliy rahbarlik qildilar va qishloqning barcha ijtimoiy-siyosiy hayotida hal qiluvchi iz qoldirdilar.

Qishloq firqa tashkilotlarining barcha hatti-harakatlarida qishloq komsomoli sodiq yordamchi bo'lib qatnashdi. 20-yillar o'rtalarida, aniqrog'i O'zbekiston komsomolining birinchi ta'sis syezdida (1925 yil aprel) respublika komsomoli 30200 LKYoI a'zosi va 6448 nomzoddan iborat bo'lib, shulardan 39,7 foiz dehqonlar, 17,2 foiz batraklar edi.² Shunday qilib qishloq yoshlarining 57 foizga yaqinini O'zbekiston komsomollari tashkil etdi. Syezdning «O'zbekiston LKYoI navbatdagi vazifalari to'g'risida»gi qarorida qishloq yoshlari va komsomollari o'rtasida ish olib borishga katta e'tibor berildi. Jumladan barcha dehqon yoshlarni sosialistik qurilishga jalb etish, dehqon va batrak yoshlar o'rtasida ishlashni kuchaytirish va hokazolar mo'ljallangan edi.

Komsomollar qishloq aholisining ancha «inqilobiy kayfiyatida»gi kishilaridan hisoblanardilar. Ular qishloqda amlga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarga faol qatnashdilar: qishloq sho'rolari qayta sayloviga, «Hujum» kampaniyasi, yer-suv islohoti, qishloq

¹ Ўзбекистон ССР меҳнаткашлари депутатлари Шўролари рақамларда, 55-85 бетлар

² Ўзбекистон РКЁИ I-курултойининг стенографик ҳисоботи, Т. Ўзгосиздат, 1925, 124-125 бетлар.

xo'jaligini jamoalashtirish, Ijtimoiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, kolxoz va qishloq sho'rolarini «sinfiy yot unsurlardan «tozalash, katta yoshdagi kishilar o'rtasida savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlarni olib borish, qishloqda madaniyat va sho'ro maktablarini qurish va hokazolar. Ular qat'iyligi, haddan ziyod talab qo'yishi, «sinfiy dushmanlarga», avvalo quloqlarga va yangi tuzumning boshqa dushmanlariga nisbatan ortiqcha shafqatsizligi bilan ajralib turardi. Bolshevistik g'oyalar ruhida, sinfiy kurash va murosasizlik ruhida tarbiyalangan qishloq komsomollari yer-suv islohotini o'tkazishda, qishloq xo'jaligini stalincha usulda jamoalashtirishda, xotin-qizlarni ma'muriy choralar bilan ozod qilishda, din, milliy an'ana, urf-odat va marosimlarni siqib chiqarish uchun kurashdagi haddan oshishlarda o'zlarining anchayin «hissalarini» qo'shdilar.

XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarning boshida mehnatkash dehqonlarning ancha ommaviy tashkiloti-«Qo'shchi» ittifoqi edi. Uning o'tmishdoshi Turkiston respublikasining «Qo'shchi» ittifoqi edi. Nizomga ko'ra «Qo'shchi» ittifoqi qishloq proletar va yarim proletar ommasini birlashtirgan ko'rinishda edi. Uning a'zolari qishloq xo'jaligi ishchilari (mardikorlar va boshqalar), mehnatkash chorakorlar, kam yerli dehqonlar, «yarimproletar-hunarmndlar» bo'lishi mumkin edi. Bu dehqonlarning ijtimoiy tashkilotiga, foyda olish uchun yollanma mehnatdan foydalanayotganlar, mehnatsiz daromad hisobiga yashayotganlar, xususiy savdogarlar, savdo korxonasida yollanib ishlovchi xizmatchilar kirishi uchun eshiklar yopiq edi. Bundan ko'rinadiki «Qo'shchi» ittifoqi dehqonlar ommasining sinfiy tashkiloti edi. Ungacha 1918-1920 yillarda Turkistonda turli davrlarda tuzilib, tarqoq, tizimsiz harakat qilgan kambag'allar qo'mitasi va kambag'allar ittifoqidan farqli o'laroq «Qo'shchi» ittifoqi respublikaning barcha tumanlarini qamrab olgan edi. Tuzilishi jihatidan yagona va mukammal tashkilot bo'lib, uning tarmoq otgan umumrespublika batrak dehqon, o'rta hol dehqonlar ommasining sinfiy tashkiloti edi. «Qo'shchi» ittifoqi qishloq va ovullarda mehnatkash ommasini sho'ro va xo'jalik qurilishiga jalb etish, vositasi

bo'lib xizmat etishi lozim edi.¹ 1921 yil o'rtalarida qishloqda «Qo'shchi» ittifoqining 6 mingdan ortiq quyi bo'limlari tashkil etilib, ular 90 ming mehnatkash ommani birlashtirgan edi. Turkiston «Qo'shchi» ittifoqi sovet davlatining qishloqni sinfiy tabaqalantirish, o'lka qishloq va ovullarni Sho'rolashtirish siyosatini o'tkazishda katta rol o'ynadi. U Turkistonda birinchi yer islohotini o'tkazishda faol qatnashdi. Bu to'g'rida Farg'ona inqilobiy qo'mitasi ma'ruzasida ko'rsatilishicha, viloyatning bir qancha tumanlarida «Qo'shchi» ittifoqi bo'limlari tuzilib, «ularning yordamida» yer islohoti o'tkazilmoqda.² «Qo'shchi» ittifoqi faollaridan mahalliy Sho'rolar va O'zbekiston SSR rahbarlarining ko'pi yetishib chiqdi, shulardan biri Yo'ldosh Oxunboboyevdir. Turk respublikasining «qo'shchi» ittifoqi O'zbekiston SSR da dehqonlarning shunday ommaviy ijtimoiy tashkilotini tuzish uchun baza bo'ldi. 1925 yilning 1-iyulida respublika «Qo'shchi» ittifoqi 156 ming a'zoga, bir yarim yildan so'ng esa 1927 yil 1-yanvarida 295717 a'zoga ega edi. Ittifoqqa to'g'ri kelgan har bir kishining qabul qilinishi, uning tez o'sishiga olib keldi. Uning a'zolari va hatto quyi pog'onadagi rahbarlari orasida juda ko'p «ijtimoiy-yot unsurlar» borligi aniqlangan.

«Qo'shchi» ittifoqining ijtimoiy tarkibi qanday edi?

Hujjatli materiallarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki u qishloq aholisining keng qatlamini birlashtirgan edi. 1927 yilgi ma'lumotlar bo'yicha «Qo'shchi» ittifoqi a'zolarining 16 foizini batraklar, 22,9 foizini chorakorlar, 43,1 foizini kamerlilar, 17,3 foizini o'rta hollar tashkil etgan. Ittifoq tarkibida 1,3 foiz badavlat qism ham bor edi, ammo saylov idoralarida ularning nisbati-qishloq jamoalarida 25 foiz, 60 foizi tumanlarda edi.

1929 yil 8-oktyabrda kambag'allarning 1-respublika qurultoyi bo'lib o'tdi, unda «Qo'shchi» ittifoqining tarkibi ijtimoiy kelib chiqishi bir xil batrak-kambag'al bo'lishi kerak deb ko'rsatdi. Shu maqsadda qurultoy kambag'al va batraklarning sinfiy tashkiloti «Kambag'allar uyushmasi» tuzilganligini tashkiliy rasmiylashtirdi. Ammo bu qayta tuzish yangi tashkilotning ijtimoiy tarkibiga salbiy

¹ ЎзР ПАА- 6С ф, 1-р, 752-д, 14, 21-24-аврақлар

² ЎзР МДА, Р-25-ф, 1-р, 305-д, 20-23 варақлар

ta'sir ko'rsatdi. Masalan: Namangandagi «Kambag'allar uyushmasi» tashkilotini tekshirish shuni ko'rsatdiki, unda batraklar va kambag'allar 29 foizni yoki zo'rg'a 1/3 qismini, o'rta hollar 45 foizini, qishloq aholisining boshqa ijtimoiy qatlamlari 26 foizni tashkil etgan. 1930 yilda bu tashkilot safida ulkan qishloq ommasi o'lib, 1 mln 127 ming kishi, 1929 yil may oyida esa bor-yo'g'i 60 ming kishi bo'lgan.¹

«Qo'shchi» ittifoqi va uning o'rniga kelgan «Kambag'allar uyushmasi» o'zining bir xilda bo'lmaganligi va noaniqliklarga qaramasdan qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashdilar. Farg'ona viloyatida «Qo'shchi» ittifoqi yer-suv islohotini tayyorlash va o'tkazishda faol qatnashdi. Ular bu masalada dehqonlar yig'ilishini chaqirdilar, ittifoq a'zolaridan ularda 28 ming kishi qatnashdi. Toshkent viloyatida bunday yig'ilishlarda bu tashkilotning 16 ming a'zosi qatnashdi. «Qo'shchi» ittifoqi minglab o'z a'zolarini yer-suv islohotini tayyorlash va o'tkazishga ajratdi.

Shunday qilib tadqiqot davri bobda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra qishloqda butun ijtimoiy-siyosiy hayotning jonlanishi, mehnatkash dehqonlar ijtimoiy-siyosiy faolligining o'sishi bilan xarakterlanadi. Qishloqda keng tarmoqlangan Sho'rolar, firqa va komsomol tashkilotlari, «Qo'shchi» ittifoqining mahalliy bo'limlari o'zlarining ko'p tarmoqli vazifalarini amalga oshira bordilar. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, bu tashkilotlarning tashkil topishi va aniq faoliyati anchagina kamchiliklar va buzilishlardan holi bo'lmay, qishloqning qoloqligi hamda shakllanib, rivojlanib borayotgan totalitar ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi siyosati natijasida qiyin va murakkab sharoitda bo'lib o'tdi.

O'tish davri deb atalgan yillarda Sho'ro totalitar rejimi qishloq ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol qatnashishdan, qishloq aholisining ko'pgina ijtimoiy qatlamlarini mehnatsiz daromad hisobiga yashayotganlar guruhiga kiritib, ularning moddiy ahvolini yanada yomonlashtirdi. Ularning oila a'zolari uchun saylov qutilari oldiga borish va Sho'rolar, firqa va komsomol tashkilotlari, dehqonlarning ommaviy ijtimoiy tashkilotlari tarkibiga o'tish yo'li berkitildi. Bularga turli ijtimoiy qatlamlarni jalb qilishda qat'iy bolshevistik sinfiy yondoshuv orqali

¹ Исаев Х. Кўрсатилган адабиёт 55-59 бетлар

amalgaga oshirildi. Faqatgina tadqiqot davrining oxirgi yillarida 20 yil davom etgan kishilarning ahvoli va ijtimoiy kelib chiqishi bo'yicha cheklash bekor qilindi, jumladan o'n minglab qishloqda yashovchilar «mahrumlar» yorlig'idan xalos bo'ldilar. Ammo undan ham dahshatlisi keyingi davrda «xalq dushmani» yorlig'i paydo bo'ldi va keng tarqaldi. Sho'ro totalitar rejimi tomonidan bu ayb bilan millionlab kishilar konslagerlarga haydaldi va yo'q qilindi, ular qatorida o'n minglab O'zbekistonlik dehqonlar ham bor edi.

Shaxsga sig'inish, ma'muriy buyruqbozlik tuzumi hukmronligi umuman qishloq ijtimoiy-siyosiy hayotining rivojini sekinlashtirdi va cheklab qo'ydi. Xuddi shu davrdagi sovet jamiyati kabi, dehqonlarning erkin ijodiy va yaratuvchilik kuchlarini bo'g'ib qo'ydi. Shunday qilib XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi va xususan, 30-yillarning oxirlarida o'zbek qishlog'i va dehqonlari hayotida, nafaqat yangi jamiyat qurish, balki fojiali va mudhish tarixiy davr ham bo'lib qoldi.

II-bob XX – asrning 20-30 yillarida o'zbek qishloqlaridagi iqtisodiy o'zgarishlar

2.1 O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularning mustamlakachilik mohiyati

XX asrning 20–yillar ikkinchi yarmi, 30 yillarda amalga oshirilgan tub ijtimoiy–iqtisodiy qayta qurishlar natijasida dehqonlar va butun o'zbek qishlog'i ijtimoiy tuzilishida muhim o'zgarishlar yuz berdi.

XX asrning 20–yillar o'rtalarida qishloq aholisi ijtimoiy tuzilishi bu yerda yer masalasi hal bo'lmaganligi uchun ilgarigi davrda bo'lgan holatdan juda kam farq qilardi. 1924 yilgi byudjet tekshiruvi ma'lumotlari ko'rsatadiki Farg'ona viloyatida yersiz, kam yerli, yarim batrak xo'jaliklar 64 foizga yaqin, Toshkent uyezdida 42 foizni, o'rta hol xo'jaliklar esa shunga muvofiq 5,9 va 17,6 foizni tashkil etgan. 1925 yilda O'zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissarligi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvi ham, dehqonlarning ijtimoiy tarkibi to'g'risida xuddi shunga o'xshash holatni ko'rsatdi: Kambag'al xo'jaliklar 52,3 foiz, o'rta hollar 30,4 foiz, boy–badavlat va quloq xo'jaliklar–17,3 foizni tashkil etgan.

O'tgan asrning 20-yillar o'rtalariga to'g'ri keladigan Toshkent uyezdi Niyozbek volostidagi shunga muvofiq keladigan materiallar yuqorida keltirilgan respublika va uning alohida rayonlaridagi ma'lumotlarga aniq va yaxshi namuna bo'lishi mumkin. Bu yerda 14,5 foiz dehqon xo'jaliklari umuman ekin ekmagan. 35 foizi bir desyatinagacha, 6,2 foiz xo'jalik to'rt desyatinadan ko'proq yerga ekin ekkan edi. Bu esa o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarining qo'lida ekin yerlarining katta qismi to'planganligidan dalolat berar edi. Chinobod qishlog'ida barcha yerlarning beshdan bir qismini tashkil etgan badavlat dehqonlar barcha yerning yarmiga yaqiniga egalik qilardi. Qibray qishlog'ida esa 1\3 qism ekin yerlari shularga tegishli edi. Badavlat dehqon xo'jaliklari kambag'allarga nisbatan yer bilan ta'minlanganligi uch baravardan ko'proq edi. Chinobod qishlog'i bo'yicha ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, tirik va turli xil asbob–aslahalar ham badavlat dehqonlar qo'lida anchagina edi. Bu yerda badavlat dehqonlar ijtimoiy guruhi 1\3 qism ishchi hayvonlariga egalik qilardi. Shu vaqtda 47 foiz qishloq

dehqonlarida bu narsa umuman yo'q edi. 49,7 foizi esa asosiy shudgor qilish quroli omochoqga ega emas edi.

«Yangi iqtisodiy siyosat» sharoitida «qishloqda tabaqlanish kuchaymoqda, bu bir tomondan qishloqda boy tabaqa qatlami iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga va u yerda boy va dindorlarning ta'siri o'sganligida, boshqa tomondan esa qishloqni umuman qashshoqlanishida, haligacha saqlanib qolgan feodalcha yer munosabatlarida, chorikor va batrak kadrlar sonining o'sishida ko'rinadi» deb qayd qilindi.

O'zbek qishlog'ining alohida ijtimoiy toifalari bilan Ittifoq boshqa hududlarining shunga muvofiq ma'lumotlarini taqqoslaganda shuni ko'rish mumkinki, 20–yillar o'rtasida qishloqda o'rta hol xo'jaliklar nisbati dehqonlar xo'jaligining 30–40 foizi o'rtasida edi va mamlakat respublikalaridan bu sohada sal orqada edi xolos. Bu ko'rsatkich o'sha davrda RSFSR da-38,9; Ukrainada 37,4 foizga teng edi.

Qishloqning ijtimoiy tuzilishida yer–suv islohoti jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Yuqorida qayd qilinganidek uning o'tkazilishi natijasida boy va kambag'al batrak xo'jaliklar sezilarli darajada kamayib, shu bilan birga qishloqda o'rta hol xo'jaliklar soni ko'paydi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosi topshirig'i bilan respublikalarda yer–suv islohotlari o'tkazilganidan so'ng qishloq va ovullarni tekshirgan komissiya ma'lumotlariga ko'ra, o'rta hol xo'jaliklar soni Farg'ona viloyatida 22 foizdan 52 foizga, Zarafshonda 29 dan 42 ga, Toshkent uyezdida 38,8 dan 72,8 foizga o'sgan. Shu bilan birga Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida yersiz dehqonlar 4,3 foizdan 0,5 foizgacha, bir gektargacha yeri bo'lgan xo'jaliklar soni 38,1 foizdan 34,3 foizga, quloqlar guruhi 6 foizdan 3,8 foizga tushib qolgan.

Biroq yer–suv islohoti yer masalasini to'la hal etdi, o'zbek qishlog'ida yersizlik va kam yerlilikni butunlay tugatdi, shunga ko'ra batraklar va kambag'al dehqonlar ijtimoiy toifasini ham tugatdi deb o'ylash o'z-o'zini aldashdir. Uning o'tkazilishi natijasida bor–yo'g'i 10 foizga yaqin dehqon xo'jaliklari yer oldi, shu

paytda yerga bundan bir necha barobar ko'p batrak va kambag'al xo'jaliklarning ehtiyoji bor edi.

Yuqorida aytilganlarni tasdiqlash maqsadida 1928 yilgi Toshkent uyezdi, Angren tumani bo'yicha ma'lumotlarni keltiramiz. Bu yerda 34 oila yoki barcha oilalarning bir foizi qashshoq bo'lib, gadoylik qilib kun kechirardi; yer islohoti natijasida ham yer ololmagan kambag'al yersizlar 1448 oila yoki 19 foiz, kamquvvatli xo'jaliklar, ya'ni o'z xo'jaligida ishlash bilan birga chetga ish bilan qo'shimcha ishga boradiganlar 2897 xo'jalik yoki 38 foiz; o'rta hollar–2903, yoki 39 foiz va badavlat, yarimboy yollanma mehnatdan foydalanuvchi xo'jaliklar 304 yoki 4 foizni tashkil etardi.¹

Yer–suv islohoti qishloqda boy xo'jaliklar iqtisodiy qudratiga kuchli zarba berdi va ularning nisbatini ancha kamaytirdi. Bu xo'jaliklar boshqa dehqon xo'jaliklari qatlamiga nisbatan, 20 yillar ikkinchi yarmi 30 yillarda Sho'ro hukumati tomonidan qishloqda amalga oshirilgan «inqilobiy–demokratik» o'zgarishlardan ancha ko'p zarar ko'rdi. Agar Sho'ro idoralari dehqonlarning boshqa qatlamlariga nisbatan har tomonlama qo'llab–quvvatlash siyosatini amalga oshirgan bo'lsalar, quloqlar va boylarga nisbatan kamsitish, cheklab qo'yish, siqib chiqarish siyosati va nihoyat tugatish siyosatini olib bordi. Bu siyosat sovet hokimiyatining xato siyosati bo'lib, bu bilan sovet hokimiyati aholini boqib turgan dehqonlar qatlamini cheklab qo'ydi.

1927 yil 2–19 dekabrda bo'lib o'tgan VKP (b) XV syezdi «quloqlarga hujumni yanada rivojlantirish» shiorini ilgari surdi. 1928 yil 6–11 aprelda bo'lib o'tgan VKP (b) Markaziy Qo'mitasi va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi uni aniqlashtirib belgiladiki, bu siyosat quloqlarga soliq solishni doimiy ko'paytirib borish, ularning ekspluatatorlik intilishlarini cheklash yo'li bilan (mehnat to'g'risida, ijara, umuman yer siyosati to'g'risida qonunchilik, mashinalar bilan ta'minlash va qishloq xo'jaligiga qarz berish va hok.) rivojlanib borishi zarur edi.

VKP (b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosi ijroiya komissiyasi qarorida quloqlarni sud, ma'muriy va boshqalar bo'yicha jilovlashni keng choralar

¹ За партию. 1928, № 2 – 6, 91 – бет.

doirasida belgiladi. Bu hujjatni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, 1928 yildayoq hukumat idoralari tomonidan quloqlarga qarshi qattiq, jumladan ma'muriy choralar ko'rilgan. Bulardan «Yer–suv islohoti natijasida qisqartirilgan ancha ashaddiy quloqlarni surgun qilish, boy xo'jaliklarni topish va ularni tugatish hamda qisqartirish, yer–suv islohoti davrida ularni yashirgan shaxslarni javobgarlikka tortish: sud idoralari tomonidan batraklar, kambag'allar va o'rta hollarni asoratga solish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tez ko'rib chiqilishini ta'minlash: boylarni sudxo'rliigi va asoratga tushiruvchi qarz berganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish va hok. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish o'lka Markaziy Qo'mitasi zimmasiga yuklandi.

1929 yil 21 mayida hukumat tomonidan mehnat to'g'risidagi qonunlarni tadbiq etish mumkin bo'lgan «Quloq xo'jaliklari belgilari to'g'risida» qaror qabul qildi. Qaror quyidagi besh xususiyatdan bittasi bo'lgan barcha dehqon xo'jaliklarini quloq xo'jaliklari safiga kiritadigan bo'ldi.

A) Yollanma mehnatdan doimiy foydalanish.

V) Tegirmon, juvoz, don maydalaydigan, boshqa sanoat korxonalari bo'lsa.

S) Qishloq xo'jalik asbob–uskunalarini doimiy ijaraga berish.

D) Binolarni ijaraga berish.

E) Savdo, sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchi xo'jalik a'zolarining bo'lishi yoki boshqa mehnatsiz daromad oladiganlar bo'lsa.

Biroq buni amalda joriy qilishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, unda quloq xo'jaliklari belgilari juda ham umumiy qilib ta'riflangan, chunki uning hohlagan biriga bozor aylanmasiga tortilgan va turli darajada oilaviy fermer xo'jalik yuritish usullaridan foydalanayotgan dehqon xo'jaliklarini kiritish mumkin edi.

Respublika moliya idoralari tomonidan belgilangan quloq xo'jaliklari alomatlarini belgilash noaniq bo'lib, ular quyidagilardan iborat edi;

1. Quloq, birinchi navbatda katta sug'oriladigan yer egasi, shu bilan birga lalmi yirik ekini va yaxshi ishchi hamda yirik qoramoli bor kishi;

2. Quloq qo'ychi va qorako'lchi, yirik poda egasi hamda bir vaqtning o'zida yer egasi.

3. Lalmi yeri bo'lgan bog'dorchilik bilan shug'ullangan bog'bonlar ham quloq deb e'lon qilindi.

Ammo ular juda kam edi. Umumiy ravishda soliq solinadigan quloq xo'jaliklari guruhidagi besh foizni tashkil etgan sof badavlat xo'jaliklar bor—yo'g'i 1,4 foizni tashkil etardi.

Hujjat bo'yicha quloqlarning ikkinchi toifasini, qishloq xo'jaligida bevosita band bo'lmagan quloqlar tashkil etdi. Bular tegirmonchi quloqlar, guruch tozalaydigan korxona egalari hamda savdogar, sudxo'r va olib—sotar quloqlar edi.¹

Avvalo unda xo'jaliklar turini aniqlaydigan belgilardan biri doimiy ravishda yollanma mehnatdan foydalanish tushirib qoldirilgan edi. Asosiy ko'rsatkich sifatida esa mol—mulk omili qo'yilgan edi. Buning natijasida quloq xo'jaliklar toifasiga ko'pgina badavlat o'rta hol xo'jaliklar kirib qolgan edi. Bu esa o'z navbatida noto'g'ri siyosat edi.

Sobiq sho'ro hukumati idoralari quloq xo'jaliklariga iqtisodiy, moliyaviy siquvni kuchaytirish bilan birga ularga kredit, qishloq xo'jaligi mashinalarini sotib olishni, MTS lar tomonidan xizmat ko'rsatishni har tomonlama chegaralab qo'ydi. Mamlakatda ma'muriy-buyruqbozlik tuzumining o'rnatilishi va uning xalq xo'jaligini boshqarishda iqtisodiy usullardan zo'rlik usullariga o'tishi bilan Sho'ro davlatining quloqlarni cheklash bo'yicha NEP davrida olib borgan siyosati, ekspluatatorlik munosabatlarini siqib chiqarishga qaratilgan bo'lib, buning o'rniga qishloqda dehqonlarning turli tabaqalari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini tarkib toptirishdan iborat edi. Ammo bu siyosat uzoqqa bormadi va stalincha rahbariyat tomonidan chetga surildi. Quloqlarni sinf sifatida tugatish boshlandi. Stalin 1929 yil 29 dekabrda so'zlagan nutqida shunday deydi; «Biz keyingi vaqtda quloqlarni mavqeyini cheklash siyosatidan, quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatiga o'tdik». U buni amalga oshgan holat deb e'lon qildi.

1930 yil yanvarida VKP (b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo Byurosining «Quloqlarni sinf sifatida tugatish munosabati bilan tadbirlar to'g'risida»gi qarori chiqdi, bu asosda 1930 yil 31 yanvarda O'z KP (b) Markazi Qo'mitasi

¹ ЎзР МДА, Р – 95-ф, 1-р, 2257 - д, 72-73 ыараклар.

«Quloqlashtirish bo'yicha tadbirlar» qarorini qabul qildi. VKP (b) ning quloqlarni sinf sifatida tugatish bo'yicha yo'lini respublikada amalga oshirish uchun choralar belgilandi. 1930 yil 14 martda O'z SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti qishloq sho'rolariga kambag'al-o'rtahol guruhlar ishtirokida barcha quloq va boy xo'jaliklarni chorva mollari va qishloq xo'jalik asbob-aslahalarini hisobga olish vazifasini yukladi. Shundan so'ng boshqa quloqlarni sinf sifatida tugatishga qaratilgan yo'l-yo'riqlar, hujjatlar qabul qilindi. Hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, joylarda firqa va sho'ro idoralari quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini hali yoppasiga jamoalashtirish o'tkazilmagan yerlarda amalga oshira bordilar. Natijada mahsuloti ko'p, o'ziga to'q quloq xo'jaliklari tugatildi. Bu hol respublikada tovar mahsulotining kamayishiga olib keldi.

Mamlakatda o'rnatilgan ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi dehqonlarni va avvalo ularning o'ziga to'q qismini hokimiyat yoki kolxoz tuzumidan ozgina bo'lsa ham noroziligini namoyon qilsa qattiq jazoladilar. Bu to'g'risida bitta hujjat keltiramiz. 1932 yil 7-fevraldagi O'rta Osiyo OGPU SP qoshidagi uchlikning yig'ilishi bayonini. Unda bir qator «Dehqon quloqlarning» sho'rolarga qarshi tashviqotda ayblangan ishlari ko'rib chiqilgan. Ularning orasida Bobojonov Ortiqboy, Omonov To'ra, Ro'zimbekov Ahror, Tojiboyev Mirzaboy, Ermatov Toshloq, Turdiyev Mamatqul va boshqalar kabi o'zbek dehqonlari bor edi.

larning «sho'rolarga qarshi tashviqoti» nimada ko'rinadi. Ular boshqa dehqonlar bilan suhbatda kolxozdagi o'z ahvollaridan va umuman undagi ishdan ko'ngillari to'lmayotganlarini aytganlar. Majlis bayonida ularning bu to'g'risida aytganlari to'lig'icha keltirilgan; «Mana biz paxtaga ishlov berayapmiz, o'zimizga zig'ircha ham qoldirganimiz yo'q, uni bizlardan hammasini tortib olishadi. Sho'ro hukumati endi esa bizlarni ochdan o'lishga majbur qilayapti» (Omonov To'ra); «agar Sho'ro hukumati hech narsa bermasa, kolxozga ishlashdan nima maqsad» (Boboxonov Ortiqboy); «Qancha mehnat qilma baribir kolxoz a'zolari ochin-to'kin, bundan keyin ham ular ochlikka mahkum» (Baxramov Mirzakarim); «Sho'ro hukumati dehqonlarni majburlab paxta ektirmoqda, kolxozchilarni moddiy jihatdan ta'minlay olmayapti va ularni ochdan o'lishga majbur qilmoqda...» boylar

niqobi ostida dehqonlarni qamoqqa olayapti va noma'lum tomonlarga surgun qilayapti» (Turdiyev Mamatqul); «Bug'doy ekish zarur, aks holda sizlar ochdan o'lasizlar, chunki paxta to'laligicha davlatga ketadi, bug'doyni esa biz o'zimizga olib qolishimiz mumkin» (Qayumov Ural) va hok.

Yuqorida keltirilgan materiallar guvohlik beradiki, Sho'ro hukumati butun tadqiq etilayotgan davrda dehqonlarning turli qatlamlariga nisbatan tabaqalashtirilgan siyosat yuritdi. U har tomonlama kambag'al va o'rta hol dehqonlar manfaatini himoya qildi va yoqladi biroq joylarda bularga nisbatan chetga chiqishlar, qonunbuzarliklarga yo'l qo'yildi. Bu kurash stalincha yoppasiga jamoalashtirish siyosatining borishi davrida, quloqlar tugatilganidan so'ng ham davom etdi. Quloq-boy xo'jaliklariga haddan ortiq soliqlar solindi, quloq va boylarga nisbatan ochiqdan-ochiq o'zboshimchalik va zo'rlik ko'rsatildi, ularning o'zlari va oila a'zolari kolxozlardan, sho'rolardan, kooperasiyalardan quvildi, 1936 yilgacha saylov huquqidan mahrum qilindi.

Oktyabr davlat to'ntarishidan oldingi yillarda qishloqda podsho hukumatining bosqinchilik siyosati, feodal yer egaligi munosabatlari va birinchi jahon urushining og'ir oqibatlarini bilan bog'liq holda Turkiston o'lkasi xo'jaliklarida jiddiy og'ir ahvol ko'zga tashlanmoqda edi. Dehqonlarning 2\3 qismidan ko'pi mardikorlar, chorikorlar, yersiz va kam yerlilar hissasiga to'g'ri kelardi. «Inqilob»dan so'ng boshlangan xunrezlik, davomli fuqarolar urushi asosiy dehqonlar ommasining moddiy ahvolini yanada og'irlashtirdi.

«Harbiy kommunizm» siyosatidan yangi iqtisodiy siyosatga o'tish dehqonlar moddiy ahvolini birmuncha yaxshiladi. Bu sohada sezilarli ancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Dehqonlarning moddiy ahvoli yaxshilanib, ularda yerga egalik hissi yana uyg'ondi. Biroq undan so'ng ko'p o'tmasdan boshlangan stalincha usullar bilan qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati bu ijobiy o'zgarishlarni yo'qqa chiqardi. Dehqonlar nafaqat YaIS dan olgan yer, tirik va moddiy asbob aslahalar balki ilgari o'zlariga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish qurollari va vositalaridan hamda ancha miqdorda xo'jaligida bo'lgan jonivorlardan mahrum bo'ldi.

Jamoalashtirish qishloq iqtisodiga kuchli zarar yetkazdi, dehqonlar asosiy ommasining moddiy ahvolini og'irlashtirdi.

Dehqonlarning ko'p qismi hatto tomorqa yeridan ham mahrum bo'ldi. Respublikada 1934 yilda kolxozchilarning bor-yo'g'i 30 foizi tomorqa bilan ta'minlangan edi. Bu yerga ega bo'lganlarning o'rtacha tomorqasi 0,14 gektarga, ba'zi joylarda esa 0,6 ga teng edi. Shu paytda 297 ming kolxozchi xo'jaligi yoki ularning umumiy miqdorining 43,5 foizi sigirga ega emas edi. Ba'zi tumanlarda sigirsiz xo'jaliklar hisssasi 68 foizgacha yetar edi. Bunday sharoitda ko'plab dehqon xo'jaliklarining yagona hayot kechirish manbai ijtimoiy xo'jalik bo'lib qolgan edi. Biroq kolxoz tuzumining shakllanish davrida va undan keyin ham u manba ancha taqchil edi.

1932 yilda bir kolxozga o'rtacha 42889 so'm daromad to'g'ri kelgan edi, uni xo'jalik a'zolari o'rtasida taqsimlash natijasida kolxozchilarga juda kam haq tegar edi. Mehnat kuniga o'rtacha 0,64 so'm pul va birdan ikki kilogrammgacha bug'doy berilar edi. To'g'ri ba'zi bir xo'jaliklarda bu ko'rsatkichlar ancha yuqori edi. Bulardan biri Buxoro tumani «Haqiqat Izboskan tumani Budyonniy nomidagi kolxozda mehnat kuniga haq to'lash bundan ham yuqori edi. Kolxozchilar gektaridan 19,5 sentner paxta hosili yig'ishtirib olib, mehnat kunita 4 kg bug'doy, 4 kg gurunch hamda 2 so'm 75 tiyin pul olar edi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining mustahkamlanib borishi, mehnat unumdorligining o'sishi va tarmoq mahsulotlarining ko'payishi bilan kolxozda mehnat kuni ham oshib bordi. Shu bilan birga kolxozchilarning ijtimoiy xo'jaliklardan oladigan daromadlari ham sekinlik bilan o'sib bordi. 1933 yilda 60 foiz kolxozlarda kolxozchilar xo'jaligining o'rtacha pul 100 so'mdan 300 so'mgacha, 10,4–300 dan 500 gacha, 6,8 foizi 500 dan 1500 so'mgacha tashkil etdi. Bir mehnat kuni hisobiga g'alla berish 57,2 foiz xo'jaliklarda 1-3 kilogrammgacha, 28,3 foiz, 3 dan 5 kilogrammgacha va 5 foiz xo'jaliklarda 5 kilogrammdan ortiqni tashkil etdi. Shu bilan bir paytda 27,8 foiz xo'jaliklarda xo'jaliklarning o'rtacha pul daromadi miqdori 100 so'mdan kam, shulardan 9,5 foizi mehnat kuniga 1 kilogrammdan don oldilar. Ilg'or xo'jaliklarda bu

ko'rsatkichlar ancha yuqori edi. Yuqorida tilga olingan Budyonniy nomidagi kolxozda shu yili mehnat kuniga 3 so'm 50 tiyin pul, 5,5 kilogramm bug'doy va 4 kilogramm gurunch berildi. «Haqiqat» kolxozida har mehnat kuniga 3,5 so'm pul, va 4 kilogrammdan bug'doy berildi. Har bir xo'jalik o'rtacha 1675 so'm pul va 1800 kilogramm bug'doy oldi.¹

O'sha davr rasmiy hujjatlarida asosiy e'tibor boy kolxozlarga qaratilgan edi. Tadqiqot yillaridagi shunday kolxozlardan biri, yuqorida qayd etilgan Izboskan tumanidagi Budyonniy nomidagi kolxoz edi. Bu kolxoz 1938 yil 4,3 million so'm daromad oldi. Yuqori daromad mehnat kuniga ancha ko'p miqdorda pul to'lash imkonini berdi. Kolxozchi Yoqubov Turdiboy oilasi 46,3 ming so'm pul va 3620 kilogramm sholi, Nazarov Najmiddin - 43,1 ming so'm pul va 3300 kilogramm sholi va hokazo oldilar.² Afsuski respublikada bunday kolxozlarning soni sanoqli edi xolos.

Mamlakatda tarkib topgan ma'muriy–buyorug'bozlik tuzumi kolxozlardan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini arzon narxlarda sotib olardi. Xususan paxta uchun kolxozlarga uning bahosiga nisbatan ancha kam haq to'lar, dehqonlar asosiy ommasini kambag'al va yarim och holda yashashga mahkum etar edilar. O'rganilayotgan davr oxiriga kelib kolxozlar iqtisodiga davlat tomonidan tazyiq yanada kuchaydi. 1940 yilgacha davlatga g'alla, guruch, kungaboqar va kartoshka yetkazib berish miqdori shu ekinlar ekish rejasiga qarab belgilanar edi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Soveti o'zining «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotib olish siyosatidagi o'zgarishlar» nomli qarorida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotib olishda yangi tartib o'rnatdilar. 1940 yilgi hosildan boshlab, kolxozlar o'zlariga berkitilgan har bir haydalgan yer gektaridan majburiy ravishda qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berishga jalb qilindi.

1930-yillar mobaynida ham ittifoq, ham respublika hukumatlarining barcha kolxoz hovlilarini sigirlar bilan ta'minlash bo'yicha kengaytirilgan qarori qabul

¹ Охунбобоев Й. Танланган асарлар, 218 – 219 бетлар.

² Икромов А. Танланган асарлар, 111 – том, 179 – бет.

qilingan bo'lsa-da, ammo ular sekinlik va katta qiyinchilik bilan amalga oshirila borildi. Shu munosabat bilan 1933 yil 2-sentyabrda «Pravda Vostoka» gazetasida VKP (b) Markaziy Qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Sovetining «Sigirsiz kolxozlarga sigirli bo'lishda yordam berish to'g'risida» gi qarorini bajarish va bu ishni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan Yer ishlari xalq komissarligi tomonidan orqaga surilayotganligi tanqid qilinadi.

Shu tufayli dehqon xo'jaliklarining anchagina qismi kamtarona, bir qismi esa juda kambag'al yashar edi. Tadqiq qilinadigan yillarda dehqonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi ancha qoloq ijtimoiy soha edi. 1923–1924 yil respublika aholisi jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 27 tiyinni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash ehtiyojlariga 3,7 million so'm ajratildi. O'zbekistonda 1924 yil oxirida 974 vrach bo'lib, shularning 40 foizi Toshkentda, 33,8 foizi okrug shaharlarida, 11,1 foizi qolgan shaharlarda, va 108 kishi yoki 11,1 foizi qishloqlarda to'plangan edi. Vaholanki bu davrda dehqonlarning asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qilar edi.

Qishloq joylari shahardan tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ancha orqada edi. Agar respublika bo'yicha bir vrachga 13 ming kishi to'g'ri kelsa, qishloq joyda bu 56 ming kishiga to'g'ri kelardi. Mahalliy tibbiy kadrlarni tayyorlash ishi juda og'ir ahvolda edi. 1926–1927 o'quv yilida O'rta Osiyo universiteti tibbiyot fakultetida tahsil olayotgan 845 talabadan 50 tasi yoki 7 foizi mahalliy millat vakillari edi

«Tilni va turmush sharoitlarni bilmaslik,-deb yozilgan edi o'sha davr gazetalardan birida, ko'pincha vrach bilan bemor o'rtasida o'zaro tushunmovchilikka sabab bo'lib, g'arb medisinasining qishloqqa kirib kelishi va rivojlanishiga xalal berardi».¹

Yangi sog'liqni saqlash qurilishlari ichida Farg'ona okrugida Buvayda kasalxonasi, Qashqadaryo okrugida Kosonsoy va Denov, Xo'jand okrugida Sulyuktin va Toshkent okrugida Xovos va boshqa kasalxonalarni ko'rsatish mumkin. Qishloq davolash shahobchalari 1926 yilda 247 taga yetdi. Ulardagi

¹ Правда востока 1929, 24 – октябрь.

tibbiy xodimlar soni 597 tadan 767 taga o'sdi. Buning oqibatida bir vrachga 15 ming qishloq aholisi to'g'ri keldi. 1928 yil o'rtalarida O'zbekiston SSR sho'rolari Markaziy Ijroiya Qo'mitasida Sog'liqni saqlash Xalq Komissarlari ishi to'g'risidagi masalasi maxsus muhokama qilindi va qishloq mahalliy byudjeti o'sishi bilan parallel ravishda sog'liqni saqlash ishiga mablag' ajratili lozim deb uqtiriladi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi ko'rsatmasi asosida mahalliy Sho'rolar sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha ishlarini faollashtirdilar. Zarafshon viloyat Ijroiya Qo'mitasi sog'liqni saqlash rivojlanishiga 120 ming so'm ajratdi. Shu mablag' hisobiga G'ijduvon kasalxonasi qurildi va bir qator tibbiy muassasalar ta'mirlandi. Xorazm okrug ijroiya qo'mitasi qarori bilan okrugda ikki kasalxona va to'rt ambulatoriya qurildi. Shu yo'nalishda tuman ijroiya qo'mitalari ham aniq muntazam ish olib bordilar. Misol uchun: Marhamat Tuman Ijroiya Qo'mitasi ambulatoriya qurilishiga 4,5 ming so'm, Lenin tumani Ijroiya Qo'mitasi kasalxona qurish va uni jihozlash uchun 45 ming so'm ajratildi. Namangan va Jumabozor tuman Ijroiya Qo'mitalari va qishloq Sho'rolari bo'limlarida tug'ruqxonalarni jihozlantirishda yordamlashdilar. Kalinin tuman Ijroiya Qo'mitasi Nazarbek, Erkin va Shotepa qishloq Sho'rolarida kasalxona va ambulatoriyalar tashkil etildi. 1 Turli xil kasalliklarning oldini olish va usullari haqida aholi o'rtasida targ'ibot ishlar olib borildi. Masalan, Samarqand viloyatida ko'chib yuruvchi kinoxona,, «Sil – ijtimoiy kasallik», «Mehnat, oila va dispanser» va boshqa filmlari bilan jo'natildi.

Xo'ja Ravot, Urgut va Jumabozor qishloqlarida tashkil etilgan kinoseanslar oldidan, tibbiy xodimlarning turli xil mavzulardagi ma'ruzalari uyushtirildi va ularda bir necha yuzlab dehqonlar to'plandi.²

1928 yil 24-oktyabrda «Pravda Vostoka» gazetasi qishloqda sog'liqni saqlashni rivojlantirishda birinchi ijobiy natijalarni qayd qilib, «Vrach qishloqda» xabarida shunday yozadi; «Hozir qishloqlarda tabib yordamchilari va

¹ Алламуродов, Д. Ўзбекистон Шўроларининг Социализм ғалабаси учун курашдаги тарихий тажрибаси. Т. Ўзбекистон. 1974. 134 – бет.

² Правда Востока, 1927, 9 – май.

akusher-kalaridan boshqa 113 vrach ishlamoqda va 126 vrachlik uchastkasi va 22 vrachlik joyi mavjud». Albatta qariyb 3,5 millionli respublikaning qishloq aholisi uchun bu sondagi tibbiy xodimlar va davolash muassasalari yetarli emas edi. Sho'ro idoralari oldida dehqonlarga tibbiy xizmat qilishni minimal tarzda qondirish uchun ham juda katta g'ayrat bilan ishlash vazifasi turmoqda edi.

Hujjatli materiallar guvohlik beradiki, sog'liqni saqlashga mablag' ajratish doimo ko'payib borgan. 1934 yilda u 98,3 million so'mni tashkil etib, 1924 yilgi 3,7 million so'mga nisbatan qariyb o'n yil ichida 25 baravardan ko'proq o'sdi. Aholi jon boshiga hisoblaganda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish 13 so'm 93 tiyinga to'g'ri kelgan.¹

Bu masalaga hukumat bilan birga mahalliy sho'rolar ham diqqat bilan e'tibor berdilar. Misol uchun 1930 yil 25 fevralda Buxoro okrug Ijroiya Qo'mitasi «Mehnatkash aholiga tibbiy yordam ko'rsatish natijalari, 1928–1929 yilgi paranjini tashlash munosabati bilan mehnatkash xotin–qizlarga xizmat ko'rsatish va 1929–1930 yildagi tabdirlar to'g'risida» gi masalani muhokama qilib, sog'liqni saqlash bo'limiga G'ijduvon tumanidagi G'ishtida bolalar konsultasiyasi, G'ijduvon va Gajdumakda bolalar yaslisi qurish, tumanda O'zbekpaxtasoyuz hisobidan 2 ta 20 kishilik mavsumiy yasli ochish taklif qilindi. Kolxozlarga tibbiy yordamni yaxshilash maqsadida okrug sog'liqni saqlash bo'limiga Zerobod, Siplan, Bahovuddin, Vang'ozi, G'ijduvon, Gajdumak, G'ishti, Vobkent, Qarauldagi vrachlik punkti shtatlarini to'ldirish topshirildi hamda tuman Ijroiya Qo'mitalariga bu punktlarni texnik vositalari bilan ta'minlash taklif qilindi.²

1931 yili O'rta Osiyo Davlat Dorilfununining tibbiyot fakulteti alohida mustaqil oliy ilm dargohiga aylantirildi. 1930 yil Samarqandda tibbiyot Oliy O'quv yurti ochildi. 1932 yil Toshkentda O'rta Osiyo (hozir Toshkent) vrachlar malakasini oshirish instituti ochildi hamda o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlaydigan bir qator tibbiyot bilim yurtlari ham ochildi. Bu qabul qilingan choralar natijasida 1940 yilga kelib, O'zbekistonda 3,2 ming vrachlar va 12,2 ming

¹ ЎзР МДА, Р – 737 – ф, 10 – р, 2352 – д, 36 – varaq.

² ЎзР МДА, Р – 837 – ф, 8 – р, 87 – д, 48 – varaq

tibbiyot xodimlari mehnat qildilar. Respublikada 10 ming aholiga 4,7 vrach va 18,2 o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keldi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, viloyat hamda shahar va qishloqlar hajmida vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganlik turlicha edi. Ularning asosiy qismi avvalgidek Toshkentda va viloyat markazlarida to'plangan edi. Masalan Toshkentda 1426 vrach bo'lib, bu barcha vrachlarning qariyb yarmi edi va 2,8 ming o'rta tibbiyot xodimlari bor edi.

Buning natijasida qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish 1920-yillar o'rtalaridagi darajadan ancha oshib ketgan bo'lsa ham, shahardan ancha orqada qolmoqda edi. Bu holatni hisobga olib O'zbekiston Kommunistik partiyasi (b) Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston Xalq Komissarlari Soveti 1940 yil 3–fevraldagi «O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishni 1940 yilgi davlat rejasi to'g'risida»gi qarorida ko'rsatildiki, 1940 yilda sog'liqni saqlash xalq komissarligining asosiy vazifasi-«qishloq vrachlik, ambulatoriya, kasalxona va feldsherlik punktlari shahobchalarini kengaytirishdan iborat deb ta'kidladi».¹

Dehqonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish masalasini yakunlar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, qishloqda o'rganilayotgan davr oxiriga kelib, 220 vrachlik kasalxona muassasasi ishlamoqda edi. Bu XX asrning 20-yillar o'rtalaridagiga nisbatan ancha yuqori edi.

Shunday qilib tadqiqot yillari, ma'muriy-buyruqbozlik hukmronligi tug'dirgan ko'plab qarama-qarshiliklarga qaramasdan, dehqonlarning hayot darajasini oshirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

¹ ЎзР МДА, Р – 837 – ф, 32 – р, 1949 – д, 1 – 8 варақлар.

2.2 O'zbekistonda XX asrning 20 – 30 yillaridagi madaniy qurilishdagi harakatlar va ularning ziddiyatli tomonlari.

Inqilobgacha bo'lgan davr va Sho'ro hukumatini birinchi yillari, o'lka aholisi asosiy ommasining yuqori bo'lmagan umumta'lim darajasi bilan xarakterlanadi. Rasmiy hujjatlarda va ilgari chiqqan adabiyotlarda bu tub aholisi uchun ikki foiz deb belgilangan edi. To'g'ri, keyingi paytlarda Turkiston xalqlarining savodxonlik darajasi to'g'risida odat bo'lib qolgan qarashlar shubha ostiga olinmoqda.

Sho'ro hukumatining birinchi yillarida o'lka aholisi savodsizligini tugatish bo'yicha ba'zi qadamlar qo'yildi, shuning natijasida 20–yillar o'rtalariga kelib, shu yo'nalishda ba'zi–bir ijobiy siljishlar ro'y berdi. 1926 yilgi butunittifoq aholisini ro'yxatga olish bo'yicha O'zbekistonda 9–43 yoshgacha savodlilik nisbati 11,6 foiz, shu jumladan shahar aholisi orasida–39,8 foiz, qishloqda–3,5 foizni tashkil etdi. Bu ro'yxatga olish ma'lumotlaridan ko'rinadiki tadqiqot davrida qishloq aholisi savodxonligi shaharnikidan 10 baravardan ko'proq past edi.

Hujjatlar ko'rsatadiki, savodsizlikni tugatish ishi bir qator kanallar orqali amalga oshirilgan. Misol uchun, Toshkent okrugida 1926–27 yilda savodsizlikni tugatish quyidagi tarmog'i tasdiqlandi:

193 ta maktab, mahalliy byudjet bo'yicha, 52–vaqf mablag'iga, 52–«Qo'shchi» ittifoqi mablag'iga. Haqiqatda esa shu yili okrugda 326 savodsizlikni tugatish maktabi ishladi, shu jumladan 192 mahalliy byudjet bo'yicha, 49–vaqf mablag'iga, 42–«Qo'shchi» ittifoqi mablag'iga, 32–Kasaba ittifoqi mablag'iga va hokazo. Okrugdagi bu mavjud maktablarning ko'pi qishloqda edi. Bu yerda 139 ta savodsizlikni tugatish maktablari ishladi, shundan 10 tasi ayollar, 5–tasi kam sonli millatlar uchun. Shulardan 91 tasi mahalliy byudjet hisobiga, 39–«Qo'shchi» ittifoqi mablag'iga, 3–ta Kasabi ittifoqi mablag'iga va 1–vaqf puliga ishladi. Bu savodsizlikni tugatish maktablarida kimlar o'qidi? O'quvchilar tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, unda avvalo faollar o'qigan. Toshkent okrugidagi 4017 savodsizlikni tugatayotganlardan 552 tasi firqa a'zolari, 754 nafari komsomollar, 96 nafari kasaba ittifoqi a'zolari, 199 nafari «Qo'shchi» ittifoqi a'zolari edilar va hokazo. Savodsizlikni tugatish tarmoqlari bilan 27 foiz «firqadagilar», 74 foiz

komsomollar, 24 foiz kasaba ittifoqi a'zolari va bor-yo'g'i 6,4 foiz «Qo'shchi» ittifoqi a'zolari qamrab olingan edi. Bundan ko'rinadiki, savodsizlikni tugatish maktablari tomonidan dehqonlar asosiy ommasini (Qo'shchi ittifoqi a'zolarini) qamrab olinishi juda ham kam edi (bor yo'g'i 6,4 foiz). Okrug savodsizlikni tugatish maktablarida o'qiyotganlarning ijtimoiy tarkibi: 30,7 foiz–ishchilar, 48,1 foiz–dehqonlar edi. Ularning milliy tarkibiga qarasak, mahalliy tub millat vakillari 80 foizdan ortiqni, shu jumladan o'zbeklar–66,1 foizni tashkil etgan.

Hujjatlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki savodsizlikni tugatish ishi bir qator qiyinchiliklar bilan bog'langan edi. Pul yetishmas, maktab o'qituvchilariga 3 oylab ish haqi berilmas, natijada o'qituvchilar maktablarni tashlab ketar, maktablar esa xarob bo'lar edi. Yana bir jiddiy to'siq, o'qituvchilar tayyorgarligining yetishmasligi va ularning kattalar sinfiga kira olmasliklari edi. Maktab o'quv qo'llanmalari bilan kam ta'minlangan, bu juda ham yetishmas edi. Tuman ijroiya qo'mitasi buning ustiga o'quv qo'llanmalariga ajratilgan mablag'ni iqtisod qilishga urinar edi.¹ Hujjatlar guvohlik beradiki, bu oxirgi holat, xususan, qishloq savodsizlikni tugatish maktablari uchun xarakterli hol edi. Hujjatlarning birida qayd qilinadiki, «Ular tuman ijroiya qo'mitalari kam mablag' ajratayotganliklari va o'quv qurollariga ha²m doimiy emasligidan» norozi bo'lib shikoyat qilganlar. Shahar savodsizlikni tugatish maktablari esa «doimiy va qoniqarli ta'minlangan».

Bu va boshqa sabablar tufayli respublikaning katta yoshdagi aholisi o'rtasidagi savodsizlikni tugatish juda sekinlik bilan borgan.

Kasaba uyushmalari butun o'zbek qurultoyidagi nutqida (1928 yil dekabr) O'zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi Ramzi qayd qiladiki, 1927–1928 yillar savodsizlikni tugatish maktablarida bor-yo'g'i to'rt foiz savodsiz aholi qamrab olingan.³

VKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1927 yil 17 mayidagi chiqargan «Savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlar to'g'risida» gi qarori aholi savodsizligini tugatish ishlarini kuchaytirishga turtki berdi. Unda Sho'ro idoralariga savodsizlikni

¹ ЎзР МДА, Р – 94 – Ф, 1 – р, 1353-д, 19 – варақ.

² Ўша жойда.

³ Правда Востока, 1928 , 10 – декабрь.

tugatish ishlarini tezlashtirish, «birinchi navbatda.... qishloqda batraklar, sovxoz ishchilari, mavsumiylar, kambag'allar, kolxoz a'zolarini qamrab olish».

Ishchilar savodsizligini bir yilda, sovxoz ishchilari va kolxoz a'zolariniki ikki yilda tugatish vazifasi qo'yildi. Keyingi voqyealar shuni ko'rsatdiki, bu muddatlar haqiqatan noreal edi.

Bu sohada muhim vazifalar «aholining deyarli hammasi savodsiz bo'lgan» sharqiy respublikalar uchun qo'yildi. Firqa Markaziy Qo'mitasi bu yerda aholi savodsizligini tugatish, «bu tumanlardagi barcha madaniy ishlarning asosiy va muhim vazifasi» deb belgiladi». Unda ko'rsatildiki, bu ishda asosiy e'tiborni, firqa, komsomol a'zolari, ishchilar, Sho'ro va kooperativ faollarini birinchi navbatda o'qishga o'rgatishda, milliy ayollar uchun alohida maktab shaxobchalarini tashkil etishga, hamda mahalliy aholidan savodsizlikni tugatuvchi kadrlar tayyorlashga (qisman ayollardan) qaratish zarur.¹ Bu hujjatni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, VKP (b) Markaziy Qo'mitasi o'zining oldingi yo'riqnomalari singari katta yoshdagi aholi savodsizligini tugatish ishlarini sinfiy xarakterga ega bo'lishiga katta e'tibor bergan.

1930 yil 23 avgustda O'zbekiston SSR xalq Komissarlari Soveti bu qarorni amalga oshirish uchun «O'zbekiston SSR katta yoshdagi aholi savodsizligini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. Unda qo'yidagi vazifa qo'yilgan edi; respublikaning 16 dan 40 yoshgacha bo'lgan barcha mehnatkashlari o'rtasida savodsizlikni tugatish oxirgi muddati sifatida 1932 yil 31 dekabr belgilansin. Bu muddat umuman haqiqatdan yiroq edi.

O'quvchilar tomonidan savodsizlikni tugatish maktablarida o'quv dasturining to'laqonli o'tilmasligiga respublikada keng avj olgan aholi savodsizligini tugatish bo'yicha vazifalarni bajarish va oshirib bajarish musobaqasi ham xalal berdi. Misol uchun Toshkent okrugi, O'zbekiston Kommunistik Partiyasi (b) Markaziy Qo'mitasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan, okrugda qishloq xo'jaligini yoppasiga jamoalashtirish bilan birga, okrugda qisqa muddatlarda savodsizlikni to'la tugatish tashabbusi bilan chiqdi. Bu «tashabbus» boshqa okruglarda ham qo'llab-

¹ КПСС резолюцияларда....4 – том, 292 – бет.

quvvatlandi. Natijada okruglar o'rtasida savodsizlikni tugatish bo'yicha musobaqalar avj olib ketdi. Unga tumanlar, qishloq Sho'rolari, tashkilotlar, madaniy armiyachilar tortildi.¹ Bu o'taketgan tartibsizlik maktab o'quvchlarining o'zlashtirishini ham nihoyatda pasaytirib yubordi.

O'zbekiston katta yoshdagi aholini savodsizligin tugatish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'rilgan choralarga qaramasdan bu vazifani 1932 yil 31 dekabrda bajarishga muvaffaq bo'linmaydi. Respublika bo'yicha shu paytga kelib yuz minglab savodsizlar (ularning asosiy qismi dehqonlardan iborat) saqlanib qolgan edi.

Katta yoshdagi aholi savodsizligin tugatish tomon yirik qadam urushdan oldingi yillarda qilindi. Qariyb har yili Respublika firqa va Sho'ro idoralari tomonidan bu masala bo'yicha mukammal qarorlar qabul qilar, bu maqsadlar uchun ham davlat idoralari ham ijtimoiy tashkilotlar anchagini pul mablag'lari ajratar edilar. 30–yillar birinchi yarmida davlat mahalliy byudjetidan savodsizlikni tugatishga 10 million so'm ajratildi. Bu ishga qariyb shuncha kasaba uyushmalari, komsomol xo'jalik tashkilotlari ajratdi. Faqat birgina 1936 yilda bu maqsadlarga mahalliy byudjetdan 8616 ming so'm ajratildi.² Shunday qilib, yildan yilga mablag' ajratish doimiy ko'payib bordi, 1939 yilda esa 25 million so'mni tashkil etdi.

1936 yil 20 fevralda O'zbekiston Kommunistik Pariyasi (b) Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti «O'zbekiston mehnatkashlari o'rtasida savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish to'g'risida» qaror qabul qildilar. Oldingi besh yillikda respublikada savodsizlar maktablarida 1272 000 va chalasavodlilar maktabida-439 000 kishi o'qiganligini qayd qilib, Markaziy Qo'mita va Xalq Komissarlari Soveti bu hujjatda 1936 va 1937 yillarda 50 yoshgacha bo'lgan mehnatkashlar o'rtasida savodsizlikni to'la tugatish vazifasini qo'ydilar.³ Shu yili 2–sentyabrda bu qarorni rivojlantirib, ular

¹ Исаев Х. Ўзбекистон деҳқонларининг ижтимоий – сиёсий фаоллигини ўсиши. (1925 – 1940). Т. 1986, 12 – бет.

² Охунбобоев Й. Танланган асарлар, 233 – бет.

³ Ўзбекистон коммунистик партияси урушдан олдинги беш йилликларда, 91 бет.

respublikaning har bir tumani va shahri bo'yicha aholi savodsizligini tugatish uzil-kesil muddatlari to'g'risida qaror qabul qildilar. 800 ming savodsiz va chalasavodni o'qitish va shuning bilan savodsizlikni 1937 yil 1-yanvariga kelib 12 shahar va tumanda, 1937 yil 1-apreliga kelib 60 ta shahar va tumanda, 1937 yil 1-dekabrga kelib 38 ta shahar va tumanda tugatish vazifasi qo'yilgan edi. Respublika rahbar idoralari tomonidan yana bir marta katta yoshdagi aholi savodsizligini tugatish aniq muddatlari belgilandi, ammo u ham bajarilmay qoldi.

Hujjatlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, respublika rahbar idoralari joylarda aholi savodsizligini tugatish ishining borishi ustidan nazorat qilib turganlar. Masalan: 1937 yil 2-yanvarda O'zbekiston Kommunistik Pariyasi (b) Markaziy Qo'mitasi «Savodsizlikni tugatish maktablarida o'quv sifati va davomat to'g'risida» qaror qabul qilib, unda ko'rsatgan ediki, bir qator tumanlarda (Samarqand, Kaganovich, Farg'ona, Buxoro, Akmalobod va boshqalar) savodsizlikni tugatish maktablarida past va doimiy emas, darslar kun oralab o'tkaziladi, uning davomlilikigi bir soatdan oshmaydi, bu savodsizlikni tugatish maktablaridagi ishlarning bajarilmasligiga va VKP (B) Markaziy Qo'mitasi tomonidan o'rnatilgan dasturning to'la o'tilmasligiga olib kelmoqda.¹

Yuqorida keltirilgan materiallar O'zbekiston rahbar idoralarining savodsizlikni tugatish ishiga e'tibori bilan birgalikda o'sha yillarda bu ishda anchagina kamchiliklar ham borligini ko'rsatdi. Ammo ularning birortasida ham barcha savodsizlar ham uzoq muddat davomida savodsizlikni tugatish maktablariga doimiy qatnay olish imkoniyatiga egaligi bilan qiziqmas edilar. Bundaylar anchagina edi, chunki dehqonlarning ko'p oilalari ko'bolali, ularning asosiy qismining moddiy ahvoli og'ir edi.

Bu va boshqa ko'plab sabablar tufayli tadqiqot yillarida respublika bu sohada ancha yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, katta yoshdagi aholi savodsizligin tugatishga erishilmadi. 1940 yilning oxiriga kelib respublikada 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan 739,5 ming savodsiz bo'lib, ularning 616 mingi yoki 80 foizdan ortig'i

¹ Правда Востока, 1937, 4 – январь.

qishloqqa to'g'ri keldi.¹ Alohida viloyat va tumanlarda, xususan ilgari Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarkibiga kirgan joylarda savodsizlar nisbati, avvalo qishloqlardagilar nisbati ancha yuqori edi. Masalan 1941 yilning yanvarida Buxoro viloyatida 94226 kishi savodsiz edi. Denov tumanida savodsizlar soni 54,6 foiz, Buxoro tumanida 34,2 foiz, Koganovichda—40, Jarqo'rg'on tumanida—40 foiz edi. Shu munosabat bilan 1941 yil 9—yanvarda Buxoro viloyati Ijroiya Qo'mitasi va viloyat firqa qo'mitasi bu masala bo'yicha qabul qilgan qarorida xavotirlik bilan qayd qilar ediki «viloyat katta yoshdagi aholisi o'rtasida savodsizlikning tugallashni borishi qoniqarsiz ahvolda»² Bularning barchasini hisobga olgan O'zbekiston kommunistik partiyasi (b) Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR XKS 1940 yilning 20 dekabrda «O'zbekiston SSR da savodsizlikni tugatishni yakunlash to'g'risida» qo'shma qaror qabul qilib, unda respublika katta yoshdagi aholisining 50 yoshgacha bo'lgan qismini savodsizligini tugatishni yana bir yangi muddatlarini belgiladi. Shu jumladan, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida—1942 yilda, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog'iston ASSR qishloq tumanlarida 1943 yilda, shu viloyatlar shaharlarida bo'yicha esa 1942 yilda tugallash ko'zda tutildi.³

Quyida keltirilgan ma'lumotlar 20 yillar o'rtalarida O'zbekiston xalq ta'limi holati qanday bo'lganligini yaqqol ko'rsatadi. 1925 yilda respublika bo'yicha bir maktabga 200 kv chaqirim, 4,909 aholi va maktabgacha yoshdagi 972 ta bola to'g'ri kelgan. Butun O'zbekistonda 3 665 o'quvchi bor edi. Shu paytga kelib inqilobgacha bo'lgani singari son jihatdan diniy maktablar hujjatlarda «eski usul maktablari» yoki maktablar deb atalgan anchagina tashkil etardi. 1925 yilga kelib O'zbekistonda 876 ta Sho'ro mehnat maktablari va 2403 ta eski usul maktablari bo'lib, bular sho'ro maktablaridan qariyb uch barobar ko'p edi. Agar bitta

¹ Исаев Х. Ўзбекистон деҳқонларининг ижтимоий – сиёсий фаоллигини ўсиши. (1925 – 1940). Т. 1986, 18 – бет.

² Бухоро вилояти фирқа архиви, 1 – ф, 3 – р, 187 – д, 54 – варақ.

³ Исаев Х. Ўзбекистон деҳқонларининг ижтимоий – сиёсий фаоллигини ўсиши. (1925 – 1940). Т. 1986, 18 – бет.

maktabga uchta qishloq to'g'ri kelsa, bitta sho'ro maktabiga o'ttizdan ortiq qishloq to'g'ri kelar edi.

O'zbekiston SSR Maorif Xalq Komissari O. Inog'omovning e'tirof etishicha, qishloqda maktab ta'limini rivojlantirishda xususan, quyidagi qiyinchilik va kamchiliklar mavjud edi;

1. Dehqon bolalarini maktablar tomonidan yetarli qamrab olinmaganligi (bolalarning katta ommasi maktab darvozasini qat'iyat bilan taqillatmoqdalar);
2. Qishloq maktab tarmoqlarining hududiy jihatdan notekis joylashganligi; o'nlab volostlar, ko'p yuzlab qishloqlar butunlay maktablardan mahrum;
3. Ommaviy qishloq maktablarining rivojlanmaganligi;(to'la ta'lim kurslari bo'lgan maktablar siyrak holdadir);
4. Qishloqda xotin-qizlar maktablarining butunlay yo'qligi;
5. Ommaviy maktablar dars binolarining to'la yaroqsizligi;
6. Maktablarning aholi bilan aloqasining bo'shligi;
7. Qishloq maktablari jihozlarining tashvishli kambag'alligi;
8. Qishloq ma'rifatparvarining bo'sh malakali ekanligi;

9. Maktabning o'quv va yozuv qurollari bilan yetarli ta'minlanmaganligi.

O'zbekiston SSR Sho'rolari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Y. Oxunboboyev Toshkent okrugi qurultoyida qishloqda xalq ta'limi ishi past yo'lga qo'yilganligini ta'kidlab, o'z nutqida shunday degan edi,-«Bizdagi qishloq maktablarida xalq ta'limi juda ham quyi darajada turibdi. Bizdagi o'qituvchilarning aksariyat qismi kam bilimli, o'qituvchilikka to'g'ri kelmaydigan, bolalarga ko'p narsa bermaydigan kishilardir. Shu tufayli bir qator aholi bizning maktablarni tan olmasdan qo'yganligi kuzatilmoqda, eski usul maktablari yana rivojlanmoqda.

Tadqiqot davrining boshlang'ich qismida qishloqda maktab ta'limi holati, hamda 20 yillar ikkinchi yarmi va 30 yillarda uning rivoji boshlang'ich nuqtasi mana shunday edi.

O'sha davr hujjatlarida maktablarga dehqon bolalarini yanada keng jalb qilish va ularga yuqori sifatli bilim berishga to'sqinlik qiladigan omillarga e'tibor berilgan. Shu munosabat bilan yuqorida keltirilgan Ramzining ma'ruzasida ko'rsatiladiki, maktab tomonidan eng kam dehqon va batrak bolalari qamrab olingan. Ramzining aytishicha «Bunga oyoq kiyimi va kiyim kechakning yetishmasligi, yilning sovuq vaqti, loygarchilik, yomg'ir jiddiy to'siqdir». Qishloq maktablari normal ishlashiga va dehqon bolalarini o'quv mashg'ulotlariga doimiy qatnashuviga ularning qishloq xo'jalik ishlarida juda bandligi ancha xalal berar edi. Buning oqibatida qishloq bolalari o'qishga 3–4 oy ajratar edilar. Qishloqlarda ko'pincha maktablarda 30–40 kishi o'rniga 10–15 kishi o'qir edi. Bu 10–15 kishi naridan–beri o'qirdi. Natijada qishloq maktablarida sinfiga qoldirilganlar nisbati yuqori bo'lib, ba'zi tumanlarda 56–60 foizga (Narpay, Ocha, Urgut va boshqalar) yetdi. O'zlashtira olmagan o'quvchilar nisbati ham yuqori bo'lib, respublikada bu ko'rsatkich 30 foizgacha yetgan edi. «Za partiyu» oynomasining yozishicha «o'zlashtira olmaganlarning asosiy ko'pchiligi kambag'allar bolalari tashkil etadi. Natijada bolalarning maktab tomonidan keng qamrab olinishiga qaramasdan, bitirib chiquvchilar nisbati kam edi. Misol uchun 1930–1931 o'quv yilida 1–pog'ona maktablarini respublika bo'yicha bor–yo'g'i 603 kishi, kelgusi yili esa–1452 kishi bitirib chiqdi.¹

20 yillarining ikkinchi yarmi xalq ta'limi rivojida Sho'ro maktablari bilan diniy maktablar o'rtasida kuchli raqobat bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Birinchisi tayyor o'qituvchi kadrlarga, o'quv binolariga ega bo'lmasdan, har doim ham mahalliy aholiga nisbatan odat bo'lib qolgan an'anaviy eski usul maktablari bilan raqobatlasha olmas, buning ustiga bu maktablarda o'quvchilar har bir musulmon uchun muqaddas bo'lgan-Qur'on Karim kitobini o'rganardilar. Bu oxirgi vaziyat tub aholini qariyb barchasining dindorligi natijasida, ota–onalarning o'z bolalarini maktabga yuborishda bu hal qiluvchi omil edi. Shuning uchun ham dehqonlarning ancha qismi Sho'ro ateistik maktablariga nisbatan eski usul maktablarini afzal ko'rdi. Ular 1926–1927 o'quv yilida 1305 ta bo'lib, ularda 196999 o'quvchi,

¹ ЎзР МДА Р – 94 – ф, 5 – п, 814 – д, 4,6 Ҳарақлар.

jumladan 5231 qiz bolalar o'qir edi. O'zbekiston SSR Maorif Xalq komissarligi o'sha davrdagi hujjatlardan birida musulmon bolalarining ta'lim olishi rivojida diniy maktablar roli munosabati bilan ko'rsatilgan ediki; «Umumiy boshlang'ich ta'lim to'g'risida gapirganda, eski usul maktablari masalasi to'g'risida indamasdan o'tib ketilmaydi. Uzoq o'tmishda ildizlarning chuqur ketganligi bilan, bu maktab chorizm davrlarida ulkan darajada o'sdi kichik hajmlarda bo'lsada hozirgacha saqlanib qoldi. Oldingi yili ruhoniylarning maktabni isloh qilish uchun kuchli harakati kuzatildi. Ruhoniylar bu ishni o'z muassasalarini saqlab qolish va ular orqali o'z ta'sirlarini mustahkamlash uchun amalga oshirdalar.¹

Hujjatlarni tahlil qilish shundan guvohlik beradiki, Sho'ro idoralari 20 yillar oxirida eski usul maktablariga nisbatan qattiq pozisiyada turdilar. O'sha davrdagi hukmron bo'lgan ma'muriy-to'rachilik tuzumi odatlariga ko'ra ularni ma'muriy yo'l bilan tugatish pozisiyasida mahkam turdilar. Masalan O'zbekiston SSR Maorif Xalq komissarligi 1926–1927 yillarda okruglarda quyidagilarni belgiladi;

A) Sho'ro maktablari bolalarga xizmat ko'rsatayotgan yerlarda eski usul maktablarini tugatish;

V) Maorif Xalq Komissarliginig ruxsatisiz biron–bir yangi maktab ochishga yo'l qo'ymaslik va eski usul maktablarini tugatish;

S) Mahalliy byudjetdan eski usul maktablariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fondga mablag' o'tkazish. Bu maqsadlarga 260 ming so'm ajratildi.

Tadqiq qilinayotgan davr oxiriga kelib umuman O'zbekistonda va respublikaning qishloqlarida xalq ta'limini rivojlantirishda muhim natijalarga erishilgan edi. 1940–1941 o'quv yilida respublikaning umumta'lim maktablarida 1271,4 ming bola, shu jumladan qishloq joylarida-988,6 ming, shundan 1–3 sinflarda 693,1 ming, qishloqda 573,1 ming, 4–8 sinflarda 538,6 ming, shundan qishloqda 391,6 ming, 9–10 sinflarda 17,6 ming, shundan qishloqlarda 5,4 ming bola ta'lim oldi.² Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinadiki 20–yillardan farq qilib, o'rganilayotgan davr oxirida respublika umumta'lim

¹ЎзР МДА Р – 94 – ф, 5 – р, 814 – д, 50 – варақ.

² Ўзбекистон ССР халқ хўжалиги 60 йилда 288 – бет.

maktablarining 75 foizdan ko'prog'i qishloqqa to'g'ri kelgan. Shu bilan birga yuqori sinf o'quvchilari bo'yicha qishloq shahardan ancha orqada edi. 9–10 sinflarda o'qiydigan o'quvchilarning 25 foizi qishloqqa to'g'ri kelardi, bu paytda respublika aholisining 75,5 foizi qishloq joylarida yashasi ham 1940 yil 10 iyulda O'zbekiston SSR Xalq Komissarligi va O'zbekiston kommunistik partiyasi (b) Markaziy Qo'mitasi «O'zbekiston SSR xalq ta'limini kelgusida yaxshilash bo'yicha va umumiy o'rta ta'limni amalga oshirish bo'yicha choralar to'g'risida qaror qabul qildi. Unda Sho'rolar va firqa qo'mitalariga 1940 yil 1–avgustigacha shahar va qishloqlarda uning kelgusida rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda qishloq joylarida yetti yillik umumiy ta'limga, shaharda 10 yillikni amalga oshirish maqsadida maktab tarmoqlarinig joylashuvini ko'rib chiqish va tasdiqlash vazifasi yuklatildi. Biroq qishloqda umumiy yetti yillik ta'limga, shaharda esa o'n yillikka o'tishga bir yildan so'ng boshlangan ikkinchi jahon urushi halal berdi.»

III-bob Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligini isloh etish jarayonlari.

3.1 Samarqand viloyatida yer-suv islohotlari , muammo va echimlar.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan keyin agrar o'zgarishlarning yangi boskichi boshlandi. Mintaqada 1924-1925 yillarda qishloq xo'jaligida mehnat kilishga layoqatli bo'lgan aholining 85% band edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salmog'i butun yalpi mahsulotning qariyb 80 % ni tashkil etardi. Mavjud sanoat korxonalarining 90 % i qishlok xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash bilan shug'ullangan.¹

O'zbekistonda bunday sharoitda agrar islohotlar o'tkazilishi chuqur ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan. Yaqin-yaqin kunlarga bizning bolalarimizga « Sizlar faqat fan va texnika haqida o'ylang, faqat raketalar va murakkab mashinalar haqida xayol suring, yeguliklaringiz va kiyim kechaklaringizni boshqalar tayyorlab berishadi deb o'qitar edik. Imkon bo'lsa biror oddiy o'quvchi dehqon yoki fermer bo'lishni hohlamasdi. Hamma «Bizning tirikchiligimiz haqida davlat o'ylaydi» der edik. Biroq bu qadar ulkan ishni davlatning o'zi amalga oshirishi amri–mahol edi. Shu bois uzoq yillar mobaynida taraqqiyot juda sekin kechdi. Eng achinarlisi shu bo'ldiki, faqat yuksak orzulardan nariga o'ta olmaydigan, amaliyotdan, tadbirkorlikdan yiroq, erinchoq havoyi avlod tarbiya topdi. Bugun bizning oldimizga mustaqillik butunlay o'zgacha talablar qo'ymoqda. Avvalo biz tabiiy rivojlanish yo'liga qaytmoqdamiz. Bugun jamiyat farovonligini yaratish davlatning emas har bir inson zimmasidagi vazifadir. Biz bugun mustaqillik bergan imkoniyatlar bilan korxonalar ochishimiz, xalqimiz dardlariga malham bo'lishimiz, yurtimizda farovonlik, to'kinchilik, arzonchilik yaratishimiz zarur.

Shunday bir paytda biz so'nggi marta xalq farovonligi yo'lida xizmat qilish huquqimizni oxirgi marta qachon boy berganimiz haqida fikr yuritmoqchimiz. Bu albatta jamoa xo'jaliklarini tuzish bilan bog'liqdir. Chunki mana shu kompaniya

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. -Б.326-327.

xalq farovonligi yo'lida xizmat qilayotgan millionlab milliy tadbirkorlarni sun'iy ravishda yo'qotgan edi.

«Turkiston ASSR hukumatning yer tug'risidagi qabul qilgan qarorida

«yer oldi-sottisi mutlaqo to'xtatilishi aholiga e'lon qilinsin»,¹ deb ko'rsatildi. 1920-1921 yillarda Turkistonda birinchi marta o'tqazilgan yer islohotiga qaramasdan, o'zbek qishloqlarida hali oldingi mustamlakachilik davriga xos bo'lgan ko'pgina o'ziga xos xususiyatlar, birinchi navbatda kam yerlik va yersizlik saqlanib qolgan edi.

1920-1921 yillarda Samarqand viloyatya bo'yicha boy dehqonlardan va yirik yer egalaridan 25959 desyatina ² yer musodara qilinib, yersiz va kam yerli dehqoyalarga beriladi.³ 1924-1925 yillardagi yer hisobiga qaraganda Samarqand viloyatida qishloq aholisining foydalanishi uchun hammasi bo'lib 65917898 ⁴ desyatina yer bor edi. Bu vaqtda esa aholining 2,1 foizi, ya'ni 2462 xo'jalik tamomila yersiz edi. Bir-uch desyatinagacha yeri bo'lgan xo'jaliklar 53,6% ni tashkil etib, ularning qo'lidagi yerlar hamma yer maydonining 11,8 foizini tashkil qilardi, xolos. O'n desyatinadan oshiq yeri bor xo'jaliklar 1,5 foizni tashkil qilsa ham, viloyatdagi hamma ekin yerlarining 57.2 % ni egallab olgan edilar.

Bu davrda Samarqand viloyati qishloqlari o'ziga xos mayda va tarqoq yer uchastkalariga bo'lingani bilan ajralib turardi. Mayda dehqon xo'jaliklari asosan azaldan sug'oriladigan kichik hududlarga to'plangan edi. Agrotexnikaning o'ta oddiyligi, irrigasiya tizimining tang holatdaligi, mablag'larning kamligi yangi yerlarni jadal o'zlashtirish imkonini bermas edi. Bularning hammasi yer masalasining keskinlashuviga olib keldi.

Yer-suv islohotini o'tkazishga doir masalalar avval viloyat partiya aktivlari yig'ilishida, undan keyin O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida muhokama qilindi. Bu vaqtda eng avval O'zbekiston KP (b) MK huzurida va

¹ Камолов А. 1925-1926 йилларда Самарқанд областида ўтказилган ер-сув ислохоти тарихига доир. // -Труды Самаркандского государственного университета им. А. Навоий. Новая серия. Выпуск 34 121. —Самарканд, 1963. -С.135.)

² десятина-юза (сатж) ўлчов бирлиги. Бир десятина 1,09 гектарга тенг бўлган

³ Самарқанд вилояти давлат архиви (Самарқанд ВДА), 74- фонд, 1 - рўйхат, 18-иш, 15-1 6-варақлар

⁴ Камолов А. 1925-1926 йилларда Самарқанд областида ўтказилган ер - сув ислохоти тарихига доир...1963.- С.135.)

viloyat partiya komiteti huzurida, undan keyin uyezdlarda yer-suv komissiyalari tuzildi. Samarqand viloyatida yer-suv komissiyasi 1925 yilning iyun oyi boshida tashkil etildi. Viloyat partiya tashkiloti yer komissiyasining 1925 yilning 28 oktyabrdagi qarori bilan mehnat, yarim mehnat, mehnatdan tashqari holatlarni qayd qilish va yerlarini ataylab yashirish, xo'jalikni qasddan tarqatish, yerlarni olib sotishni aniqlash maqsadida Samarqand viloyati 12 ta rayonga bo'linadi.¹

Уездлар	Районлар	Волостлар
Самарқанд	1.Хўжа Аҳрор	Хўжа Аҳрор, Маҳалла, Сиёб, Анҳор, Довул, Чашмаоб
	2. Ургут	Ургут, Янги Қозон арик, Жумабозор, Қоратепа
	3. Челак	Туятортар, Қорақалпоқ, Полвон арик, Кобут, Челак
	4. Дахбед	Ҳалвойи, Эшимоксоқ, Шаҳоб, Жойи Девона, Дахбед
Катта-кўрғон	1. Митан	Жарбоши, Октепа, Тўсинсой, Тўрткўл, Янгиқўрғон, Митан
	2. Пайшанба 3. Дамарик	Пайшанба, Мингарик, Хўжа арик, Сирғали Кўлқўрғон, Дамарик, Чимбой, Жом, Навқин, Жойшагр
Жиззах	1. Зомин	Ўзбек, Равот, Қоратом, Ём, Зомин
	2. Санғзор	Санғзор, Хўжамункир, Ўснат, Қатортол, Янгиқўрғон
	3. Боғдон	Синтоб, Вогим, Боғдод, Накўрт, Саурюк
Хўжанд	1. Унжин	Унжин, Кустақози, Чопкилик, Урал
	2. Нав	Нав, Тўлақоқдазон, Бокса-Исфара

Har bir rayonga quyidagi kishilar boshchiligida komissiyalar yuboriladi:

1. Xo'ja Ahror rayoniga-Jalilov.
- 2.Urgut rayoniga-Sharipov.
3. Chelak rayoniga-Bobokalonov.
- 4.Dahbed rayoniga-Qosimov.
- 5.Mitan rayoniga-Salimxo'jayev.
- 6.Payshanba rayoniga—Ulug'bekov.

¹ Самарқанд ВДА, 1685 – фонд, 1-рўйхат, 338-иш, 2-варак.

- 7.Damariq rayoniga- Vohidov.
- 8.Zomin rayoniga-Yusufzoda.
- 9.Sangzor rayoniga—Ziyoviddinov.
- 10.Bog'don rayoniga-Haqberdiyev.
- 11 .Unjin rayoniga-Saidov.
- 12.Nav rayoniga-O'rmon Zokirov.¹

O'zbekistonda o'tqazilgan yer-suv islohotining strategiya va taktikasi 1925 yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasining 11 se'zdida tasdiqlandi. Se'zd qarorlarida alohida ta'kidlab o'tilganidek, yer islohoti shunday ahvolni ta'minlashi lozim ediki, unda xususiy mulkchilik munosabatlari davlatning socialistik iqtisodiyot ta'siriga bo'ysundirilishi kerak edi»² Se'zda respublikada sosalistik iqtisodiyot poydevori qurish sohasida birinchi galdagi vazifalar belgilanar ekan, kambag'al va o'rta hol dehqonlarni ommaviy ravishda kooperativlashtirish hamda ularni socialistik kurilishga jalb etish zarurligiga e'tibor qaratildi.

1925 yilning 2 dekabrda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining favqulodda sessiyasida «Yer va suvni nasionalizasiya qilish to'g'risida» dekret qabul qilindi. Bu dekretda « O'zbekiston SSR doirasidagi barcha yer, o'rmon, suv va yer osti boyliklari, kimning qaramog'ida bo'lsa bo'lsin, O'zbekiston SSR ning davlat mulki hisoblanadi» deb ko'rsatiladi. «Yer va suvni nasionalizasiya kilish to'g'risidagi dekretga ko'ra, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ham ko'proq yeri bo'lgan «pomeshchik tipi» dagi xo'jaliklar va Farg'ona viloyatidagi 40 desyatina yeri bor xo'jaliklarining sug'orilib ekiladigan yer maydonlari, ish hayvonlari va asbob-uskunalarini musodara qiinishi kerak edi»³

¹ Самарканд ВДА, 1685 – фонд, 1-руйхат, 338-иш, 3-варақ.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. –Б.328.

³ Ризаев Г.Р. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг).. – Тошкент; Узбекистан, 1967. С.70.).

O'ziga to'q xo'jaliklar, yer egasiniig to'l yoki qiman kuchi yoki oila a'zolari kuchi bilan ishlanadigan xo'jaliklar uchun Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 10 desyatina norma belgilandi. Bundan ortiqcha yerlari bo'lgan xo'jaliklarning yerlari musodara qilindi. Samarqand viloyati shahar ijroiya qo'mitasining 1925 yilning 8 - dekabrda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari yig'ilishida «Yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risida va uyezd, rayon komissiyalarini tashkil qilish to'g'risida»gi masalalar ko'rib chiqildi. Majlis qaroriga ko'ra viloyatda yer-suv islohoti 28 ta rayonga bo'linib amalga oshirilishi va har bir rayon komissiyasi tarkibida 5 ta a'zo bo'lishi ko'rsatildi.¹ Samarqand uyezdida 10 rayonga, Kattaqo'rg'on-8 rayonga, Jizzax-6 rayonga, Xo'jand-4 rayonga bo'lindi. Viloyat ijroiya qo'mitasi a'zolaridan Mirzaxo'ja O'rinxo'jayevga Kattaqo'rg'on uyezdida, Ahmadbekovga Samarqand, Mahmudovga Jizzax, Mirzaxo'jayevga Xo'jand uyezdida yer-suv islohotini o'tkazish komissiyalarining tarkibini tuzish va ularni taqsimlash uchun yuborish vazifasi yuklatildi.²

Viloyatning Samarqand uyezdida yer-suv islohoti quyidagicha olib borilgan. Uyezdning Xo'ja Ahror rayon yer komyassiyasi tomonidan boy Norkulovniig 37 tanob yeri va tirik inventarini yashirgani haqida ma'lumot olinib, uning ustidan ish qo'zg'atilib Davlat prokuraturasiga yuboriladi. Shu rayonda yana bir boy Toyir Qosimov ham qamoqqa olinadi va uning yerlari kambag'allar, chorikorlar va batraklarga bo'lib beriladi. Uyezdning dahbed rayonida yer-suv komissiyasi Qobil Xidirovning 56 tanob yer maydoni va tirik hamda jonsiz qishloq xo'jalik inventarlarini viloyat yer-suv islohoti komissiyasi bosimi ostida tortib olishadi.³ Chelak rayonida fuqaro Gusevichning madaniy xo'jaligi bekor qilinadi, barcha yerlari va 8 tanob bog'i, uzumzorlari bilan musodara kilinib, 100 quti asalari uyasi tortib olinadi va bir parcha yersiz qoldiriladi. Bir tegirmonchining tegirmoni musodara qilinadi va tegirmon uning bir ishchisiga biriktiriladi. Viloyat yer-suv islohoti komissiyasining tushintirish ishlari olib borishi natijasida keyinchalik rayon yer-suv islohoti komissiyasi fuqaro Gusevichga bog'u

¹ Самарқанд ВДА, 1685-фонд, 1-рўйхат, 47-иш, 91-варақ.

² Самарқанд ВДА, 1685-фонд, 1-рўйхат, 47-иш, 92-варақ.

³ Самарқанд ВДА, 1685-фонд, 1-рўйхат, 324-иш, 26-варақ.

uzumzorlari va tegirmoyachiga tegirmonini qaytarilib berishadi. Rayonda boy xo'jaliklarining yerlarini musodara qilinishi tugallanadi, 8 ta xo'jalik yerlari musodara kilinib, chorikorlarga, yersizlarga va batraklarga biriktiriladi, lekin yer fondidagi 358 tanob yer taqsimlanmay qolinadi. Rayonning Polvon Ariq volostida 745 tanob yer bo'lib berish uchun mavjud bo'lsa, Chelak volosti bo'yicha 1806 xo'jalikning 7370 tanob yeri, 2775 ho'kizi, 2054 oti, 2 tuyasi, 114 eshagi, 1228 omochi bo'lgan, 317 tanob yeri qisman bo'lib berilishi, 26 ho'kiz, 23 ot, 13 omochi majburiy sotib olinishi kerak bo'lgan.

Kattaqo'rg'on uyezdining Payshanba rayoni Ming Ariq volostida yer-suv islohoti komissiyasi 1920 yillarda bu hududda istiqloqlilik harakatining

rahbarlaridan bo'lgan Nor Polvon Komilov va uning ukasi Ahror Komilovlarning 79 tanob yeri va qishloq xo'kaligi inventari musodara kilinadi hamda ular ustidan ish qo'zg'atilib, ish materiallari Davlat prokuraturasiga beriladi.¹ Islohot davrida Samarqandda yirik yer egalari va savdogarlarning xo'jaliklari tugatildi, 3077 bo'lak xo'jalik yerlari tortib olindi. Islohot natijasida viloyat yer fondiga 26575 desyatina yer topshirildi², qaysiki bu yerlar negizida 9082 ta yangi xo'jaliklar tashkil topdi.

Yer-suv islohotiga ko'ra, boylar va quloqlarning ishchi hayvonlari va asbob-uskunalarini musodara qilindi, chorvasi sotib olindi, keragidan ortig'i tortib olindi. Shunday qilib, musodara qilish va sotib olish natijasida Samarqand viloyatida 2239 bosh mol yig'ildi, bu respublika bo'yicha 28,4 foizni tashkil etgan. Yer-suv islohoti munosabati bilan suv tartiboti va suvdan foydalanishni yo'lga solmoq, suv texnika usullarini barpo etmoq uchun meliorativ shirkatlar ham faoliyat ko'rsatdi. Turkistonda 1923 yildan boshlab meliorativ shirkatlar tuzish boshlangan 60'lib, lekin ular ozchilikni tashkil etar edi. 1924 yilda hammasi bo'lib 9 ta meliorativ shirkatlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib shundan 2 tasi Samarqand viloyatida edi. 1925 yilga kelib, O'zbekiston SSRda 52 ta meliorativ shirkatlari faoliyat ko'rsatib,

¹ Самарканд ВДА, 1685-фонд, 1-рўйхат, 324-иш, 28-варақ..

² Абдураззаков Н. Победа колхозная строя в Самаркандский область. Труды Уз ГУ. Новая серия. Выпуск №. 80.- Самарканд. 1957.-С.77.)

shundan 13 tasi Samarqand viloyatida edi. Viloyatda 1926 yilga kelib 29 ta meliorativ shirkatlar tashkil etilgan edi.¹

Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlovchi asosiy manba Zarafshon daryosidir. Daryoning asosiy iste'molchilari Samarqand, Buxoro, Zarafshon okruglari bo'lib. 1926-1927 yillarda 165 ta har xil kattalikdagi ariqlar bu daryodan suv olgan. Bu ariqlarning atrofidagi sug'oriladigan yer maydoni 100 gektardan 80 ming gektargacha bulgan.²

Bu inshootlarning ta'mirlanishi katta kuch va xarajatlarni talab etgan. Suv chiqarishning boshqarilishi qiyinligi, zamonaviy mukammallashtirilgan regulyator yo'qligi, suv umumiy massasiniig rayonlarga bo'lib berilishida qiyinchilik tug'dirib, ekin maydonlarining katta qisminiig qurib borishiga olib kelgan.

Zarafshon daryosi suvini taksimlashni boshqarish maqsadida 1921 yilning yanvarida Samarqand suv okrugi tuzilib, u viloyat suv xo'jaligi bo'limiga kiritilib, suv ta'minoti rahbariyati nisbatida 5 ta rayonga bo'lingan.³

Birinchi rayon Z ta bo'limdan iborat bo'lib, u boshqa rayonlardan, birinchidan, Zarafshon daryosining yuqori qismida joylashgani bilan, ikkinchidan, sug'oriladigan yerlarning kattagina qismi Hisor tog'i tizmasida joylashganligi va buloqlar, soy suvlaridan foydalanganligi bilan farq qilgan. Bu rayonning Panjikent bo'limida ariqlar soni 35 ta bo'lib, 7 tasi Zarafshon daryosi suvidan foydalangan va shu bilan birga suv yetarlicha bulgani uchun bu yerlarda asosiy ekiladigan ekin sholi bo'lgan. Uchta magistral ariq Mo'g'on daryosidan suv olgan, lekin bu ariklar tog' cho'qqilari atrofi va chuqur tunnellar bo'ylab oqishi bu ariqlardan sug'oriladigan yer maydoni juda kam bo'lib, atigi 450 desyatinani tashkil qilgan.'

Rayonning Yuqori Yangiqozonariq bo'limi 2 ta magistral ariqlarga ega bo'lib, Zarafshon daryosining chap qirg'og'idan boshlangan. Bu ariqlardan suv olish 1925 yilda natura va to'lov pul bilan to'lash hisobiga bo'lgan. Ariqning suv o'tkazish tezligi sekundiga 35 metr kub, Qozonariqqa sekundiga 20 metr kub to'g'ri kelgan.

¹ Правда Востока, 29 мая, 1927 года

² Джамалов О. Б. Социально- Экономические предпосылки сплошной коллективизации сельское хозяйства в Узбекистане.-Тошкент: Государственное Издательство УзССР, 1950.-С.40.).

³ Самарканд ВДА, 857-фонд, 1-руйхат, 6-иш, 21-варак.)

Yangi kanalning uzunligi 60 km bo'lib, uning oxirgi 15 km. qismi 1912 yilda qazilgan. Quyi Yangiariq bo'limi 25 chaqirim yerdan boshlab Qoratepa volostining 2 ta jamoasini suv bilan ta'minlagan.¹ Ikkinchi irrigasiya tarmog'i rayonning eng asosiy suv yo'li Darg'om kanali bo'lib, u Juma bozor uchastkasi va Kulba qishlog'idan Zorsorning o'ng tomoniga va oxiri Qo'shquduq qishlog'i yonidagi ayirma damga borib taqalgan, taxminan 10-12- chaqirimi Kattako'rg'on uyezdiga yetib borgan. Kanalning uzunligi 125 chaqirim bo'lib, 45000 dsyatina maydondagi yerlarni sug'organ. Darg'om kanali Dovul volostidagi Miyontov qishlog'ida, ya'ni Tallig'ulon suv chiqarish havzasidan o'tib, Angor deb nomlanib tugaydi. Rayon ma'muriy suvchilik munosabatiga ko'ra 5 ta bo'limga bo'lingan.

Uchinchi rayon o'zining irrigasion xususiyati bilan 2 ta teng bo'lmagan qismga bo'linadi: ichki tarmoqli Siyob bo'limi bo'lib, uning asosiy suv manbai Darg'om kanalining oqar suvlari va buloqlaridir. Chorjo'y, Jo'yi Devona, Yangi Qo'rg'on bo'limlari Oqdaryo va Qoradaryodan suv olgan. Siyob bo'limi uzumbog'dorchilik, Miyonqol esa paxta, sholi ekiladigan hududlar bo'lgan.

To'rtinchi rayon tasarrufiga volostlarni sug'orayotgan Zarafshon daryosining o'ng qismida joylashgan 9 ta kanal kirgan. Ulardan biri Tuyatortar magistral kanalidan o'rtacha 40 metr kub suv oqib. Z ta bo'linmalarni va Jizzax uyezdining O'smat volostidagi dehqonlar uyushmasi yerlarini sug'organ.

Beshinchi rayon o'zining irrigasion sharoiti turlicha bo'lgan Z ta bo'limdan iborat bo'lgan. Bular Mirzaariq, Payariq va To'g'uzariq (To'g'iz) bo'limlaridir. Mirzaariq magistral kanali Zarafshondan boshlanib, 20 metr kub suv xajmiga ega bo'lgan. Mirzaariq Bulung'urga quyilgan va u yerda asosan sholi ekilgan². Payariq magistral kanali (hozirgi Payariq) Bulung'urdan boshlanib, Mirzaariqning davomi hisoblanadi va 5 ta ariqqa bo'linadi.

To'g'uzariq bo'limi shart-sharoitiga ko'ra yuqoridagi ikkitasiga o'xshamaydi. Nomidan kelib aytish joizki, bu ariq 9 ta mustaqil kanallardan iborat³ Ular suvni Oqdaryodan olgan. Bu bo'limda suv yetarlicha bo'lgan. Boshqa ekinlar ekish

¹ Самарқанд ВДА, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 4-варақ.

² Самарқанд ВДА, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 10-варақ

³ Самарқанд ВДА, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 10-12 варақлар.

foydasizligi uchun sholi va boshqa ziravor o'simliklar, poliz ekinlari, oz miqdorda paxta ekilib, moy beradigan o'simliklar ekilgan. Beda umuman o'smaydi.

O'sha davrning eng yirik suv xo'jaligi obyekti bo'lgan Zarafshon daryosidagi Ravotxo'ja to'g'oni 1916 yilda qurib bitkazilmagan eski to'g'on ustiga qayta qurilgan. I.I.Levi loyihasi bo'yicha qurilgan Ravotxo'ja to'g'oni suvini Zarafshondan sekundiga 1350 metr kub tezlikda suv o'tkazish kuchiga ega bo'lib, 1921 yilda kuchli toshqin vaqtida sekundiga 900 metr kub bo'lgan suv toshqinidan 1,5 barobar kuchliroqdir. To'g'on 1927-1929 yillarda qurilgan bo'lib, uning ochilishi 1930 yilning 2 mayida bo'lib o'tgan¹. U bir to'g'on va ikki regulyatordan iborat bo'lib, ular daryoning ikkala qirg'og'i bo'ylab magistral kanallarni suv bilan ta'minlagan. Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlarning katgagina qismi shu to'g'on yordamida sug'orilib, suv taqsimlanishini nazorat qilgan. Ravotxo'ja suv inshooti xizmatidan foydalangan rayonlar o'zining asosiy o'niv va vodiya yaqinligi bilan bu suvlarning eng asosiy iste'molchilari hisoblanadi. 1926 yilda mazkur rayonlar vodiyni ekin -ekiladigan yer maydonlarining 34,5 % ga ega bo'lib, Zarafshon daryosining 42,7 % umumiy hajmidagi oqar suvlaridan foydalangan. Katta miqdordagi suvni vodiyni yuqori qismida sarflanishi Buxoro vohasidagi suv taqsimlanishini chegaralab qo'ygan. Shuning uchun bu yerdan 1928 yilda sug'orishga mo'ljallangan 73 143 gektar yerdan faqatgina 48031 gektari yoki 70% ekin maydonlari ishlatilgan. Zarafshon daryosi sug'orish sistemasining ekspluatatsiya xarajatlari uncha katta bo'lmagan. 1925-1926 yillarda ular 1,5 million rublni yoki o'rta hisobda har bir xo'jalikka 7 rubl 49 tiyin, 1 gektar yerga 4 rubl 22 tiyin to'g'ri kelgan.²

1926 yilda amalga oshirilgan yirik ishlar qatoriga 1925 yil oktyabrda qaytadan yo'lga qo'yilgan Xo'jand uyezdining Nov rayonidagi Qurqat kanali ham kiradi. Kanalning bosh qismi qayta qurilib, unga regulyator moslamalari qurildi va tog' cho'qqisidan o'tadigan 1017 metrli tunnel qurildi. Qurqat kanalini qayta ta'mirlash uchun olib borilgan asosiy ishlar 1926 yilning 1 mayida tugallandi. Bu

¹ Ирригация Узбекистана. Е. 1. – Тошкент; Фан, 1975. –С. 180.

² Джамалов О. Б. Социально- Экономические предпосылки сплошной коллективизации сельское хозяйства в Узбекистане....-С.40.

vaqtga kelib Samarqand suv xo'jaligi tomonidan yangi yerlarni o'zlashtirish va ekiladigan dalalarga suvni o'z vaqtida yetkazish uchun 1920330 rubl sarflangan bo'lib, shundan 285 ming rubl Qurqat kanali uchun ajratilgan ¹ 1926 yili Samarqand suv okrugi bo'yicha Qoradaryo suv taqsimoti ostki to'g'oni qurib bitkazildi, Yangiariq, Qoratepa va Toshtepa soylari kesuvida akveduk(osma quvur)lar qurish ishlari olib borildi.

1926 yilda Samarqand uyezdining Chelak qishlog'i atrofidagi 50 km hajmdagi suv taqsimoti tarmog'ini qamrab olgan To'rtko'l volostidagi Paykanali suv chiqarish qurilmasi, 5 ta yangi inshootlar qurilishi to'la yakunlandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2000 gektar yangi yerlarga suv chiqarildi. Buning uchun 250 ming rubl sarflandi. Angor, Yangi, Siyob, Polvon kanallari orqali 3000 gektar yangi yerlarni sug'orish uchun katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Masalan 32 km li Angor kanali qirgoklarida dambalar qurilib mustahkamlandi, 20 ta yangi inshootlar, shular ichida 2 ta o'tish yo'li ham qurildi. Siyob kanalida qirg'oqlar, dambalar mustahkamlandi, 11 ta yangi suv chiqarish tarmoqlari qurildi. Davlat tomonidan 7000 rubl mablag' 10000 gektar yangi yerlarni loyihalashtirish va tadqiqot ishlari uchun ajratildi. Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan Tallig'ulon suv dambasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu inshoot 15 ming gektar yerni sug'orishi kerak bo'lib, Samarqanddan 25-40 km uzoqlikda joylashgan. Polvon, Sharshar, Obaliq, Mitan, Qora, Tuyatortar, Oq ko'l, To'g'uz, Qoraqat kanallarida beton suv chiqarish tarmog'i qurish rejalashtirilgan. Umumiy hajmda ular 6 ming gektar yerni sug'orishi kerak edi. Mazkur kannallarda qurilish ishlari uchun 26840 rubl ajratilgan. Yuqorida aytib o'tilgan barcha qurilish ishlari 1920330 rublni tashkili etadi. Bu mablag'-ning asosiy qismi davlat byudjeti hisobidan edi.

Suv inshootlari qurilishida hashar ishlari ham amalga oshirilgan bo'lib, 1924 yilda 800 ming rubllik, 1925 yilda tozalash va mayda ta'mirlash ishlari bo'yicha 941388 rubllik, 1926 yilda esa 947040 rubllik ish hajmi bajarildi.

¹ Самарқанд ВДА, 48-фонд , 1-рўйхат, 49-иш, 96-103 varaqlar.

1925 yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun SSR suv xo'jaligi tomonidan meliorativ ishlar uchun 200 ming rubl ajratilib, ular sug'orish sistemasini rivojlantirib borish uchun ishlatilgan. «Qo'shchi» ittifoqining ishtirokida 1925 yilning oxirigacha O'zbekiston SSR da 52 ta meliorativ shirkatlar tuzilgan bo'lsa, 1926 yilning 1 mayiga kelib 118 ta meliorativ shirkatlar faoliyat olib borgan. shu yilning 15 iyuliga kelib faqatgina Samarqand viloyatida 29 ta meliorativ shirkatlar tuzilib, ularga 10 mingta dehqon xo'jaliklari birlashgan. Meliorativ shirkatlarning uyezdlar bo'yicha bulinishi Samarqand uyezdida 18 ta, Xo'jandda 5 ta, Jizzaxda 1 ta, Kattaqo'rg'onda 1 ta, O'ratepada 1 ta bo'lgan¹. 1926 yil aprelida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti buyrug'i bilan 15 ming rubl pul suv xo'jaligi jamg'armasidan, 20 ming rubl esa Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan Eski Tuyatortar kanalini tuzatish ishlari uchun ajratildi. Bu ishlar muvaffaqiyat bilan yakunlanib, kanal suvini o'tkazish sekundiga 4,5 metr kubga yetdi va kanal Jizzax uyezdini suv bilan ta'minlay boshladi.²

Meliorasiya jamg'armasining ajratilgan maxsus mablag'idan tashqari 1929 yilda Samarqandning 29 ta meliorativ shirkatlariga yer-suv islohotiga ajratilgan ssudalardan 90 ming rubl berilgan bo'lib, ular rejalashtirilgan yangi yerlarni sug'orish uchun sarflangan. Viloyat suv xo'jaligi O'zbekiston SSR davlat byudjetidan 516 ming rubl oldi va Angor, Siyob, Yangi, Pay, Polvon kanallaridan 5000 gektar yer sug'oriladigan bo'ldi.

Samarqand viloyati irrigasiya inshootlaridal yana biri Kattaqo'rg'on suv omboridir. Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi tabiiy suv havzasida yer to'g'oni qurilish ishlari 1940 yilning bahor va yoz oylarida olib borilib paxta yig'im-terimigacha davom etdi. Bu qurilishda Samarqand viloyatining 19 ta rayoni, Buxoro viloyatiniig 21 rayoni mehnatkashlari ishtirok etishib har kuni o'rtacha 14 ming kishi, ba'zan esa 106 minggacha ishchi qatnashdi.

To'g'onga 7,3 mln, metr kub shag'al to'kildi va bundan tashqari 4 mln metr kub qazuv ishlari amalga oshirildi. Qurilayotgan to'g'on balandligi 13,5 metrga

¹ Самарқанд ВДА, 48-фонд, 1-рўйхат, 43-иш, 97-102 varaqlar.

² Самарқанд ВДА, 48-фонд, 1-рўйхат, 168-иш, 122 varaqlar.

ko'tarildi, bu esa o'z navbatida 120 mln metr kub suvni yig'ish imkonini berdi. Suv ombori loyixasini O'rta Osiyo suv ishlab chiqarish tashkiloti (Sazvodproiz) xodimlari N.G.Borodinskiy, V.N.Gladey va I.D.Lebedevlar ishlab chiqishgan. Qurilish ishlarini I.G.Burdashvili, S.K.Kolyuchnyuk, Sh.Ch.Aytmetov, V.F.Shpotin boshqardi Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand va Buxoro viloyatlarida 60 ming gektar yerni sug'orish imkoniyatini berdi.

Katta Farg'ona kanali qurilishi davom etayotgan bir vaqtda Samarqand viloyat mehnatkashlari ham o'n ikki kun ichida uzunligi 43 km bo'lgan Zarafshon kanali qurilishi ishlarini amalga oshirdi¹ Xullas, XX asrning 20-30- yillarida Samarqand viloyatida irrigasiya tizimining yo'lga qo'yilishi, viloyatda suv inshootlarining qurilishi va ta'mirlanishi natijasida Samarqand uyezdida 100 ming gektardan oshiqroq yangi yerlarni, Jizzax uyezdida 3000 gektar, Xo'jand uyezdida esa 4000 gektar yerlarni sug'orish imkoniyatini berdi. Bu ham Samarqand viloyatida yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun sharoit yaratdi.

Yer-suv islohoti davrida tez rivojlanib borayotgan kooperasiya tizimi qishloqning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy o'zgarishida sezilarli omil bo'lib qoldi.

1925 yil 15 maygacha Samarqand viloyatida 84 ta qishloq xo'jalik ishlab chiqarish koopsrasiyalari tashkil etilgan bo'lib, ular 28580 dehqon xo'jaliklarini birlashtirgan edi. Viloyatda mavjud 84 ta kooperasiyaning 54 tasi g'o'zachilik-boshqoli o'simliklar, 15 tasi boshqoli, 11 tasi bog'dorchilik uzumchilik - polizchilik va 4 tasi bog'dorchilik-uzumchilik- paxtachilikdan iborat edi. Ular viloyatning uyezdleri bo'yicha quyidagicha bo'lingandi:

Samarqand uyezdida 51 ta kooperasiya 18473 dehqon xo'jaligini, Jizzax uyezdida 18 ta kooperasiya 4135 dehqon xo'jaligini, Kattaqo'rg'on uyezdida 6 ta kooperasiya 3631 dehqon xo'jaligini, Xo'jand uyezdida 9 ta kooperasiya 2442 dehqon xo'jaligini birlashtirgan edi. Qishloq xo'jalik kooperasiya a'zolarining

¹ Сельское хозяйство Узбекистана за 15 лет. 1924-1929. Сборник статей Ташкент: Государственное сельского хозяйственное издательство Уз ССР. 1939. –С. 26-27.

50% kambag'allar va qolgan 50% o'rtahol dehqonlardan iborat bo'lgan. Kooperasiya boshqaruvining 80% ni itgifoq a'zolari tashkil etgan¹. Bu davrda chorvachilikni tiklashga, go'sht-sutchilikni, mayda

chorvachilikni rivojlantirishga ham e'tibor berildi. 1926-1927 xo'jalik yilida viloyatda 7 ta chorvachilik kooperasiyalari tashkil qilingan bo'lib, shundan 2 tasi qorako'lchilik, 2 tasi qo'ychilik (hisori va jigarrang naslli) va ikkitasi sutchilik va sutchilik-so'qimchilik (bo'rdoqqa boqiladigan mol) edi. 1926-1927 yil qishki mavsumda qo'ylarni boqish uchun qorako'lchilik

artellariga 4000 rubl ssuda (qarz) berildi.² 1927 yildagi o'sish bilan 1926 yilni solishtirganda chorvachilikda son boshiga o'sish bo'lganligini kuzatish mumkin. Otlar soninshig o'sishi 17%, yirik molar 123%, tuyalar 39,6%, qo'y va echkilar 39,4 % ga, eshaklar 30,4 % ga o'sgan. Xususan, mayda qoramol (qo'y-echki) lar soni sezilarli darajada ko'paygan. 1920 yilda 6 ming mayda qoramol mavjud bo'lgan bo'lsa 1927 yilga kelib, ular 276489 boshni tashkil etgan.

1925 yilning fevralida Samarqand rayon qishloq xo'jaligi ittifoqi bog'dorchilik – uzumchilik - polizchilik bo'limini tashkil qildi. Bu bo'lim aholiga ekilaligan urug'chilik materiallari yetkazib bergan. Rayon qishloq xo'jaligi ittifoqi negizida 1926 yil yozida ko'chatxona tashkil etildi hamda unga 63647 rubl 64 tiyin sarf qilindi. Berilgan kredit pullar hisobidan 1925 yilda 60 ming pud uzum, 100 ming bog' beda, 8 ming sarjin o'tin, 40 ming pud arpa, 700 ming pud kishmish, shirinligi 32 gradusgacha bo'lgan 7500 pud shinni tayyorlangan³ Mamlakat siyosiy rahbariyati kooperativ harakatni avj oldirish dehqon xo'jaliklarini socialistik rivojlantirish yo'liga o'tkazishning ta'sirchan vositasi deb hisoblagan. Shuniig uchuv ham partiya va sovet tashkilotlari hammadan ham dehqon xo'jaliklarini kooperativlashtirishga ko'proq e'tibor berishdi. Davlatning iqtisodiy manfaati esa avvalgidek birinchi navbatda paxtachilik sohasiga qaratilgan.

¹ Самарқанд ВДА, 48-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 58-62-варақлар

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони Архивининг Самарқанд вилояти бўлими (Ўз. РПДА нинг Самарқанд ВБ), 215-фонд, 1-рўйхат, 35-иш, 19-варақ.

³ Самарқанд ВДА, 48-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 68-71-варақлар.

Viloyatda 1928 yilda paxtachilik kooperasiyasiga 33770 dehqon xo'jaliklari birlashgan bo'lsa, 1929 yilda bu raqam 38274 taga ko'paygan.

Samarqand viloyati va shahar ijroiya komitetining 1926 yil 15 fevraldagi buyrug'i bilan shu yilning 14 fevralida Samarqand viloyatida o'tkazilgan yer-suv islohoti tugaganligi qayd qilindi. Yer-suv islohoti davrida viloyatda sovet rejimiga qarshi qaratilgan istiqloqlilik harakati ham qizil armiya tomonidan bostirildi. Yer-suv islohotigacha viloyat bo'yicha yersiz va kam yerli kambag'al xo'jaliklar 66,7%, o'rta hollar 26,4% tashkil qilgan bo'lsa-da, islohotdan keyin ular yer bilan ta'minlanganliklari natijasida kambag'al xo'jaliklarning miqdori 27,2% ga kamaydi, o'rta hollar esa 71,5% ga ko'paydi. Yer-suv islohoti munosabati bilan boylar va savdogarlardan tortib olingan yerlar hisobiga 867 xo'jalikdan iborat 48 ta artel tashkil kilindi.¹ Islohot davomida tortib olingan yer fondi katta miqdorni tashkil qilsa-da, tortib olingan yerlarning bir qismigina kambag'al va kam yerli xo'jaliklarga taqsimlab berildi. Shuni aytish joizki, islohotdan keyin ham dehqonlarning kambag'al qatlami hamon katta foizni tashkil etardi. Tortib olingan yerlarning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib yangi tashkil qilingan kolxoz va sovxozlarga berildi. Tortib olingan yerlar asosida Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida 1925-1929 yillarda 354 ta yangi kolxoz tuzildi. Yer-suv islohoti natijasida 1926 yilning oxirida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida umumiy ekin maydoning miqdori 1917 yil ekin maydonining 82,75 foizini tashkil qildi. Biroq viloyat bo'yicha paxta ekish maydoni 1917-1927 yillar mobaynida 103 foizga ko'paydi².

O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublikada kambag'al dehqonlar soni kamayib, o'rtahol dehqonlarning salmog'i ortdi. Yer-suv islohotiga qadar kambag'al dehqonlar guruhi barcha dehqonlarning 76 foiziga teng edi. Bu islohotdan keyin esa ularning salmog'i 39 foizga qisqardi va aksincha o'rtahol dehqonlarning salmog'i 17 foizdan 52 foizga ortdi. Shunday qilib O'zbekistonda 1925-1929 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti sovet

¹ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБА, 215-фонд, 1-рўйхат, 10-иш, 39-варак

² ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБА, 65-фонд, 1-рўйхат, 183-иш, 1-варак.

hukumatining mulkdor sinflarni cheklash va tugatishga va sinfsiz jamiyat qurishga qaratilgan navbatdagi tadbirlardan biri bo'ldi. Bu holat keyinchalik qishloq xo'jaligini zo'ravonlik yo'li bilan yalpi jamoalashtiish jarayonini tezlashtirish uchun qulay sharoit hozirladi.

3.2.Samarqand viloyatida ommaviy jamoalashtirish siyosati va uning mudhish oqibatlari

Mustaqil O'zbekistoniing sovet davridagi tarixining ayanchli va kayg'uli sahifalaridan biri bu XX asrning 20-30-yillaridagi qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va o'ziga to'q dehqon xo'jaliklaring quloqlashtirish hamda ularni surgun qilish va qatag'on qilish masalasidir. Bu davrda jafokash o'zbek xalqining katta qismi o'zlari yashab turgan makonlaridan, hovlisidan, chorvasidan, mahalla ko'yidan, qavmu - qarindoshidan, butun borlig'idan mahrum qilinib, qamoqqa olindi va uzoq o'lkalarga surgun qilindi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida quyidagicha ta'kidlaydi «1937- 1953 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy - siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etishimiz uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafarini otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arboblar va ziyolilar, balki yuzlab oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millatlar va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o'z oilasidan judo bo'lgani, ayollar bevalikka, go'daklar yetimlikka mahkum etilganini, minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o'lkalarga surgun kilinganini hisobga olsak, xalkimiz boshiga tushgan bu fojining dahshati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishdagi yopiq sahifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak xayotimga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar- xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham-qarz, ham farz edi»¹ Sovet davlati 1929 yilning kuzidan boshlab kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo'lgan bir qancha

¹ Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 98

kooperativ tizimlar (matlubot, ishlab chikarish va hokazo) ni davlatlashtirish yo'liga o'tdi. Kooperasiyaning barcha turlari va sohalari bo'yicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo'li bilan amalga oshirish siyosati boshlab yuborildi. Bu yo'l esa ixtiyoriylik prinsiplari (tamoyillari) asosida emas, balki «yuqoridan belgilash yo'li bilan amalga oshirildi»¹ 1929 yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan VKP(b) ning MKning plenumida jamoalashtirish jarayonini kuchaytirish va unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani respublika partiya tashkilotlari oldiga qo'ydi.

Ma'muriy zo'ravonlik yo'li bo'lmish yoppasiga jamoalashtirish jarayonini amalga oshirish uchun VKP(b) MKning 1930 yil 5 yanvardagi «Jamoalashtirish sur'atlari va davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko'rsatish choralari to'g'risida» qarori qabul qilindi. Buning natijasida VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining qaroriga ko'ra Turkmaniston yalpi jamoalashtiriladigan 8 rayonga, Qirg'iziston 6 rayonga, Tojikiston 4 rayonga, O'zbekiston 18 rayonga bo'lingan edi. O'zbekistondan Yangi Buxoro, Sariosiyo, Konimex, Shahrixon, Asaka, Marhamat, Jalolquduq, Chust, Buvayda, Bag'dod, Rishton, Quva, Yangiyo'l, Pskent, Mirzacho'l, Oqdaryo, Pastdarg'om, Yangi qo'rg'on rayonlari kiritilgan edi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti ham 1930 yil 17 fevralda «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorini qabul qildi. Qarorga ko'ra Respublika yalpi jamoalashtiriladigan o'n yetti rayonga bo'linib, Samarqand okrugidan Pastdarg'om va Yangi qo'rg'on rayonlari unga kiritilgan edi.

Mustabid tuzumning agrar siyosatidagi yangi yo'li Samarqand viloyatida ham og'ir oqibatlarini keltirib chiqardi. Chunki hokimiyat organlari, partiya tashkilotlari va yacheykalari yoppasiga jamoalashtirishning boshida turib zo'ravonlik usullari bilan bu siyosatni amalga oshirishga kirishdi. Qishloqla yoppasiga an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni buzish va avj oldirilishi natijasida

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб, Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 347

qishloq aholisining o'ziga to'q va badavlat qatlamlariga qarshi ayovsiz quvg'inlar uyushtirildi, aholini zo'rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi.

Yoppasiga jamoalashtirishning boshlanishi tufayli davlat qishloq mehnatkashlariga o'z yerlariga qanday ekin ekish va qancha ekishni, yetishtirgan mahsulotlarini qanday narx bilan topshirishni belgilab berib turdi.

Mahalliy rahbarlar raqamlar ortidan quvib qonunni buzishgacha bordilar. Jamoalashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozlarga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta'minlanmaydi, katta soliq solinadi, surgun qilinadi, deb qo'rqitishgacha bordilar. Natijada ko'pchilik tumanlarda kolxozlashtirish bir necha hafta ichida tugallandi. Yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi, hamda joylarda ommaviy axborot vositalari harakatga keltirildi.

Quloq qilinuvchilar janubiy viloyatlarda uch toifaga bo'linardi: «Inqilobga qarshi guruhlar»-kolxozlarga qarshi chiquvchilar birinchi toifaga kiritilib, ularning o'zlari qamoqqa olinishi va sud qilinishi, oila a'zolari esa mamlakatning olis rayonlariga ko'chirib yuborilishi kerak edi. «Jamoalashtirishga qarshi chiqqan yirik quloqlar»-ikkinchi toifaga kiritilib, ular oilalari bilan olis rayonlarga ko'chirildilar. Va nihoyat «Quloqlarning qolgan qismi»-uchinchi toifaga kiritilib, ular ilgari o'zlari yashagan rayonlar doirasidagi posyolkalarga ko'chirildi.

Jamoalashtirishni sun'iy tarzda keng yoyish 1929 yil kuzidan boshlandi. Bunga I. Stalinning 1929 yilning 7–noyabrida «Pravda» ro'znomasida bosilgan «Buyuk burilish yili» maqolasi o'ziga xos turtki bo'ldi. Unda jamoalashtirish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishayotgani, dehqonlarning ommaviy sur'atda jamoa xo'jaliklariga birlashayotgani ta'kidlangan edi. Lekin maqolada kamchilik va nuqsonlar haqida hech narsa deyilmagan edi.

Jamoalashtirish siyosatini amalga oshirishda ixtiyoriylik qoidasiga amal qilinmadi. Kolxozga kirishni istamagan kishilarga quloq degan tamg'a bosildi, shu tamg'a ostida turli xil jazolar berildi. Quloq xo'jaliklarini tugatish kampaniyasi O'zbekistonda 1930 yilning boshidan avj olib ketdi. Bu kampaniya

sobiq sho'rolar davlatining boshqa respublikalari singari bizning respublikamizda ham qonunlar va inson huquqlarini qo'pol ravishda buzish bilan birga davom etdi. Bu haddan oshishlar natijasida nafaqat quloq xo'jaliklari, balki o'rta hol va hatto kambag'al xo'jaliklar ham musodara qilindi. Natijada faqat 1930 yilning o'zida 2648 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatilib, qatag'on qilindi. Bunday xo'jaliklarning tugatilishi dehqonlarda bu siyosatga nisbatan ishonchsizlik tuyg'usini uyg'otdi. Natijada ko'pgina odamlar o'z xo'jaliklarini tashlab qochdi va chorva mollarini so'yib sotib yubordilar. Natijada respublika bo'yicha qoramollar soni 1930 yilda 60 mingga kamaydi.

Yoppasiga jamoalashtirish O'zbekiston SSRda bo'lganidek Samarqand viloyatida ham 1930 yilning bahorida avj olib ketdi.

Jamoa xo'jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo'jaliklariga bevosita hujum qilish amaliy jihatdan buzg'unchilik harakatiga aylanib bordi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi.¹ Buni Samarqand viloyatida 1928-1930 yillarda kolxozlarning o'sishini quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin.

Самарканд вилоятида колхозларининг ўсиши (1928-1930 йиллар)

2-жадвал

Йиллар	Колхозларнинг сон	Коллективлаштирилган хўжаликлар сони		Ҳамма деҳқон хўжаликлариغا нисбатан коллективлаштирилган хўжаликлар % ҳисобида	Коллективлаштирилган ер майдони % ҳисобида	Умумийлаштирилган иш хайвонлари	
		Барча хўжаликлар	Ҳар бир колхоздаги хўжаликлар			Жами иш хайвонлари	Ўртача бир колхозда
1928	135	1572	12,7	1,0	1,1	959	4,5
1929	302	3679	12,3	2,1	6,7	2288	4,2
1930	966	62848	65,5	37,9	28,2	5770	34,5

¹ Камолов, А. Самарканд областида колхоз тузумининг ғалабаси тарихидан (1927-1935 йиллар) Общественное науки в Узбекистане. 1965. №5. –С. 53

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1930 yilning oxirida viloyatda 62848 xo'jalikni birlashtirgan kolxozlarning soni 966 taga yetdi. Kolxozlar ixtiyoridagi ekin maydonlari 258002 gektarni tashkil etdi. Ya'ni har bir kolxozga o'rta hisobda 266.04 gektar ekin maydoni to'g'ri keldi¹. Yoppasiga ommaviy jamoalashtirish paytida ma'muriy tazyiq natijasida oradan bir necha hafta o'tgandan keyin hali bironta ham kolxoz tuzilmagan ayrim tumanlar jamoalashtirishni tugatganliklari haqidagi ma'lumotni beradilar. 1929 yilning 2 iyuligacha Samarqand okrugi bo'yicha 3602 xo'jalik jamoalashtirilgan bo'lsa, 1930 yil 15 martigacha 51 ming xo'jalik jamoalashtiriladi.² Jamoalashtirishni tezlashtirish haqidagi ko'rsatma boshqa joylarda bo'lganidek Samarqand viloyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'rta hol dehqonlarga nisbatan ashaddiy quloq qilish siyosati ishlatildi. Aslida boylar va quloqlar Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki yillarda va XX asr 20—yillarning agrar islohotlari jarayonida tugatilgan edi. Avvalo bunga asosiy sabab quloqlar (mushtumzo'rlar)ni aniqlash uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan qat'iy mezonning yo'qligi edi. Quloqlarni belgilashda ular ijtimoiy jihatdan emas, ko'p hollarda xo'jaliklarning ahvoliga qarab baholandi. Natijada quloq toifasiga dastlab islohotlar jarayonida olingan yerda o'z mehnati bilan xo'jaliklarini o'rtacha va o'rtachadan yuqori darajaga ko'tarishga muvaffaq bo'lgan dehqonlarni ham kiritish hollari yuz berdi. Viloyatda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish yuqori foizlar ketidan quvib, jamoalashtirishni 1931 yilning oxirigacha tamomlash belgilandi. Xolbuki O'zbekistonda jamoalashtirish 1933 yilgacha davom etishi kerak edi. Samarqand viloyatida hokimiyat organlari tomonidan jamoalashtirishni tezroq tamomlash maqsadida o'rta hol, hattoki kambag'al dehqonlarni ham quloq qilish, saylov huquqidan mahrum etish, qamash hollari ro'y berdi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin;

Ikromov tumani (hozirgi Pastdarg'om tumani) da boy va quloq xo'jaliklarini tugatishga qaratilgan amaliy ishlar 1930 yilning 7 martidan boshlanib, bu ishlar

¹ Камолов, А. Самарқанд областида колхоз тузумининг ғалабаси тарихидан (1927-1935 йиллар) *Общественное науки в Узбекистане*. 1965. №5. —С. 54

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб, Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида; Самарқанд ВДА, 125-фонд, 1-рўйхат, 257-иш, 374-варак.

19 martda tugatildi. Quloqlarni amalda tugatish uchun Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan 6 kishilik komissiya tuzilib, uning tarkibiga GPU, Raykom (rayon partiya qo'mitasi) va boshqa tashkilot namoyondalari kiritiladi. Qishloq sho'rolari (selsovet) raisi, rayijroqo'm boshlig'i, GPU ning tuman vakili boshchiligida uchlik (troyka) komissiyalari tashkil etildi. Har bir qishloqda partiya a'zolari va komsomollardan maxsus uchlik guruhi tuzilgan. 1930 yilning 30 martiga kelib Ikromov rayonidagi 9500 xo'jalikdan 190 xo'jalik, ya'ni 2 % ini uchlik komissiyasi tekshirib chiqadi. Tekshirilgan xo'jaliklardan 72 tasi tugatiladi.

Ikromov rayonidagi tugatilgan 72 xo'jalikdan quyidagi narsalar musodara qilingan; 52 ta omoch, 16 ta barana, 11 ta jabduq, 11 ta egar, 15 ta arava, 1 ta zanjir, 37 ta soshnik (plug tishi), 70 ta ketmon, 3 ga panshaxa, 9 ta belkurak, 60 ta o'roq, 2-ta seyalka, 49 qulun, 37-ot, 52 toychoq 78 ta ho'kiz, 86 ta sigir, 73 buzoq, 10 tuya, 52 eshak, 2938 qo'y, 187 echki, 1296 tanob sug'oriladigan yerlar, 2761 tanob dam berilgan yerlar, 97 tanob uzumzor bog'lar, jami 3154 tanob yer (har bir xo'jalikka 43,8 tanob yer to'g'ri keladi) tortib olinadi.

Uchlik komissiyasi tomonidan tugatilgan 72 xo'jalikdan 75 pud un, 86 pud bug'doy, 73 pud arpa, 4783 bog' beda, 425 pud somon, 177 pud tariq, 2,5 pud yog', 493 pud jo'xori, 29 pud mosh, 32 pud kunjut, 87 pud paxta, 13 pud beda urug'i, 9 pud kishmish, 16 pud piyoz, 85 pud sholi (guruch), 30 pud makkajo'xori doni musodara qilingan¹ Xolbuki bu oziq-ovqat va don mahsulotlari bu xo'jaliklarning asosiy tirikchilik manbai hisoblangan.

Uchlik komissiyasining shafqatsizligi shu darajaga bordiki, 72 ta tarqatilgan xo'jaliklardan eng zaruriy uy-ro'zg'or buyumlari bo'lgan. 128ta gilam, 144 ta ko'rpa-to'shak, 141 ta yostiq, 92 ta sholcha, 10 ta arra. 11 ta bolta, 88 ta sandiq, 11 ta qumg'on, 4 ta tarozi, 7 ta tog'ora, 1 ta charx (asboblarni o'tkirlaydigan stanok), 13 ta layli, 2 ta po'stin, 91 dona sovun, 16 ta qozon, 7 ta tikuv mashinasi, 6 ta po'stak (teri), 6 stul, 5 ta samovar, 69 ta manufaktura (gazmol, mato), 219 pud jun, 217 pud kalava, 1 ta tog'ora, 165 ta teri, 28 ta chopon, 14 funt choy, 490

¹ ЎзРПДА Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 359-иш, 11-варак

ta piyola, 1 ta soat, 27 bog' o'tin, 54 ta xalta, 2 ta lampa, 4 ta krovat, 12 pud kerosin, 1 ta oyna, 330 pud mahalliy yonilg'i musodara qilinadi.

Uchlik komissining qarori bilan Ikromov rayonidagi 15 ta selsovetlar (qishloq sho'rolari)da tugatilgan 72 xo'jalikning 59 tasi quloq xo'jaligi sifatida belgilanib, ulardan 31 tasi oilasi bilan, 28 tasi oilasiz, jami 203 kishi o'zlari yashab turgan joylaridan boshqa hududlarga surgun qilinadi¹ Sovetlarning 1931 yilda o'tkazgan operatsiyasi natijasida Samarqand viloyati dehqon xo'jaliklaridan 700 tasi (3680 jon) quloq qilinib surgun qilingan bo'lsa, 1931-1932 yillarda viloyatdagi—144316 ta dehqon xo'jaligidan 1931 yilda 703 ta, 1932 yilda 1128 ta, jami 1 831 ta dehqon xo'jaliklari surgun qilindi.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanining Yangi Rovot fuqarolar yig'iniga qarashli Avliyotepa qishlog'ida yashovchi 90 yoshli Nortoji bobo va uning ukasi 87 yoshli Obloqul bobo Ismoilovlar jamoalashtirish va quloq qilish siyosati to'g'risida shunday xotirlaydi: Bizlar yashaydigan qishloqlar umumiy nom bilan Sirg'ali deb aytilardi va Oqdaryo tumaniga qarardi. Bu hududlarda 1930-1931 yillarda «Yangi yo'l», «Stalin», «Kaganovich», «Kirov» kolxozlari tuzilgan edi. Jumladan, Kirov nomli kolxozga Shayxlar, otamxo'ja, Kavsar, Kultepa, Xolajon kishloklari kiritilgan. «Stalin» nomli kolxozga esa Qurshiq, Hazor bobo, Shertepa qishloqlari kirgan edi. «Kaganovich» nomli kolxozga Jarosti, G'uzon qishloqlari, «Ittifoq» kolxoziga esa Avliyotepa, o'rtaqishloq, Tegirmon qishloq, Rovot qishloqlari kirgan. Yangi yo'l kolxoziga Do'simtepa, Tallak, Mirzaqul, O'torchi va Qo'ng'iroq qishloqlari kirgan. Avliyotepa qishlog'ida 18 ta xo'jalik bo'lib, ulardan 6 tasi Qashqadaryo viloyatining Koson tumani tomonlardan Tolibxo'ja boshchiligidan bu yerlarga kelib o'rtnashgan edi».

Nortojibobo va Obloqul bobolarning xotirlashicha, oilalari o'rta hol dehqon oilasi bo'lib, 40 tanob yeri, 3ta ho'kizi, 2 ta oti va 6 ta sigiri bo'lgan. 1931 yildagi quloqlashtirish davrida ularning barcha ho'kizi, sigiri va otlarini tortib olishadi. Ularning uylaridagi to'shab o'tirgan palos va gilamlari, ko'rpa-to'shaklariyu uy-

¹ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 669-иш, 22-варақ.

ro'zg'or anjomlarigacha xatlab, aravalarga ortib, sha paytdagi Shayxlar qo'rg'onidagi selsovet (qishloq sho'rosi)ga olib borib topshirishadi.

Nortoji boboning aytishicha, otasi Ismoil bobo 3 marotaba quloq qilingan ekan. Uchinchi marta quloq qilinishiga sabab 1933 yilda 40 tanob yeriga ekan bug'doyini sovet ma'muriyati vakillari noqonuniy deb, qo'shni Do'simtepa qishlog'i aholisining mollariga payhon qildirgan. So'ngra Ismoil bobo payhon qilingan yeriga yangitdan suv taragan va o'rnidan chiqqan bug'doy (javdar) ni yig'ishtirib olib, o'rniga ishlov bermasdan tarvuz urug'ini ekan. Tarvuzlar pishib yetilgandan keyin, 2 arava qilib uyiga olib keladi. Mana shu halol mehnati sabab, u 3 chi marotaba quloq qilinadi.

Nortoji bobo 1930-1931 yillardagi jamoalashtirish davrini eslar ekan, otasi bilan birga shu qishloqlik Eshmurod boboning ham mol-mulki va xo'jaligi musodara qilinib, quloq qilishadi. Xo'jaligi quloq qilingandan keyin u kishi Ikromov rayonining dasht tomonlariga ketib qoladi. U kishini NKVd xodimlari ushlab kelib, Dahbed yaqinidagi Saydon degan joydagi lagerga olib kelib topshiradilar. Saydon lageri yoppasiga jamoalashtirish davrida quloq qilinganlar uchun respublika territoriyasida tashkil etilgan 17 maxsus posyolkalardan biri edi.

Viloyatda boy va quloq (hujjatda pomeschik—A. B.) xo'jaliklarini tugatish ishlari 1928 yilning 3 dekabridan boshlanadi. Bu paytda qishloq sovetlariiga qayta saylovlar o'tkazilayotgan edi. Shunga qaramay 3 ta rayonda 14 ta xo'jalik tugatiladi.

Oqdaryo rayonida 4 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 14 ta ishchi hayvoni, 14 qoramoli, 19 tanob yeri va qishloq xo'jaligi inventarlari 8 ta kambag'al xo'jaligi va 3 ta artel «Qizil o'zbek dehqon», Ozod birlashuv»)lariga bo'lib beriladi. Ularniig uy-joylari esa uchlik komissiyasining qaroriga binoan rayon ijroiya qo'mitasi ixtiyoriga beriladi.

Mitan rayonida 4 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 25 ta ishchi hayvoni, 23 ta qoramoli, 23 ta qo'yi, 233,5 tanob sug'oriladigan va 316 tanob lalmi yerlari

va qishloq xo'jaligi inventar (asbob-uskuna)lari tortib olinib, 33 -ta xususiy (yakka hol)-kambag'al xo'jaliklar va 5 ta artellarga bo'lib beriladi.

Payariq rayonida 6 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 41 ta ishchi hayvoni, 41 ta qora moli, 203 tanob lalmi yeri, 6,5 tanob sug'oriladigan yeri, 4,5 tanob uzumzor-bog'lari va qishloq xo'jaligi inventarlari 46 ta kambag'al xo'jaliklar va 2 ta artelga bo'lib beriladi.¹

Yoppasiga jamoalashtirish davrida qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashni rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor berildi. Buning bir ko'rinishi mashina-traktor-stansiyalari-MTSlar tashkil qilish edi.

1930 yilning 21-24 yanvarida bo'lib o'tgan Samarqand viloyati partiya komiteti va O'zbekiston Kompartiyasining VI birlashgan plenumida traktor kolonnalarini tashkil qilish haqida, avvalo, tuman kolxozlarida yer haydashni o'tkazish va traktor parkidan foydalanish rejasi haqida ta'kidlab o'tiladi² 1930 yilning 30 mayida bo'lib o'tgan Samarqand viloyati partiya konferensiyasida» Kelgusida qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirishni rivojlantirish» masalasi ko'rib chiqildi. Konferensiyada shu narsa alohida ta'kidlab o'tiladiki, «rayon va quyi partiya tashkilotlarining asosiy vazifasi qishloqlarda qishloq xo'jaligini socialistik isloh qilish, MTS larni kengaytirish va yangi kolxozlarni tuzishdan iboratdir».

Samarqand viloyatida birinchi MTS 1930 yilda Yangiqo'rg'on rayonida (hozirgi Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida) tashkil etiladi³ 1930 yilda viloyatda sovet agrar siyosatini amalga oshirilishi natijasida Bulung'ur, Oqdaryo, Yuqori Darg'om, Ikromov va Payariq rayonlarida 5 ta MTS tashkil etildi.

Samarqand viloyati bo'yicha traktor va MTSlar miqdorini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

¹ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 665-иш, 1-варак

² ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 1-рўйхат, 36-иш, 143-варак.

³ Абдураззаков Н. Победа колхозного строя в Самаркандской области.... –С. 85.).

Самарқанд вилояти туманларидаги экин майдонлари мидори ва тракторлар сони (1929-1930 йиллар)

3-жадвал

№	Районларнинг номи	1929-1930 йиллардаги экин майдони			Нормал тракторлар (фардзонлар)		
		Сугориладиган ерлар	Пахта майдони	Лалми (баҳорги) ерлар	Мавжуд бўлгани	Олиб келинган и	Жами
1	Булунғур	54678	18748	11158	9	121	130
2	Икромов	19300	8954	22213	13	67	80
3	Юқори Дарғом	21584	889	1031	3	22	25
4	Пайариқ	20166	13400	34007	20	78	100
5	Оқдарё	24416	16337	-	18	112	130
Жами:		140144	48328	68409	65	400	465

О'sha yillari MTS respublikaning qishloq xo'jaligi uchun mexanizatorlar tayyorlab beruvchi joy ham bo'lgan. Ular qoshida mexanizatorlar ayniqsa, traktorchilar tayyorlaydigan kurslari faoliyat ko'rsatgan. 1930 yilda Yangiqo'rg'on MTS da 130 nafar traktor boshqaruvchilari tayyorlandi. 1929 - 1930 yillarda turli tadbirlar o'tkazish orqali Samarqand viloyatida 900 nafar qishloq xo'jaligi mexanizatorlari o'qitildi.¹ Birgina Kattaqo'rg'on shahrida 1929 yilning sentyabridan 1930 yilning martigacha viloyat paxtachilik ittifoqi orqali mexanizatorlar kursini 187 kishi tugatdi.² 1929 yilda Samarqand viloyatida hammasi bo'lib 73 ta traktor mavjud bo'lib, bironta ham MTS bo'lmagan bo'lsa, 1939 yilga kelib viloyatda 33 ta MTSda 3629 ta traktor³ bor edi.

Yoppasiga jamoalashtirish va u bilan birga quloqlashtirishda dehqonlarni saylov huquqidan mahrum qilish siyosati keng qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bu davrda dehqonlarni saylash va saylanish huquqidan mahrum qilish o'ziga xos kompaniyaga aylanib ketgan edi. Saylov huquqidan mahrum qilish va ularni

¹ Самарқанд ВДА, 140-фонд, 1-руйхат, 583 иш, 28-варак

² Самарқанд ВДА, 140-фонд, 1-руйхат, 583 иш, 29-варак

³ Узбекистан за 15 лет.- Ташкент, 1939...-С. 105.

ro'yxatlarini tuzish, kolxozlarga kimlarni qabul qilish kerag-u, kimlarni kolxozlarga kiritmaslik kerakligini aniqlash orqali quloqqa tortish va surgun qilish amalga oshirilgan. Viloyatda jamoalashtirishni tezroq tugatish uchun o'rta hol, hatto kambag'al dehqonlarni ham quloq qilish, saylov huquqidan mahrum qilish, qamash hollari yuz berdi. O'sha vaqtda O'zbekiston SSR ning poytaxti Samarqand shahrida 1929 yilda yoshi 18 yoshdan o'tgan 86981 saylovchining 8772 nafari (11.2 foizi) saylov huquqidan mahrum qilingan. Ulardan 471 kishi tadbirkor, 419 kishi mehnatsiz daromad hisobiga yashayotgan deb topilgan. Huquqdan mahrum qilinganlarning 621 nafari imomlar, 4464 nafari savdogarlar, 150 nafari sobiq mirshablar va amir amaldorlari bo'lgan¹. Yana 177 kishining saylov huquqidan mahrum qilingani haqidagi bir ro'yxat tekshirilganda 34 nafar batrak ham «boy»lar qatori saylov huquqidan mahrum qilingani aniqlanadi.²

1930 yil 27 martdan viloyat ijroiya qo'mitasi saylov huquqidan mahrum qilinganlarning ro'yxatini tekshirish ishlarini olib borgan. Bu ishlarni amalga oshirish uchun viloyat ijroiya qo'mitasi o'z vakillaridan Vishnevskiyi Yangiqo'rg'on rayoniga, Murodovni Zominga, Mabrininni Eroni rayoniga, Noskovni Payariqqa, Karimovni Oqdaryoga, Mahmudovni Ikromov nomidagi rayonga, Davidovni Yukori Darg'om rayoniga, Rahmonovni Jizzaxga, Babkinni Bulung'urga, Platonovni Samarqand shahar sovetiga yuboradi.

Bulungur rayoni bo'yicha bu vaqtda 775 kishi saylov huquqidan mahrum qilingan bo'lib, tekshirish natijasida 233 kishini saylov huquqi tiklanadi. Turli xil sabablarga ko'ra ro'yxatdan chiqib ketganlar 130 kishini tashkil qilgan. Ro'yxatdagi 410 kishining umuman saylov huquqi tiklanmaydi.³

Saylov huquqidan mahrum qilinganlar (haqsizlar) ning ba'zilari goh gohida masjidga borib nomoz o'qiganligi va u yerda muqaddas kitob (Qur'oni Karim) o'qigani uchun mulla sifatida saylov huquqidan mahrum qilingan. Aslida ular mulla emas, oddiy dehqonlar bo'lgan. Ayrim dehqonlar 2 ta ot va 2 ta ho'kizga

¹ Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2009. –Б. 59.

² Узбекистанская правда. 6 мая 1930 года

³ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 655-иш, 9-варак.

ega bo'lgan, hosil yig'imi paytida, ishchi kuchi yollagani uchun ekspluatator sifatida saylov huquqidan mahrum qilingan. Bir aravakash 2-3 ta aravaga ega bo'lgan, qarindoshlari bilan birga ishlagan, u ham saylov huquqidan mahrum qilingan. Saylov huquqidan mahrum qilinganlar orasida mullalarga osh pishirib bergan savodsiz kishi mulla sifatida saylov huquqidan mahrum qilingan. Yana haqsizlardan biri komsomolni haqoratlagani uchun provokator (ig'vogar, fitnachi) sifatida ovoz berish huquqidan mahrum qilingan. Bu vaqtda Samarqand shahridan 7731 kishi saylov huquqidan mahrum qilingan bo'lib, ulardan 1000 kishi tekshirilgan.¹

Bu davrda qishloq ahlini kolxozlarga kiritishni «g'ayratlantirish» uchun ishchilar sinfi ham jalb etiladi. VKP(b) MQ ning 1929 yil noyabr plenumi qarori bilan yakka xo'jalik qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etilar ekan, ular joylarda agrar inqilobni avj oldirishni ta'minlashlari lozim edi.² Yigirma besh mingchi» ishchilardan O'zbekistonga Rossiyaning Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Ivanovo shaharlaridan 458 ishchi yuboriladi.³ Ulardan 29 nafari Xorazm okrugiga, 30 nafari Zarafshon, 40 nafari Farg'ona, 43 nafari Surxondaryo, 55 nafari Andijon, 55 nafari Qashqadaryo, 55 nafari Toshkent, 61 nafari Samarqand okruglariga yuboriladi.⁴

1930 yilning 2 fevralida Leningraddan Samarqandga yetib kelgan 64 nafar to'qimachlar brigadasi «Kolxozsentr» va «Kolxozittifoq» kooperasiyalariga taqsimlanadi. Ular bir haftalik o'quv kurslarini o'taydilar va kolxoz boshkaruviga jalb etiladilar.⁵

Kolxozlarda ishlash uchun Samarqanddagi sanoat korxonalari ishchilaridan ham 60 nafardan ortig'i jalb qilinadi. Ulardan 11 nafari non ishlab chiqarish ittifoqidan, 2 nafari ipakchilik kooperasiyasidan, 20 nafari viloyat paxtachilik ittifoqidan, 5 nafari uzumchilik-bog'dorchilik ittifoqidan, 8 nafari chorvachilik

¹ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 655-иш, 10-варак

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб, Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... —Б. 348.

³ Узбекистанская правда. 9-февраля 1930 года.

⁴ Узбекистанская правда. 9-февраля 1930 года.

⁵ Узбекистанская правда. 4-февраля 1930 года.

ittifoqidan edi. Ular shu yilning 26 fevraligacha joylarga borib faoliyatlarini boshlashi belgilab qo'yiladi.¹

Viloyatning ayrim rayonlarida jamoalashtirishda shoshmashosharlikka yo'l qo'yildi. Masalan, Yangiqo'rg'on rayonida kollektivlashtirish 15 kun ichida amalga oshirilgan. Shu qisqa muddat ichida 9 ming xo'jalikdan 47 ta kolxoz tashkil etilgan.

Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasining qaroriga ko'ra, yoppasiga kollektivlashtirish 1931 yilning oxirigacha yakunlanishni ko'zda tutiladi. Bu qarorga ko'ra, 1930 yilning bahorida ekin maydonlarining 30 % ini umumlashtirish ko'zda tutilgan. Shu yilning 1 yanvariga kelib viloyatda 283 ta kolxoz tashkil etilgan edi. Samarqand kolxozlarini asosan qishloq xo'jalik artellari tashkil etgan bo'lsa-da, yerga eskicha ishlov berish ham saqlanib qolgan. O'zbekistonda bu paytda yagona Yangiqo'rg'on rayonida bunday kolxozlar ko'pchilikni tashkil etgan. Yoppasiga jamoalashtirish bo'yicha viloyatda birinchi o'rinda Pastdarg'om rayoni, 2-o'rinda Bulung'ur rayoni, 3- o'rinda Oqdaryo rayoni turgan. Viloyat ijroiya qo'mitasining qaroriga ko'ra bu rayonlarda jamoalashtirish 1930 yilning oxirigacha tugallanishi kerak edi. Shu yilning may oyida jamoalashtirishni tezlashtirish natijasida 3821 xo'jalik kolxozlarga kiritilgan bir paytda, 57 xo'jalik kolxozlardan chiqib ketadi. Yoppasiga jamoalashtirish bo'yicha birinchi o'rinda turgan Pastdarg'om rayonining Arabxona qishlog'i dehqonlarining yig'ilishida qishloq soveti hududidagi 555 xo'jalikning hammasi yoppasiga kollektivlashtirilganligi to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.²

Dehqonlarni zo'rlik va qo'rqitish yo'li bilan kolxozlarga kiritish natijasida 1930 yilning aprelidayoq viloyatda jamoalashtirish sur'ati sun'iy ravishda 53,3% ga ko'tarildi.³ Shu yilning 3 aprelida Pastdarg'om rayoni rahbarlari «Yoppasiga

¹ ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-руйхат, 650-иш, 2-варак.

² Узбекистанская правда. 12-февраля 1930 года.

³ Узбекистанская правда. 5-мая 1930 - года

jamoalashtirish tamom bo'ldi, 95% mehnatkash dehqonlar kolxozlarga birlashtirildi», deb raport berdi.¹

Bu davrda chorvachilikka ixtisoslashgan kolxozlarni tuzishga ham katta e'tibor berildi. Masalan, viloyatning Jizzax rayonida 1931 yilda 28 ta chorvador kolxozlar tuzilgan bo'lsa, 1932 yilning birinchi kvartaliga kelib ularni soni 31 taga yetadi. Bu kolxozlarda 8515 bosh dumbali qo'y va 1980 bosh echki boqilgan. Shuningdek yana 5 ta qo'ychilik fermasi tuzilib ularda 5360 bosh qo'y boqiladi.²

Viloyatda 1928-1929 xo'jalik yilida yirik qoramollar 20402, otlar 0129, tuyalar 4392, kora ko'l qo'ylar 63328 dumbali qo'ylar 288003, cho'cho'chqalar 300, eshaklar 36354 boshni, jami hayvonlar 666534 boshni tashkil qilgan bo'lsa, 1932-1933 xo'jalik yilida qoramollar 217582, otlar 85240, tuyalar 940, qorako'l qo'ylar 131501, dumbali qo'ylar 436760, cho'chqalar 471, eshaklar 43451 boshni, jami hayvonlar 921948 boshni tashkil qilgan.³

Bu yillarda Samarqand viloyatida paxta va boshqa ekinlar ekiladigan maydonlar ham kengayib bordi. Masalan, 1929 yilda Samarqand okrugining O'zSSRda paxta maydoni hajmi bo'yicha ulushi 6,7 %ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1930 yilda 7,7%, 1933 yilda 80% ni tashkil qilgan.

1929 yilda Samarqand viloyatida ekin ekiladigan maydon 745600 gektar bo'lib, shundan 50366 gektariga paxta ekilgan. 1930 yilda 905542 gektardan 69500 gektariga paxta ekilgan, 1933 yilda 1500000 gektardan 120000 gektariga paxta ekilgan. Viloyat buyicha 1929 yilda 34651,8 tonna, 1932 yilda 138000 tonna paxta yetishtirilgan.⁴ Paxta hosildorligi 1 gektar hisobiga atigi 10,65 sentnerni tashkil qilgan.⁵

1928-1929 xo'jalik yilida viloyatda sug'oriladigan yerlar maydoni 202353 gektarni tashkil etib, shundan 9905 gektarini poliz ekinlari, 4746 gektarini bog'lar, 13407 gektarini uzumzorlar, 183641 gektarini turli xil ekinlar tashkil

¹ Узбекистанская правда. 4 – апреля 1930 года.

² Кизил Ўзбекистон. 1932 йил 21 апрел.

³ Самарқанд ВДА, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 63 – варақ.

⁴ Самарқанд ВДА, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 62 – варақ.

⁵ Самарқанд ВДА, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 164 – варақ.

qilgan. 1932-1933 xo'jalik yilida esa sug'oriladigan yerlar 253400 gektarga yetib, shu jumladan, poliz ekini maydoni 20000 gektarni, bog'lar 12300 gektarni, uzumzorlar 24500 gektarni, tutzorlar 8000 gektarni va boshqa ekinlar 54200 gektarni tashkil etgan.¹

1930 yilning kuzi va qishi hamda 1931 yilning boshida Samarqand viloyatida jamoalashtirish harakatining tezlashgani, qishloq ahlini nafrat uyg'otuvchi kolxozlarga «haydab kirish» uchun sinab ko'rilgan ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan keng foydalanilganini ko'rish mumkin. 1931 yilning 5 fevraligacha viloyat bo'yicha dehqon- xo'jaliklarini jamoalashtirish 52,3 foizga yetadi.² Pstdarg'om tumanida jamoalashtirish 88,8 foiz, Oqdaryo tumanida esa 74,9 foiz bo'ladi.³ 1932 yilning yanvariga kelib Samarqand viloyatida tuzilgan kolxozlarga butun dehqon xo'jaliklari 72,7 foizi birlashtiriladi. Viloyatda yoppasiga jamoalashtirishning avj olishi bilan — boy unsurlar»ga qarshi kurash kompaniyasi shiddatli hujum va siquvga olish»dan iborat zo'ravonlik usullari bilan amalga oshirildi. Joylarda quloq qilinganlarning qamoqqa olishning keng tus olishi natijasida 1930 yilning fevral va mart oylarida Samarqand okrugida 127 kishi, shuningdek, 81 boy, 10 mulla, 23 o'rta hol, 13 kambag'al dehqon qamoqqa olingan⁴.

1932 yilda partiya tashkilotlari kolxozlarda tozalash kompaniyasini o'tkazdi. Bu tadbirni o'tkazishdan maqsad, kolxozlarni badavlat qatlamlardan chiqqanlar, savdogarlar, dindorlardan tozalash edi. Bu kompaniyaning boshida kimlar turganini quyidagi misoldan ham bilib olishimiz mumkin.

O'zbekiston Kompartiyasi MQ ning birinchi kotibi Akmal Ikromov O'zbekiston zarbdor kolxozchilarining qurultoyida so'zlagan «Kolxoz qurilishining galdagi vazifalari» nomli nutqida bu haqda quyidagicha gapirgan: «Boylar, quloqlar kolxozga kirsa ketmoqchi bo'lib yurmaydi. Qay yerda ishni buzish, o'g'irlik qilish mumkin bo'lsa, o'sha yerga kirib oladi. Shu yil bahorda

¹ Самарканд ВДА, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 64 - варақ.

² Ўзбекистанская правда. 13 февраля 1931 года.

³ Ўзбекистанская правда. 4 - апреля 1930 года.

⁴ Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сурғунидаги юртдошлар қисмати... –Б. 67.

biz, kolxozlarda 2700 quloq, boylarni topib oldik. Bularning 1200 tasi kolxozning mas'ul ishida ekan. Ba'zilar kommunistlar partiyasiga kirib olgan. Ularning 95 nafari kolxoz raisi, 236 nafari idora a'zosi, 18 nafari taftish komissiyalarida ishlaydi. 50 nafari kotib, 159 nafari brigadir, 35 nafari tabelchi, 37 nafari hisobchi, 131 nafari xo'jalik mudiri. Ular mana shunday joylarga kirib olib istagancha o'g'irlik qiladilar.-Men ularning kolxozlarga qilgan zararkunandaliklari haqida material so'ragan edim, ikki pud qog'oz ko'tarib keldilar. Bularning hammasida kolxozlardagi o'g'irliklar, zararkunandaliklar to'g'risida yozilgan»¹.

Yuqoridan tazyiq o'tkazishning kuchayishi quloqlashtirish siyosatining tezlashtirilishi, yakkahol dehqonlarni yakka tartibda soliqqa tortilishi, ma'muriy-iqtisodiy siyosatning qattiqlashuvi ularni kolxozga majburiy ravishda jalb qilish sur'atlarni jiddiy ravishda oshirishga yordam beradi. Masalan, 1935 yil Samarqand viloyatidagi kolxozlarga 102850 ta dehqon xo'jaliklari birlashtirilgan bo'lib, bu viloyatdagi 87,7 foiz dehqon xo'jaliklari edi.² 1937 yilga kelib esa viloyatdagi kolxozlar tomonidan 98,75 foiz dehqon xo'jaliklari qamrab olinadi. 1939 yilning oxirida viloyat bo'yicha tashkil etilgan kolxozlarning soni 1514 taga yetib. ularga 98,4 foiz dehqon xo'jaliklari birlashtirildi. Shunday qilib, ikkinchi besh yillik davrida Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish tugallanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, quloq qilingan dehqonlarning ko'pchilik qismi jinoyatchi emas edi. Ular kolxozga kirishni hohlamaganligi, haddan ortiq soliqlarni to'lash uchun mablag'i yo'qligi va shunchaki ijtimoiy kelib chiqishlari uchun jazolangan edi. Aslida esa badavlat bo'lmagan o'rta hol dehqon, hunarmand, mayda tadbirkorlar, dindorlar quloq deb atalib mol-mulkklari musodara qilinib, uchlik komissiyasining qarori bilan qamoq jazosiga hukm qilingan yoki bo'lmasa o'zlari yashab turgan qishloq va makonlaridan boshqa hududlarga ko'chirib yuborilgan. Bu davrda o'ziga to'q dehqonlar ham quloq deb

¹ Кизил Ўзбекистон, 1933 йил 6 – сентябрь.

² Камолов А. Самарқанд областида колхоз тузумининг ғалабаси тарихидан (1927 – 1935 йиллар) ...-С. 54.

hisoblanib, katta miqdorda soliq to'lashga majbur etilgan. Oqibatda dehqonlar quloq bo'lishdan cho'chib, o'z xo'jaliklaridagi ishlaridan voz kechib, uni tashlab qo'ygan. Bu esa mamlakatda oziq—ovqat mahsulotlarining yetishmasligiga olib kelgan. SSSR da bo'lgani singari O'zbekiston SSR da 1933 yilda ocharchilik boshlangan. Buning oqibatida yuz minglab odamlar ochlikdan qirilib ketgan. Milliy kadrlarimizning nohaqdan qoralanib, rahbarlik lavozimlaridan olib tashlanishiga yoki bo'lmasa arzimay aybi uchun qamoqqa hukm qilinishiga olib kelingan.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, qishloq xo'jaligini tub isloh qilish va rivojlantirish yo'li sho'rolar davrida majburan o'tkazilgan jamoalashtirish siyosatiga nisbatan xalqimizga katta foydalar keltirib, mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida dadil mehnat qilishga undamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Samarqand viloyatida bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan yoppasiga jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati fojeali oqibatlarga olib keldi. O'zbek qishlog'ining taraqqiyotiga kuchli zarba berilib, mehnatkash xalqning ahvoli og'irlashdi. 1930 yilda boshlangan bu jarayonlar o'zidan mudhish iz qoldirib, to sovet rejimi qulagan davrgacha davom etib turdi.

XULOSA

XX asrning 20–30 yillari o'zbek dehqonlari hayotida ittifoqdagi barcha dehqonlar hayoti kabi ayanchli davrlardan biri bo'ldi. Ushbu yillarda qishloqlarda tub sinfiy o'zgarishlar yangi kolxoz tuzumi, ijtimoiy–siyosiy munosabatlar qaror topdi. Bunday o'zgarishlar sobiq ittifoqning majburlash, zo'rlash oqibatida yuzaga keldi. Dehqonlarning hohish va irodasi hisobga olinmasdan ma'muriy–buyruqbozlik tizimi tomonidan, markazdan amalga oshirildi. Bu holda o'zbek dehqonlariga turli xil zo'rlik ishlatish usullari joriy qilindi va buning oqibatida O'zbekistonda yashayotgan ko'psonli dehqonlarning moddiy ahvolidagi ijobiy o'zgarishlar bo'lmadi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan yer–suv islohotlari va ommaviy jamoalashtirish siyosati natijasida ko'plab o'rta hol hamda boy dehqonlarning ba'zida kambag'al dehqonlarning ham yer mulki, xalq xo'jaligiga zarur bo'lgan asbob–uskunalari, mehnat qurollari tortib olindi. Bizga ma'lumki, o'rganilayotgan bu davrda aholining asosiy qismini oziq–ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab berayotgan dehqonlarning katta qismi o'zlarining yerlaridan, moddiy boyliklaridan ajralib qoldi. Buning oqibatida mamlakatda iqtisodiy tanazzul, oziq–ovqat mahsulotlarining xarid narxining oshib borishi, ocharchilik, Turli xil kasalliklarga chalinish ko'payib bordi. Sovet hokimiyatining agrar sohadagi bunday noto'g'ri tadbirlari xalqning moddiy ahvolini yomonlashtirib, dehqonlarni yerdan begonalashuviga olib keldi. Bu tadbirlarga qarshi chiqqan yoki unga bo'ysunmagan dehqonlar quloq sifatida mamlakatning uzoq va og'ir o'lkalariga, xususan, Sibir va Qozog'iston hamda Ukrainaga surgun qilindi. Ko'plari stalincha boshqaruv tizimining qurbonlari bo'lishdi.

Markaz tomonidan amalga oshirilgan bunday zo'ravonliklar natijasida barcha mol–mulkidan ayrilgan dehqonlar yollanma ishchilarga aylanib, mamlakatda oziq –ovqat mahsulotlarini yetishtirish keskin kamayishiga, ba'zi hududlarda ommaviy ocharchiliklar bo'lishiga sabab bo'ldi.

Stalincha usullarda amalga oshirilgan ommaviy jamoalashtirish siyosati natijasida ko'plab dehqonlar jabr ko'rib, majburan tashkil topgan kolxozlarga

kirgizildi. Kolxoz tuzumi o'zining ko'p yillik faoliyatida o'zini oqlamadi. O'zbek dehqonlarining mehnatsevarligi tufayli mamlakatda amalga oshirilgan ma'muriy–buyruqbozlik tizim, uning qiyinchiliklariga qaramasdan dehqonlar ilg'or mehnat usullaridan oqilona foydalanib, xalqimizni yetarli oziq–ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda o'zining hissasini qo'shdi. Bu sohada o'zbek dehqonlari o'zining asriy boy tajribalaridan foydalanib, agrar sohada yuqori natijalarga erishdi. Lekin tadqiq etilayotgan davrdagi bunday qiyinchiliklar O'zbekistonni barcha sohada markazga bo'ysunganligi, xom ashyo bazasiga aylanganligi agrar sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelmoqda edi. Buning oqibatida respublika qishloq xo'jaligi bir tomonlama rivojlanib, og'ir ijtimoiy–iqtisodiy va ekologik oqibatlarga olib keluvchi paxta yakkahokimligiga duchor bo'ldi. Respublikadagi asosiy sug'oriladigan yerlarga texnik ekin bo'lgan va ko'p suv talab qiladigan paxta ekila boshlandi. Respublikada paxta yakkahokimligi ham ana shu davrda boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng bu holat yanada kuchayib, mamlakatda ekologik holatning yomonlashuviga, Orol dengizining qurishiga, Orol atrofida ekologik vaziyatning yomonlashuviga, aholi o'rtasida turli xil kasalliklarni ko'payishiga, onalar va bolalar o'limining ortishiga sabab bo'ldi.

XX asrning 20–30 yillarida o'zbek dehqonlari hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qishloqlarning ijtimoiy tuzilishi tubdan o'zgardi, dehqonlar o'rtasida savodxonlik darajasi birmuncha o'sdi. Qishloqlarda umumta'lim maktablari va ta'lim muassasalarining soni oshdi. Lekin ushbu sohalarda ham markazning boshqaruv tizimi, ma'muriyatchilik, buyruqbozlik, o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Yuqoridagi qayd qilingan kamchiliklar, xatoliklar respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz va mamlakatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan bartaraf etib kelinmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 98
2. Каримов. И.А «Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажагимизнинг гаровидир» рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент, Ўқитувчи, 2012, бет – 18.
3. Каримов. И. А. «Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз» Тошкент, 2000, бет – 43.
4. Каримов. И. А. «Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз» Тошкент, 1999.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.2011
6. Абдураззаков Н. Победа колхозная строя в Самаркандский область. Труды УзГУ. Новая серия. Выпуск №. 80.- Самарканд. 1957.-С.77.)
7. Алламуродов. Д. Ўзбекистон Шўроларининг Социализм ғалабаси учун курашдаги тарихий тажрибаси. Т. Ўзбекистон. 1974. 134 – бет.
8. Бухоро вилояти фирқа архиви, 1 – ф, 3 – р, 187 – д, 54 – варақ.
9. Джамалов О. Б. Социально- Экономические предпосылки сплошной коллективизации сельское хозяйства в Узбекистане.-Тошкент: Государственное Издательство УзССР, 1950.
10. Джамалов О. Б. Социально- Экономические предпосылки сплошной коллективизации сельское хозяйства в Узбекистане....-С.40.
11. Икромов А. Танланган асарлар, 111 – том, 179 – бет.
12. Ирригация Узбекистана. Е. 1. – Тошкент; Фан, 1975. –С. 180.
13. Исаев Х Ўзбекистон деҳқонларининг ижтимоий сиёсий фаоллигининг ўсиши.(1925-1940 йиллар.), Т, Ўзбекистон, 1986 йил, 79-бет
14. Камолов А. 1925-1926 йилларда Самарқанд областида ўтқазилган ер - сув ислоҳоти тарихига доир...1963.-С.135.)
15. Қизил Ўзбекистон, 1933 йил 6 – сентябрь.
16. Қизил Ўзбекистон. 1932 йил 21 апрел.

- 17.Ризаев Г.Р. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг).. – Тошкент; Узбекистан, 1967. С.70.).
- 18.Ўзбекистон коммунистик партияси урушдан олдинги беш йилликларда, 91 бет.
- 19.Ўзбекистон ҳукуматининг Шўроларининг бутун Ўзбекистон бешинчи съездида ҳисоботи, Тошкент. 1935.96 - бет.
- 20.Ўзбекистон коммунистик партияси съездлари ва МҚ Пленумлари резолюция ва қарорларида, Т, 1987, 1-том, 29-30 бетлар
- 21.Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони Архивининг Самарқанд вилояти бўлими (Ўз. РПДА нинг Самарқанд ВБ), 215-фонд, 1-рўйхат, 35-иш, 19-варақ.
- 22.Ўзбекистон ССР меҳнаткашлари депутатлари Шўролари рақамларда, Тошкент, 1932, 27 бет.
- 23.Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.2000
- 24.Холиқулов , Р. 20 – 30 йилларда совет ҳокимиятининг ўзбек деҳқонлари ҳаётидаги мустамлакачилик сиёсатининг моддий аҳволда акс этилиши тарихидан (Илмий тадқиқотлар ахборотномаси, СамДУ, 2003 йил, 4 – сон, бет - 19)
- 25.Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2009. –Б. 59.

Архив материаллари

1. ЎзР МДА Р – 94 – ф, 5 – р, 814 – д, 4,6 варақлар.
2. ЎзР МДА Р – 94 – ф, 5 – р, 814 – д, 50 – варақ.
3. ЎзР МДА, Р – 737 – ф, 10 – р, 2352 – д, 36 – варақ.
4. ЎзР МДА, Р – 837 – ф, 32 – р, 1949 – д, 1 – 8 варақлар.
5. ЎзР МДА, Р – 837 – ф, 8 – р, 87 – д, 48 – варақ
6. ЎзР МДА, Р – 94 – Ф, 1 – р, 1353-д,19 – варақ.
7. ЎзР МДА, Р – 95-ф, 1-р, 2257 - д, 72-73 варақлар.
8. ЎзР МДА , Р-25-ф, 1-р, 305-д, 20-23 варақлар

9. ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 26-йиғма жилд, 16-варақ.
10. ЎзР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3097-йиғма жилд, 122-варақ.
11. ЎзР ПАА- 6С ф, 1-р, 752-д, 14, 21-24-аврақлар
12. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 788-йиғма жилд, 141-варақ.
13. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 650-иш, 2-варақ.
14. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 655-иш, 10-варақ
15. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 655-иш, 9-варақ.
16. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 1-рўйхат, 36-иш, 143-варақ.
17. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 665-иш, 1-варақ
18. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 669-иш, 22-варақ.
19. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБА, 215-фонд, 1-рўйхат, 10-иш, 39-варақ
20. ЎзРПДА нинг Самарқанд ВБА, 65-фонд, 1-рўйхат, 183-иш, 1-варақ.
21. ЎзРПДА Самарқанд ВБ, 215-фонд, 1-рўйхат, 359-иш, 11-варақ
22. Самарқанд Вилоят давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 324-иш, 26-варақ.
23. Самарқанд Вилоят Давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 324-иш, 28-варақ..
24. Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 164 - варақ.
25. Самарқанд Вилоят давлат архиви, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 62– варақ.
26. Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 63 – варақ.
27. Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 256 – фонд, 1 – рўйхат, 137 – иш, 64 - варақ.
28. Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 140-фонд, 1-рўйхат, 583 иш, 28-варақ
29. Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 140-фонд, 1-рўйхат, 583 иш, 29-варақ

- 30.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 1685 – фонд, 1-рўйхат, 338-иш, 2-
варақ.
- 31.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 1685 – фонд, 1-рўйхат, 338-иш, 3-
варақ.
- 32.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 47-иш, 91-
варақ.
- 33.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 47-иш, 92-
варақ.
- 34.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 48-фонд , 1-рўйхат, 49-иш, 96-103
варақлар.
- 35.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 168-иш, 122
варақ.
- 36.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 43-иш, 97-102
варақлар.
- 37.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 58-62-
варақлар
- 38.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 68-71-
варақлар.
- 39.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 10-12
варақлар.
- 40.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 10-
варақ
- 41.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 857-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 4-варақ.
- 42.Самарқанд Вилоят Давлат Архиви, 857-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 21-
варақ.)
- 43.Узбекистанская праВилоят Давлат Архиви. 12-февраля 1930 года.
- 44.Узбекистанская праВилоят Давлат Архиви. 4 – апреля 1930 года.
- 45.Узбекистанская праВилоят Давлат Архиви. 4-февраля 1930 года.
- 46.Узбекистанская праВилоят Давлат Архиви. 5-мая 1930 - года
- 47.Узбекистанская праВилоят Давлат Архиви. 9-февраля 1930 года.

- 48.Ўзбекистонская праВилоят Давлат Архиви. 9-февраля 1930 года.
- 49.Ўзбекистонская праВилоят Давлат Архиви. 6 мая 1930 года
- 50.Ўзб Респ МДА , 86-р, 1088-д, 149-152 варақлар
- 51.Ўзб Респ МДА , 86-ф , 300-д , 344-345 варақлар
- 52.Ўзб Респ МДА, 640 – д , 50 – варақ .
- 53.Ўзб Респ МДА, 122 – д , 191 - варақ.
- 54.Ўзб Респ МДА, 86-ф, 10 –р , 180 – д, 159-варақ
- 55.Ўзб Респ МДА , 86 – ф , 10-р, 1079-д, 84-106 варақлар
- 56.Ўзб Респ МДА, 95-ф, 122-д, 264-274 варақлар.
- 57.Ўзб Респ МДА, 95-ф, 33-д, 246-247 варақлар.
- 58.Ўзб Респ МДА, 95-ф, 33-д, 28-варақ.
- 59.Ўзб Респ МДА, 95-ф, 75-д, 26-варақлар.
- 60.Ўзб. Респ. МДА, 86-ф, 10-р, 180-д, 41-варақ
- 61.Ўзбекистонская праВилоят Давлат Архиви. 13 февраля 1931 года.
- 62.Ўзбекистонская праВилоят Давлат Архиви. 4 - апреля 1930 года.

Даврий матбуот материаллари

1. “За партию” ойномаси, 1927 йил № 2, 100-101 бет.
2. “За партию” ойномаси, 1927 йил № 2, 105 бет
3. “За партию” ойномаси, 1927 йил № 2, 100 бет.
4. “За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 30 бет
5. “За партию” ойномаси, 1929 йил 1-2, 35 бет.
6. “За партию” ойномаси, 1929 йил № 7-8, 31 бетлар
7. “За партию” ойномаси, 1929 йил № 7-8, 31 бетлар.